

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK PROTSESSUAL KODEKSI

I BO‘LIM. UMUMIY QOIDALAR

1-bob. Asosiy qoidalar

1-modda. Fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilik

Fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Kodeks va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilik buyruq tartibidagi ishlarni, da’vo tartibidagi ishlarni, alohida tartibda yuritiladigan ishlarni, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlarni, mediativ kelishuvni ijroga qaratish bilan bog‘liq ishlarni va chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqish hamda hal etish tartibini belgilaydi.

(1-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-1089-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son)

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchiligida ko‘rsatilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

(1-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2-modda. Fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari

Fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasining huquqlari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etish;

qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, demokratiyani, ijtimoiy adolatni, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta‘minlashga ko‘maklashish;

qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish.

3-modda. Sud orqali himoyalani huquqi

O‘zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasiga** muvofiq har bir shaxsga o‘z huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatlanadi.

Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga (sudga) murojaat qilishga haqli.

(3-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

4-modda. Sudga murojaat qilish shakli

Sudga murojaat qilish:

fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha — da’vo arizasi shaklida;

buyruq tartibida ish yuritish bo‘yicha, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo‘yicha, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda — ariza shaklida;

apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiyasi sudlariga murojaat etilganda — shikoyat (protest) shaklida amalga oshiriladi.

(4-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

5-modda. Fuqarolik ishi

Fuqarolik ishi ishda ishtirok etuvchi shaxslar, fuqarolik sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari sudga taqdim etgan yoki sud tomonidan talab qilib olingan hujjatlar va sud hujjatlari asosida sud tomonidan shakllantiriladi.

Fuqarolik ishi elektron shaklda shakllantirilishi mumkin.

Elektron shaklda shakllantirilgan fuqarolik ishining qog'ozdagi ko'chirma nusxasi bo'lishi mumkin.

Fuqarolik ishi elektron shaklda shakllantirilgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va fuqarolik sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari hujjatlarni sudga elektron shaklda taqdim etishga haqli. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va fuqarolik sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari sudga taqdim etgan yozma hujjatlar ishga elektron shaklda qo'shib qo'yiladi, shundan so'ng yozma hujjatlar ularni taqdim etgan shaxslarga qaytariladi.

Fuqarolik ishi elektron shaklda shakllantirilgan taqdirda, sud hujjatlari sudyaning (sudyalarning) elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi, sud majlislarining hamda protsessual harakatlarning bayonnomalari esa raislik qiluvchining va sud majlisi kotibining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Elektron shaklda shakllantirilgan fuqarolik ishini boshqa sudga yoki o'zga organga o'tkazish axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

6-modda. Sud hujjatlari

Sud ko'rilayotgan va hal etilayotgan masala bo'yicha hal qiluv qarori, ajrim, qaror va buyruq qabul qiladi.

Birinchi instansiya sudi ishni mazmunan ko'rish natijalari bo'yicha hal qiluv qarori qabul qiladi, ushbu Kodeksning 18-bobida nazarda tutilgan hollarda esa sud buyrug'i qabul qiladi.

Apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudi ishni ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqaradi.

(6-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosati ishni taftish tartibida ko'rish natijalari bo'yicha qaror chiqaradi.

(6-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

(6-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

(6-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

Sud qonunda o'zining vakolatiga kiritilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rish natijalari bo'yicha qaror chiqaradi.

Sud ish mazmunan hal etilmaydigan masalalarni ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqaradi.

2-bob. Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari

7-modda. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

Fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlov faqat sud tomonidan, ushbu Kodeksda belgilangan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi.

8-modda. Qonun va sud oldida tenglik

Fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlov fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan, tashkilotlarning esa tashkiliy-huquqiy shaklidan, mulkchilik shaklidan, joylashgan yeri, shuningdek boshqa holatlardan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

(8-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-sentabrdagi O'RQ-963-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son)

9-modda. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi

Fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar.

Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga ko'ra javobgarlikka sabab bo'ladi.

10-modda. Taraflar tortishuvi va teng huquqliligi

Fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi.

11-modda. Sud ishlari yuritiladigan til

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yuritiladi.

Sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxslarga ishga taalluqli materiallar bilan o'z ona tilida to'liq tanishib chiqish, sudda ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda so'zlash, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, arz bilan murojaat etish, iltimosnomalar taqdim etish, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan tartibda tarjimonning xizmatlaridan foydalanish huquqi ta'minlanadi.

Ishda ishtirok etuvchi va sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxs ishdagi sud hujjatlari berilishini so'rab yozma ariza bilan murojaat etgan taqdirda, unga sud hujjatlari uning ona tiliga yoki u biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi.

12-modda. Sud muhokamasining oshkoraligi

Barcha sudlarda ishlar muhokamasi oshkora o'tkaziladi.

Davlat siriga, farzandlikka olish siriga taalluqli ma'lumotlar mavjud bo'lgan ishlar bo'yicha va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ishning muhokamasi yopiq sud majlisida o'tkaziladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishining oldini olish, yozishmalar sirini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash maqsadida yopiq sud muhokamasi o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Ish sudning yopiq majlisida ko'rilayotganida ishda ishtirok etuvchi shaxslar, zarur hollarda esa guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ham hozir bo'ladi.

Ishni sudning yopiq majlisida eshitish fuqarolik sud ishlari yuritishning barcha qoidalariga rioya qilingan holda olib boriladi. Sudning yopiq majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora o'qib eshittiriladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari taraflarning roziligi bilan yoki shaxsini ko'rsatmagan tarzda sudning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi mumkin, bundan sudning yopiq majlisida qabul qilingan sud hujjatlari mustasno.

13-modda. Sud muhokamasining bevositaligi va og'zakiligi

Sud fuqarolik ishini ko'rayotganda ishga oid dalillarni bevosita tekshirishi: ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini, guvohlarning ko'rsatuvlarini, ekspertlarning xulosalarini va

mutaxassislarining maslahatlarini (tushuntirishlarini) eshitishi, yozma dalillar bilan tanishishi, ashyoviy va raqamli dalillarni ko'zdan kechirishi shart.

(13-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

Ishning muhokamasi og'zaki ravishda o'tadi.

14-modda. Ishlarni qonunchilik asosida hal qilish

(14-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sud ishlarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hal qilishi shart. Sud, agar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lmasa, boshqa qonunchilik hujjatlarini ham qo'llaydi.

(14-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Nizoli munosabatni tartibga soladigan huquq normalari mavjud bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini qo'llaydi, bunday normalar mavjud bo'lmaganda esa nizoni qonunlarning umumiy asoslari va mazmunidan kelib chiqqan holda hal etadi.

Sud O'zbekiston Respublikasining qonuniga yoki xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatning huquq normalarini ham qo'llaydi.

15-modda. Ishning haqiqiy holati, taraflarning huquq va majburiyatlarini sud tomonidan aniqlanishi

Sud taqdim etilgan materiallar va tushuntirishlar bilan cheklanmasdan, ishning haqiqiy holatlarini, taraflarning huquq va majburiyatlarini har taraflama, to'liq va xolisona aniqlash uchun qonunga muvofiq choralar ko'rishga haqli.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, ularni protsessual harakatlarni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik oqibatlarini to'g'risida ogohlantirishi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishida ko'maklashishi kerak.

16-modda. Sud hujjatlarining majburiyligi

Sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa organlar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim.

Sud hujjatini bajarmaslik qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sud hujjatining majburiyligi manfaatdor shaxslarni o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun, basharti bularga daxldor nizo sudda ko'rib chiqilmagan va hal etilmagan bo'lsa, sudga murojaat qilish imkoniyatidan mahrum etmaydi.

3-bob. Sud tarkibi

17-modda. Fuqarolik ishining yakka tartibda va hay'atda ko'rilishi

Fuqarolik ishi (bundan buyon matnda ish deb yuritiladi) birinchi instansiya sudida sudya tomonidan yakka tartibda ko'riladi. Sudya ishni yakka tartibda ko'rayotganda va hal qilganida u sud nomidan ish yuritadi.

Muayyan ishni ko'rish uchun sud tarkibi sudyalarning ish hajmi va ixtisoslashuvi hisobga olingan holda, sud tarkibini shakllantirishga sud muhokamasi natijasidan manfaatdor bo'lgan shaxslarning ta'sir ko'rsatishi istisno etiladigan tartibda, avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalangan holda shakllantiriladi.

(17-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-martdagi O'RQ-607-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son)

Ishni apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudlarida ko'rish uch nafar sudyadan iborat tarkibda hay'atda amalga oshiriladi.

(17-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ishni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida taftish tartibida ko'rish Rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lganda amalga oshiriladi.

(17-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ish hay'atda ko'rilayotganda sudyalardan biri sud majlisida raislik qiladi.

Ishni ko'rish va hal etishda barcha sudyalarning teng huquqlarga ega bo'ladi.

18-modda. Sud tarkibining o'zgarishligi

Bir sudya yoki sud tarkibi tomonidan ko'rilishi boshlangan ish shu sudya yoki sud tarkibi tomonidan ko'rib tutilishi lozim.

Sudya yoki sudyalardan biri quyidagi hollarda almashtirilishi mumkin:

o'zini o'zi rad qilish yoki sudyani rad qilish ushbu Kodeksda belgilangan tartibda arz qilingan va qanoatlantirilganda;

sudya yo'qligi tufayli ishni o'z vaqtida ko'rishning imkoniyati bo'lmaganda.

Sudya almashtirilgandan so'ng ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

19-modda. Sud tomonidan masalalarni hal qilish tartibi

Ishning muhokamasi chog'ida yuzaga keladigan barcha masalalar sudya tomonidan yakka tartibda, ishni sudyalarning hay'ati ko'rayotganda esa sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan hal etiladi.

Masala hay'at tarkibida hal qilinayotganida sudyalarning birortasi ham ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi.

Ozchilik tomonida qolgan sudya sud hujjatini imzolashi shart va alohida fikrini yozma shaklda bayon qilishga haqli. Sudyaning alohida fikri konvertga solinib muhurlangan holda ishga qo'shib qo'yiladi, biroq o'qib eshittirilmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydi. Yuqori instansiya sudi sudyaning alohida fikri bilan tanishishga haqli.

20-modda. Ishni ko'rishda sudyaning takror ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligi

Ishni birinchi instansiya sudida ko'rgan sudya, agar sudning hal qiluv qarori apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudi tomonidan bekor qilingan bo'lsa, bu ishni takroran ko'rish mumkin emas, bundan yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishlarni ko'rish, shuningdek sirdan ish yuritish tartibida qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rish hollari mustasno.

Ishni birinchi instansiya sudida ko'rgan sudya shu ishni apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas.

Ishni apellyatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu ishni birinchi instansiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas.

Ishni kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu ishni birinchi instansiya, apellyatsiya yoki taftish instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas.

Ishni taftish instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu ishni birinchi instansiya, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida, shuningdek ishni yuqori instansiya sudida taftish tartibida qayta ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas.

(20-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

4-bob. Sudyani va protsessning boshqa ishtirokchilarini rad qilish

21-modda. Sudyani rad qilish asoslari

Quyidagi hollarda sudya ishni ko'rish mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u:

1) shu ish ilgari ko'rilganida sudya sifatida ishtirok etgan bo'lsa va ushbu Kodeks talablariga muvofiq ishni ko'rishda takror ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasa;

- 2) ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligi va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa;
- 3) shu ish ilgari ko'rilganida hakamlik sudining sudyasi, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisining kotibi, guvoh va vakil sifatida ishtirok etgan bo'lsa;
- 4) taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning qarindoshi bo'lsa;
- 5) ishni ko'rayotgan hay'at tarkibiga kiruvchi sudyaning qarindoshi bo'lsa.

22-modda. Prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon va sud majlisi kotibini rad qilish asoslari

Ushbu Kodeks 21-moddasining 2 va 4-bandlarida ko'rsatilgan rad qilish asoslari prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon va sud majlisi kotibiga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Agar ekspert, mutaxassis va tarjimon taraflar yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga xizmat yuzasidan yoxud boshqacha tarzda qaram bo'lsa, agar ekspert va mutaxassis ham taftish o'tkazgan yoxud xulosa bergan bo'lib, ularning materiallari mazkur ishni qo'zg'atishga asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, ularni rad qilish to'g'risida ariza berilishi mumkin.

23-modda. Rad qilish haqida ariza berish

Ushbu Kodeksning 21 va 22-moddalarida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lsa, sudya, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisi kotibi o'zini o'zi rad qilish haqida arz qilishi shart. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ham shu asoslarga ko'ra ularni rad qilish haqida arz qilishi mumkin.

Prokurorni, ekspertni, mutaxassisni, tarjimonni, sud majlisi kotibini rad qilish sudning tashabbusiga ko'ra ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Rad qilish haqidagi arz asoslantirilgan bo'lishi va ishni mazmunan ko'rish boshlanguniga qadar ma'lum qilinishi lozim. Rad qilish asosi sudga yoki rad qilinayotgan shaxsga ishni ko'rish boshlanganidan so'ng ma'lum bo'lib qolgan hollardagina rad qilish haqida kechikib arz qilishga yo'l qo'yiladi.

Ayni bir shaxs tomonidan ayni bir asoslar bo'yicha takroran rad qilish arz qilinishi mumkin emas. Takroran rad qilish arz qilingan taqdirda, u ko'rib chiqilmaydi.

24-modda. Rad qilish to'g'risidagi arzni hal etish tartibi

Rad qilish to'g'risida arz qilingan taqdirda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrini, agar rad qilinishi talab etilayotgan shaxs tushuntirish berishni xohlasa, uning tushuntirishini ham eshitishi kerak.

Ishni yakka tartibda ko'radigan sudyani rad qilish to'g'risidagi masala sud raisi tomonidan, yakka tarkibli sudda esa, shu sudyaning o'zi tomonidan hal etiladi.

Sud hay'atining a'zosi bo'lgan sudyani rad qilish hay'at a'zolari bo'lgan qolgan sudyalar tomonidan ushbu sudya yo'qligida hal etiladi. Rad qilishni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolganda, sudya rad qilingan hisoblanadi.

Ish hay'atda ko'rilayotganda ikki sudyani yoki sudning butun tarkibini rad qilish arz qilingan taqdirda, rad qilish masalasi sudning shu tarkibi tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi.

Rad qilish masalasini hal etish uchun sudya (sud) alohida xonaga (maslahatxonaga) kiradi va rad qilishni qabul qilish yoki qabul qilmaslik to'g'risida ajrim chiqaradi.

O'zini o'zi rad qilish to'g'risidagi va prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon va sud majlisi kotibini rad qilish haqidagi masala ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda, ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan hal qilinadi.

25-modda. Rad qilish to'g'risidagi arizani qanoatlantirish oqibatlari

Sudya rad qilingan taqdirda ish fuqarolik ishlari bo'yicha shu tumanlararo, tuman (shahar) sudida, lekin boshqa sudya tomonidan ko'riladi yoki ko'rish uchun fuqarolik ishlari bo'yicha boshqa tumanlararo, tuman (shahar) sudiga o'tkaziladi.

Ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudida, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida ko‘rilayotganda sudya yoki sudning butun tarkibi rad qilingan taqdirda, ish shu sudning o‘zida, lekin sudning boshqa tarkibida ko‘riladi.

Agar Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudida, viloyatlar yoki Toshkent shahar sudlarida ushbu Kodeksning 21-moddasida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra rad qilish qanoatlanirilganidan keyin mazkur ishni ko‘rish uchun sudning yangi tarkibini tuzish imkoni bo‘lmasa, ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga o‘tkazilishi kerak. Bunday holda ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida ko‘riladi yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining farmoyishiga binoan boshqa tegishli sudga ko‘rish uchun yuboriladi.

(25-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O‘RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

5-bob. Sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik

26-modda. Ishlarning sudga taalluqliligi

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga quyidagi ishlar taalluqlidir:

1) fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to‘g‘risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo‘yicha ishlar, agar taraflardan hech bo‘lmaganda bittasi fuqaro bo‘lsa, bundan qonunda shunday nizolarni hal qilish boshqa sudlarga yoki boshqa organlarga topshiriladigan hollar mustasno;

2) ushbu Kodeksning 293-moddasida sanab o‘tilgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar;

3) ushbu Kodeksning 18-bobida ko‘rsatilgan va buyruq tartibida hal etiladigan ishlar;

4) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi va hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ishlar;

4¹) mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishlar;

(26-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-1089-sonli Qonuniga asosan 4¹-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son)

5) chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlar;

6) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma‘muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlar.

(26-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O‘RQ-496-sonli Qonuniga asosan 6-band bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son)

Sudlarga qonun bilan ularning vakolatiga kiritilgan boshqa ishlar ham taalluqlidir.

27-modda. O‘zaro bog‘liq bir nechta talabning sudga taalluqliligi

O‘zaro bog‘liq bo‘lib, ba‘zilari fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga, ba‘zilari esa iqtisodiy sudga taalluqli bo‘lgan bir nechta talab birlashtirilganda, barcha talablar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga ko‘rilishi kerak.

O‘zaro bog‘liq bo‘lgan, ba‘zilari fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga, ba‘zilari esa ma‘muriy sudga taalluqli bo‘lgan bir nechta talabni birlashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

(27-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O‘RQ-833-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son)

28-modda. Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudning sudloviga tegishli ishlar

Ushbu Kodeksning 26-moddasida ko‘rsatilgan ishlar fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarida ko‘riladi, bundan qonunda shunday ishlarni ko‘rish boshqa sudlar vakolatiga berilgan hollar mustasno.

29-modda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining sudloviga tegishli ishlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs ariza beruvchi bo‘lgan farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishlarni, shuningdek qonun bilan o‘z vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni ko‘radi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari alohida holatlardan kelib chiqib, har qanday ishni fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudidan olishga va uni birinchi instansiya sudi sifatida o‘z ish yurituviga qabul qilishga yoki ishni bir suddan boshqa fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga o‘tkazishga haqli.

(29-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O‘RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

30-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudloviga tegishli ishlar

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunda o‘z vakolatiga kiritilgan ishlarni ko‘rib chiqadi, shuningdek alohida holatlarni hisobga olib, har qanday ishni O‘zbekiston Respublikasining istalgan sudidan olishga va uni birinchi instansiya sudi sifatida o‘zining ish yuritishiga qabul qilishga yoki ishni bir suddan boshqa tegishli sudga o‘tkazishga haqli.

31-modda. Sudning o‘z ish yuritishiga qabul qilib olgan ishni boshqa sudga o‘tkazishi

Sud sudlovga tegishlilik qoidalariga rioya qilgan holda o‘zining ish yuritishiga qabul qilib olgan ishni, garchi keyinchalik bu ish boshqa sudning sudloviga tegishli bo‘lib qolsa ham, mazmunan hal qilishi kerak.

Sud quyidagi hollarda ishni ko‘rish uchun boshqa sudga o‘tkazadi:

1) mazkur ish boshqa sudga, xususan dalillarning ko‘pchilik qismi joylashgan yerdagi sudga o‘z vaqtida va har tomonlama ko‘rib chiqiladi deb hisoblasa;

2) bir yoki bir nechta sudya rad qilinganidan so‘ng bu sudga ularni almashtirish imkoni bo‘lmasa;

3) ish mazkur sudga ko‘rilayotganda, u sudlovga tegishlilik qoidalari buzilgan holda ish yuritishga qabul qilinganligi ma‘lum bo‘lib qolsa.

31¹-modda. Ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko‘ra fuqarolik ishlari bo‘yicha suddan boshqa sudga o‘tkazish

Talab fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga taalluqlilik qoidalari buzilgan holda taqdim etilgan taqdirda, da‘vo arizasi (ariza) taalluqliligiga ko‘ra iqtisodiy sudga yoki ma‘muriy sudga ko‘rib chiqish uchun o‘tkaziladi.

Agar ishni ko‘rib chiqish jarayonida da‘vo arizasi (ariza) sudga taalluqlilik qoidalari buzilgan holda ish yuritishga qabul qilinganligi aniqlansa, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko‘ra iqtisodiy sudga yoki ma‘muriy sudga ko‘rib chiqish uchun o‘tkazish va fuqarolik sud ishini yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Da‘vo arizasini (arizani), ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko‘ra boshqa sudga o‘tkazish to‘g‘risidagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha suddan taalluqliligiga ko‘ra boshqa sudga o‘tkazilgan da‘vo arizasi (ariza), ish materiallari o‘ziga o‘tkazilgan sud tomonidan qabul qilib olinishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasida sudlar o‘rtasida sudga taalluqlilik to‘g‘risidagi nizolarga yo‘l qo‘yilmaydi.

(31¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O‘RQ-833-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son)

32-modda. Ishni bir suddan boshqa sudga o‘tkazish tartibi

Ishni bir suddan boshqa sudga o‘tkazish sudning ajrimiga asosan, bu ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) muddati o‘tganidan keyin, shikoyat (protest) berilgan taqdirda esa shikoyatni (protestni) qanoatlantirmay qoldirish haqida ajrim chiqarilganidan keyin amalga oshiriladi.

Bir suddan boshqa sudga yuborilgan ish u yuborilgan sud tomonidan ko'rish uchun qabul qilinishi kerak.

Sudlovga tegishlilik yuzasidan nizolashishga yo'l qo'yilmaydi.

33-modda. Sudlovga tegishlilikning umumiy qoidalari

Arizalar javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg'ul bo'lgan joydagi sudga beriladi.

Tashkilotlarga nisbatan arizalar ular davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga beriladi.

34-modda. Da'vogarning tanlovi bo'yicha sudlovga tegishlilik

Yashash joyi noma'lum bo'lgan javobgarga nisbatan da'volar uning mol-mulki turgan joydagi yoki uning ma'lum bo'lgan so'nggi yashagan joyidagi sudga taqdim etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida yashash joyiga ega bo'lmagan javobgarga nisbatan da'volar O'zbekiston Respublikasida uning mol-mulki turgan joydagi yoki ma'lum bo'lgan so'nggi yashash joyidagi sudga taqdim etilishi mumkin.

Aliment undirish to'g'risidagi, otalikni belgilash haqidagi va mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik yoxud boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar da'vogar tomonidan o'zi yashab turgan joydagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

Kemalar to'qnashuvi natijasida yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi, shuningdek suvda yordam berganlik va qutqarganlik uchun haq undirish to'g'risidagi da'volar ham javobgarining kemasi turgan yoki kema ro'yxatga olingan port joylashgan yerdagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

Ijro etish joyi ko'rsatilgan shartnomalardan kelib chiqadigan da'volar shartnomani ijro etish joyidagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

Fuqaroning yoki yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar zarar yetkazilgan joydagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

Yuridik shaxsning filiali faoliyatidan kelib chiqadigan da'volar filial joylashgan yerdagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

Turli joylarda yashovchi yoki turuvchi bir nechta javobgarga nisbatan yoki yuridik shaxs bo'lib, turli manzilda joylashgan javobgarlarga nisbatan da'vo javobgarlardan biri yashaydigan yoxud davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga da'vogarning tanlovi bo'yicha taqdim etiladi.

Fuqaroning mehnat, pensiya va uy-joyga doir huquqlarni tiklash, mol-mulkni yoki uning qiymatini qaytarib berish, g'ayriqonuniy hukm qilish, g'ayriqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida g'ayriqonuniy qamoqqa olish yoxud hibsga olish tarzida g'ayriqonuniy ma'muriy jazo qo'llash natijasida yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar da'vogarning yashash joyidagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

Agar da'vogarning voyaga yetmagan bolalari borligi, shuningdek nogironligi yoki og'ir kasalligi tufayli u javobgar yashab turgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga borishga qiynalsa, nikohni bekor qilish to'g'risidagi da'volar da'vogarning yashaydigan joyidagi sudga taqdim etilishi mumkin.

Bedarak yo'qolgan deb yoxud ruhiy holati buzilganligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni bekor qilish to'g'risidagi da'volar da'vogarning xohishiga ko'ra o'z yashash joyidagi sudga ko'rilishi mumkin.

35-modda. Sudlovga tegishlilikning alohida hollari

Imoratga bo'lgan huquq to'g'risidagi, mol-mulkni xatlashdan chiqarish haqidagi, yer maydonidan foydalanish tartibini belgilash to'g'risidagi da'volar imorat, mol-mulk yoki yer maydoni joylashgan yerdagi sudning sudloviga taalluqlidir.

Meros qoldiruvchining kreditorlari vorislar tomonidan meros qabul qilinguniga qadar taqdim etgan da'volar meros mol-mulk yoki uning asosiy qismi joylashgan yerdagi sudning sudloviga tegishlidir.

Yo'lovchilarni, yuklarni yoki bagajni tashish shartnomalaridan yuk tashuvchilarga nisbatan kelib chiqadigan da'volar belgilangan tartibda talabnoma taqdim etilgan transport tashkilotining organi davlat ro'yxatidan o'tgan yerda taqdim etiladi.

36-modda. Kelishilgan sudlovga tegishlilik

Taraflar o'zaro kelishib, muayyan ish uchun hududiy sudlovga tegishlilikni o'zgartirishi mumkin.

Ushbu Kodeksning 35-moddasida belgilangan sudlovga tegishlilik taraflar kelishuvi bo'yicha o'zgartirilishi mumkin emas.

37-modda. Qarshi da'voning sudlovga tegishliliigi

Qarshi da'vo sudlovga tegishliliigidan qat'i nazar, dastlabki da'vo ko'rilayotgan joydagi sudda taqdim etiladi.

38-modda. Jinoyat tufayli yetkazilgan zararlar to'g'risidagi fuqarolik ishining sudlovga tegishliliigi

Jinoyat ishidan kelib chiqadigan fuqarolik da'vosi, agar jinoyat ishi ko'rilganda ushbu da'vo arz qilinmagan yoki hal etilmagan bo'lsa, fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida ko'rib chiqish uchun fuqarolik ishlarining sudlovga tegishliliigiga doir umumiy qoidalar bo'yicha taqdim etiladi.

6-bob. Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari

39-modda. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar

Taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, ariza beruvchilar va sudda ko'rilayotgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha boshqa manfaatdor shaxslar, prokuror, ishda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb tan olinadi.

40-modda. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, sud muhokamasi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish), sud hujjatlarining majburiy ijrosini talab qilish, davlat ijrochisi tomonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadir.

(40-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual huquqlardan ham foydalanadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan insofli ravishda foydalanishi va o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart.

41-modda. Fuqarolik protsessual huquq layoqati

Barcha fuqarolar va tashkilotlarning fuqarolik protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi.

42-modda. Fuqarolik protsessual muomala layoqati

Sudda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish layoqati voyaga yetgan fuqarolar va tashkilotlarga tegishlidir.

Voyaga yetmagan, ya'ni yoshi o'n to'rttdan o'n sakkizgacha bo'lgan fuqarolarning, shuningdek muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiylar tomonidan himoya qilinadi. Ammo bu hol voyaga yetmaganlarni va muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarni bunday ishlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Ota-onalardan aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha, shuningdek mehnat bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan va olingan ish haqini yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga yetmaganlar sudda o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini shaxsan himoya qilish huquqiga ega. Bunday ishlarda voyaga yetmaganlarga yordam berish uchun ularning ota-onalarini, ularni farzandlikka olganlarni yoki homiylarni jalb qilish to'g'risidagi masala sud tomonidan hal qilinadi.

(42-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-martdagi O'RQ-608-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/608/0278-son)

O'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda muomalaga to'la layoqatli deb e'lon qilingan (emansipatsiya) taqdirda, sudda o'z huquqlari va majburiyatlarini shaxsan amalga oshirishi mumkin.

(42-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O'n to'rt yoshga to'lmagan kichik yoshdagi bolalarning, shuningdek ruhiy holati buzilganligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari — ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki vasiylar himoya qiladi.

43-modda. Taraflar

Da'vogar (ariza beruvchi) va javobgar fuqarolik sud ishlarini yuritishning taraflaridir.

O'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoinki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atilgan shaxs da'vogardir.

O'ziga nisbatan talab taqdim etilgan shaxs javobgardir.

Alohida tartibda yuritiladigan ishlar va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa ishlar bo'yicha ariza bergan shaxs arizachidir.

44-modda. Taraflarning protsessual huquq va majburiyatlari

Taraflar protsessual huquqlardan teng foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Da'vogar bildirilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar taqdim etishga, da'vo talablarining miqdorini oshirishga yoxud kamaytirishga, ulardan to'liq yoki qisman voz kechishga haqli.

Javobgar da'vogarning talabini to'liq yoki qisman tan olishga, qarshi da'vo taqdim etishga haqli.

Da'vo ishini yuritishda taraflar sud protsessining har qanday bosqichida ishni kelishuv bitimi tuzish yoki birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar mediativ kelishuv tuzish orqali tugallashga haqli.

(44-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

45-modda. Protsessda birgalikda ishtirok etish

Da'vo bir nechta da'vogar tomonidan birgalikda yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilishi (protsessda birgalikda ishtirok etish) mumkin. Protsessda birgalikda ishtirok etishga alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha ham yo'l qo'yiladi.

Protsessda birgalikda ishtirok etishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi, agar:

nizo predmeti bir nechta da'vogarning yoki javobgarning umumiy huquqlari yoki majburiyatlari bo'lsa;

bir nechta da'vogarning yoki javobgarning huquq va majburiyatlari bitta asosga ega bo'lsa;

nizo predmeti bir turdagi huquq va majburiyatlardan iborat bo'lsa.

Da'vogarlar va javobgarlardan har biri boshqa tarafga nisbatan protsessda mustaqil ravishda ishtirok etadi. Uchinchi shaxslar ham protsessda birgalikda ishtirok etishlari mumkin.

Protsessda birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishi mumkin.

Sud nizolashilayotgan huquqiy munosabatning xususiyatini inobatga olgan holda ishga jalb etilmagan sherik javobgarni ishda ishtirok etish uchun o'z tashabbusiga yoki taraflarning iltimosnomasiga ko'ra jalb qilishga haqli.

Boshqa sherik javobgar ishda ishtirok etish uchun jalb qilinganda ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

46-modda. Ishga daxldor bo'lmagan javobgarni almashtirish

Sud da'vo bo'yicha javob berishi lozim bo'lmagan shaxsga nisbatan da'vo taqdim etilganligini aniqlasa, hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogarning roziligi bilan ishga daxldor bo'lmagan javobgarni ishga daxldor javobgar bilan almashtirishga yo'l qo'yishi mumkin.

Agar da'vogar javobgarning boshqa shaxs bilan almashtirilishiga rozi bo'lmasa, sud bu shaxsni sherik javobgar sifatida ishga jalb etishi mumkin.

Ishga daxldor bo'lmagan javobgarni almashtirish haqida sud ajrim chiqaradi.

Ishga daxldor bo'lmagan javobgar almashtirilgandan so'ng ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

47-modda. Protsessual huquqiy vorislik

Nizoli yoki sudning hal qiluv qarori bilan aniqlangan huquqiy munosabatda taraflarning biri, uchinchi shaxs yoki ularning qonuniy vakili chiqib ketgan taqdirda (fuqaroning o'limi, yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi, boshqa shaxs foydasiga talabdan voz kechish, qarzning boshqa shaxsga o'tkazilishi va h.k.) sud bu shaxslarni ularning huquqiy vorislari bilan almashtirishga yo'l qo'yadi.

Huquqiy vorislik fuqarolik sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Huquqiy vorisning sud protsessiga kirishganligi haqida ajrim chiqariladi.

Taraf huquqiy voris bilan almashtirilgandan so'ng sud protsessi almashtirish amalga oshirilgan bosqichdan davom ettiriladi.

Huquqiy voris sud protsessiga kirishguniga qadar amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorisga o'rnini bo'shatib bergan shaxsga qay darajada majburiy bo'lgan bo'lsa, huquqiy vorisga ham shu darajada majburiydir. Huquqiy voris ishga doir barcha materiallar bilan tanishishga haqli.

48-modda. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar ishga kirishishi mumkin. Ular da'vogarning barcha huquqlaridan foydalanadi va uning barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar ishga sud muhokamasi boshlanganidan so'ng kirishgan bo'lsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

49-modda. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, agar ish bo'yicha qabul qilinadigan hal qiluv qarori ularning taraflardan biriga nisbatan bo'lgan huquqlariga yoki majburiyatlariga ta'sir etadigan bo'lsa, sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogar yoki javobgar tarafida ishga kirishishi mumkin. Ular taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha yoxud sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar taraflarning protsessual huquqlaridan foydalanadi va ularning protsessual majburiyatlarini o'z

zimmasiga oladi, bundan arz qilingan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, ulardan voz kechish huquqi mustasno.

Agar nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'z harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida da'vogarning huquqlari buzilganligi to'g'risida arz qilingan talablarni tan olgan taqdirda, sud majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklatish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilishga haqli. Xuddi shunday hollarda, da'vogar va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yiladi.

(49-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlangandan so'ng kirishgan bo'lsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

50-modda. Ishda prokurorning ishtiroki

Prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid huquqiy munosabatlar, davlat mulki, davlatga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash va davlat budjetidan undiruvlar bilan bog'liq ishlarda yoki prokurorning da'vo arizasi (arizasi) asosida qo'zg'atilgan ishlarda ishtirok etishi mumkin. Prokuror boshqa shaxslarning arizasi bilan qo'zg'atilgan ishning muhokamasida o'z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emas.

Prokuror davlat manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

(50-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi O'RQ-968-sonli Qonuniga asosan birinchi va ikkinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

Agar fuqaro sog'lig'ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlariga da'vo arizasini (arizani) — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar yoki ularning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga esa — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki ularning o'rinbosarlari taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolik ishlari bo'yicha sudlariga da'vo arizasini (arizani) taqdim etishga haqli.

(50-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

51-modda. Prokurorning protsessual huquq va majburiyatlari

Ariza bergan prokuror da'vogarning barcha protsessual huquqlaridan foydalanadi va barcha protsessual majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqi va sud xarajatlarini to'lash majburiyati mustasno.

(51-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

Prokuror bergan arizadan butunlay yoki qisman voz kechish, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun o'zi arz qilgan talablar bo'yicha sudga tushuntirishlar berish, ish mazmuni yuzasidan, shuningdek ishning muhokamasi vaqtida kelib chiqqan ayrim masalalar bo'yicha o'z fikrini bayon etish, sud hujjati ustidan protest keltirish huquqiga ega.

Agar da'vogar rozi bo'lmasa, prokuror o'zi arz qilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar bildirishga, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirishga yoxud kamaytirishga haqli emas.

Prokuror tomonidan da'vogarning huquqlarini himoya qilish uchun taqdim etilgan da'vodan da'vogarning voz kechishi, agar bu uchinchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qilmasa, da'vo arizasini (arizani) ko'rmasdan qoldirishga olib keladi.

(51-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

Prokurorning boshqa shaxs manfaatlarini himoya qilish uchun taqdim etgan o'z da'vosidan (arizasidan) voz kechishi, ushbu shaxsni ishni mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi.

52-modda. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessda ishtirok etishi

Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat etish huquqiga ega.

Davlat boshqaruvi organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish, fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish yuzasidan xulosalar berish uchun sud tomonidan sud protsessida ishtirok etishga jalb qilinishi yoki o'z tashabbusi bilan protsessga kirishishi mumkin.

53-modda. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessual huquq va majburiyatlari

Ushbu Kodeksning 52-moddasida ko'rsatilgan sud protsessi ishtirokchilari mazkur Kodeksning 40-moddasida nazarda tutilgan protsessual huquqlardan foydalanadi, shuningdek boshqa shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun arz qilingan talablarni to'liq yoki qisman qo'llab-quvvatlash, ulardan voz kechish, o'zlari arz qilgan talablar bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega. Mazkur organlar, tashkilotlar va fuqarolarning boshqa shaxsning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga bergan arizasidan voz kechishi ushbu shaxsni ishni mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Davlat organi, tashkilot va boshqa shaxs tomonidan da'vogarning huquqlarini himoya qilish uchun taqdim etilgan da'vo arizasidan (arizadan) da'vogarning (arizachining) voz kechishi, agar bu uchinchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qilmasa, da'vo arizasini (arizani) ko'rmasdan qoldirishga olib keladi.

(53-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

54-modda. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar

Guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni saqlovchilar, ijro ishi yuritish xolislari va saqlovchilari odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslardir.

(54-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

55-modda. Sud majlisi kotibi

Sud majlisida sud majlisi kotibi vazifasini sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) bajaradi.

56-modda. Guvoh

Ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi.

Quyidagilar guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas:

vakil, himoyachi, advokat yoki mediator vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida — fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy ish bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi bo'yicha himoyachilar, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha advokatlar, mediatorlar;

(56-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

jismoniy nuqsonlari yoki ruhiy holatining buzilganligi sababli faktlarni to'g'ri idrok qilishga yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatuvlar berishga layoqatsiz shaxslar.

(56-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O'RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)

57-modda. Guvohning majburiyatlari va javobgarligi

Guvoh sifatida chaqirilgan shaxs sudga kelishi va to'g'ri ko'rsatuvlar berishi shart.

Agar guvoh sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sud chaqiruvi bo'yicha kelmasa, shuningdek ko'rsatuvlar berishdan bo'yin tovlasa, u ushbu Kodeksning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortilishi mumkin.

Jarima solinishi guvohni sudga kelish va ko'rsatuvlar berish majburiyatidan ozod etmaydi.

Bila turib yolg'on ko'rsatuvlar berganlik uchun guvoh O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq javobgar bo'ladi.

58-modda. Ekspert

Xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan jismoniy shaxs ekspert sifatida tayinlanishi mumkin.

Ekspert sifatida davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotining eksperti, boshqa korxonada, muassasa, tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

(58-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-avgustdagi O'RQ-786-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son)

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar ekspert sifatida jalb etilishi mumkin emas.

59-modda. Ekspertning huquqlari

Ekspert: ekspertiza predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki nusxa ko'chirish; joyida ko'zdan kechirishda ishtirok etish va ekspertizani o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish; sud muhokamasida ekspertiza predmetiga taalluqli dalillarni tekshirishda ishtirok etish hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va guvohlarga sudning ruxsati bilan savollar berish; ashyoviy, yozma, raqamli dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish; o'z xulosasida nafaqat o'zining oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha, balki ekspertiza predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha ham fikrlarini bayon etish; uning xulosasi yoki ko'rsatuvlari ishda ishtirok etuvchi shaxslar va guvohlar tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligi xususida sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar berish; agar u sud muhokamasi yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa taqdim etish va ko'rsatuvlar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish; agar ishni yuritayotgan sudning qarorlari, sudyaning harakatlari (harakatsizligi) ekspertning huquq va erkinliklarini buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish; ekspertiza o'tkazilishi vaqtida qilingan xarajatlarni undirish huquqiga ega.

(59-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

Agar ekspert qo'yilgan savollarni o'zining maxsus bilimlari asosida hal qilib bo'lmashligiga yoki o'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materiallarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to'ldirib bo'lmashligiga yoxud fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati qo'yilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil

qilsa, u xulosa berishning iloji yoʻqligi toʻgʻrisida asoslantirilgan hujjat tuzadi hamda uni ekspertizani tayinlagan sudga yuboradi.

60-modda. Ekspertning majburiyatlari va javobgarligi

Ekspert: ushbu Kodeksning 22-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud boʻlgan taqdirda oʻzini oʻzi rad etishi haqida darhol arz qilishi; oʻziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va toʻliq tekshirishdan oʻtkazishi, oʻz oldiga qoʻyilgan savollar yuzasidan asosli va xolisona yozma xulosa berishi; sud majlisida shaxsan ishtirok etish uchun sudning chaqiruviga binoan kelishi; oʻzi oʻtkazgan ekspertiza xususida koʻrsatuvlar berishi va oʻzi bergan xulosani tushuntirish uchun qoʻshimcha savollarga javob berishi; ekspertizani oʻtkazishi munosabati bilan oʻziga maʼlum boʻlib qolgan maʼlumotlarni oshkor qilmasligi; taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallarining saqlanishini taʼminlashi; sud muhokamasi vaqtida tartibga rioya qilishi shart.

Ekspert xulosa berishdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun, shuningdek, agar sud uzrsiz deb topgan sabablarga koʻra sudning chaqiruvi boʻyicha kelmasa, ushbu Kodeksning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortiladi.

Jarima solinishi ekspertni sudga kelish va xulosa berish majburiyatidan ozod etmaydi.

Bila turib yolgʻon xulosa berganlik, yopiq sud majlisi muhokamasi maʼlumotlarini hamda tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilganlik uchun ekspert Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238, 239-moddalariga muvofiq javobgar boʻladi.

(60-moddaning toʻrtinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2025-yil 26-sentabrdagi OʻRQ-1084-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son)

61-modda. Mutaxassis

Dalillarni toʻplash, tekshirish va baholashda maslahatlar (tushuntirishlar) berish yoʻli bilan koʻmaklashish hamda ilmiy-texnika vositalarini qoʻllashda yordam berish maqsadida fan, texnika, sanʼat yoki hunar sohasida maxsus bilim va koʻnikmaga ega boʻlgan, ishning yakunidan manfaatdor boʻlmagan voyaga yetgan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun sud tomonidan mutaxassis sifatida jalb etilishi mumkin.

Mutaxassisni jalb qilish toʻgʻrisida ishni sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrimda, sud majlisi davomida esa sud majlisining bayonnomasida koʻrsatiladi.

Sudning mutaxassis chaqirish toʻgʻrisidagi talabi mutaxassis ishlab turgan tashkilot rahbari uchun majburiydir.

62-modda. Mutaxassisning huquq va majburiyatlari

Mutaxassis sifatida chaqirilgan shaxs quyidagi huquqlarga ega: oʻzining nima maqsadda sudga chaqirilayotganligini bilish; agar maxsus bilim va koʻnikmalarga ega boʻlmasa, ish yuritishda ishtirok etishni rad qilish; protsessual harakat ishtirokchilariga sudning ruxsati bilan savollar berish; dalillarni toʻplash, tekshirish va baholashga koʻmaklashayotganida, ilmiy-texnika vositalari qoʻllanishi, ekspertiza tayinlanishi uchun materiallar tayyorlayotganida oʻzi qilgan harakatlar bilan bogʻliq holatlarga protsessual harakat ishtirokchilarining eʼtiborini qaratish; oʻzi ishtirok etgan protsessual harakat bayonnomasi bilan, shuningdek sud majlisi bayonnomasining tegishli qismi bilan tanishish hamda oʻz ishtirokida amalga oshirilgan harakatlarning kechishi va natijalari qayd qilinishining toʻliqliligi va toʻgʻriligi xususida bayonnomaga kiritilishi lozim boʻlgan arzlari va fikrlarni bildirish; ish yuritishda protsessual harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etish bilan bogʻliq holda qilgan xarajatlarining oʻrni qoplanishi.

Mutaxassis etib tayinlangan shaxs: sudning chaqiruviga binoan kelishi; protsessual harakatlarni amalga oshirishda va sud muhokamasida maxsus bilim, koʻnikmalar va ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda ishtirok etishi; oʻzi bajarayotgan harakatlar yuzasidan tushuntirishlar berishi; yopiq sud majlisi muhokamasi maʼlumotlarini hamda tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilmasligi shart. Mutaxassisning yuzaga kelgan barcha masalalar boʻyicha maslahatlari sudga yozma ravishda taqdim etilishi kerak, sud muhokamasi davomida mutaxassis tomonidan berilgan tushuntirishlar esa sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi.

(62-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-sentabrdagi O'RQ-1084-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son)

Agar mutaxassis sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sud chaqiruvi bo'yicha kelmasa, shuningdek maslahatlar (tushuntirishlar) berishni asossiz ravishda rad etsa, ushbu Kodeksning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortilishi mumkin.

Jarima solinishi mutaxassisni sudga kelish va maslahatlar (tushuntirishlar) berish majburiyatidan ozod etmaydi.

63-modda. Tarjimon

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan tayinlangan tarjima qilish uchun zarur bo'lgan tillarni biladigan shaxs tarjimondir. Sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tarjimon vazifalarini o'z zimmasiga olishga haqli emas.

64-modda. Tarjimonning huquq va majburiyatlari

Tarjimon quyidagi huquqlarga ega: tarjimoni aniqlashtirish maqsadida sud majlisi ishtirokchilariga savollar berish; agar tarjima qilish uchun tegishli bilimga ega bo'lmasa, sud muhokamasida ishtirok etishni rad etish; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish; sud majlisi bayonnomasiga kiritilgan tarjimaning to'g'riligi yuzasidan e'tirozlar taqdim etish.

Tarjimon tarjimoni to'liq va to'g'ri amalga oshirishi, sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Tarjima qilishdan asossiz ravishda bosh tortganlik, shuningdek sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sudning chaqiruvi bo'yicha kelmaganlik uchun tarjimon ushbu Kodeksning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortiladi.

Jarima solinishi tarjimonni sudga kelish va tarjima qilish majburiyatidan ozod etmaydi.

Tarjimon bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik, yopiq sud majlisi muhokamasi ma'lumotlarini hamda tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238, 239-moddalariga muvofiq jinoiy javobgar bo'ladi, bu haqda u sud tomonidan tilxat olib ogohlantiriladi.

(64-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-sentabrdagi O'RQ-1084-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son)

7-bob. Sudda vakillik

65-modda. Vakillar orqali ish yuritish

Fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki o'z vakillari orqali yuritishi mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi.

Tashkilotlar ishlarni o'z rahbarlari yoki vakillari orqali yuritadi.

66-modda. Qonuniy vakillik

Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) himoya qiladi.

Belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaro ishtirok etishi lozim bo'lgan ish bo'yicha uning vakili sifatida mazkur fuqaroning mol-mulkini qo'riqlash va boshqarish uchun tayinlangan shaxs qatnashadi.

Vafot etgan yoki belgilangan tartibda vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning merosxo'ri ishtirok etishi kerak bo'lgan ish bo'yicha, agar merosni hali hech kim qabul qilib olmagan bo'lsa, vasiy, homiy, yoxud meros mol-mulkni saqlash va boshqarish uchun tayinlangan saqlovchi shaxs merosxo'rning vakili sifatida qatnashadi.

Qonuniy vakil sudda ish olib borishni o'zi vakil sifatida tanlagan boshqa shaxsga topshirish huquqiga ega.

O'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmagan shaxsning, muomalaga layoqatsiz yoki bedarak yo'qolgan deb topilgan shaxsning qonuniy vakili vakillik qilinayotgan shaxsning huquqlari

va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga taalluqli ishlar ko'rib chiqilayotganda uning manfaatlarini ko'zlab barcha protsessual harakatlarni amalga oshiradi.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxsning, muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxsning qonuniy vakili ishlar ko'rib chiqilayotganda shu shaxsning manfaatlarini ko'zlab barcha protsessual harakatlarni cheklangan huquqlar doirasida amalga oshiradi.

67-modda. Shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik

Ishonch bildiruvchi o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha sudda ish yuritishni shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan vakilga topshiradi.

Quyidagilar shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil bo'lishi mumkin:

- 1) advokatlar;
- 2) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan yoki yon shajara bo'yicha qarindoshlar, shuningdek er (xotin) yoxud uning qarindoshlari;
- 3) yuridik shaxslarning xodimlari — shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha;
- 4) notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari — shu tashkilotlar a'zolarining ishlari bo'yicha;
- 5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari;
- 6) birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa birgalikdagi ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha;
- 7) ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'yilgan shaxslar.

Sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkin.

Sud da'vogarning yoki javobgarning iltimosiga ko'ra, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta'minlash choralari ko'rishi shart.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokat jalb etiladigan paytga qadar sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e'tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to'rt soat vaqt berilishi kerak.

(67-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi O'RQ-915-sonli [Qonuniga](#) asosan to'rtinchi va beshinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son)

68-modda. Vakilning vakolatlarini rasmiylashtirish

Vakilning vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Fuqarolar tomonidan beriladigan ishonchnomalar notariuslar yoki notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat boshqaruvi organlarining, mansabdor shaxslarning vakillari tegishli organ rahbarining yoki mansabdor shaxsning imzosi bilan beriladigan ishonchnoma bo'yicha harakat qiladi.

Tashkilot nomidan beriladigan ishonchnoma tashkilot rahbari tomonidan imzolanib, imzo tashkilotning muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlanadi.

Tashkilotlarning rahbarlari sudga o'z xizmat lavozimlarini yoki vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatlarni taqdim etadi.

Advokatning vakolatlari qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

(68-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

69-modda. Vakilning vakolatlari

Sudda ish yuritish vakolatlari vakilga barcha protsessual harakatlarni vakolat beruvchi nomidan amalga oshirish huquqini beradi.

Shartnoma bo'yicha vakillik qiluvchining arz qilingan talablardan to'liq yoki qisman voz kechish, ularning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, da'vogarning talablarini tan olish, kelishuv bitimi, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuv yoki mediativ kelishuv tuzish, vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish), sud hujjati ustidan shikoyat qilish, arizalarni imzolash, ijro varaqasini undiruvga taqdim etish, undirilgan mol-mulkni yoki pullarni olish vakolati har bir alohida holda vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

(69-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

70-modda. Sudda vakillik qilishi mumkin bo'lmagan shaxslar

Quyidagilar sudda vakillik qilishi mumkin emas:

1) voyaga yetmagan shaxslar, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno;

(70-moddaning 1-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) vasiylik va homiylik belgilangan shaxslar;

3) sudyalarda, prokurorlar, surishtiruvchilar, tergovchilar, sud devoni xodimlari, bundan ular qonuniy vakil (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) sifatida, shuningdek tegishli sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlarining vakili sifatida qatnashgan hollar mustasno;

4) manfaatlari vakolat beruvchining manfaatlariga zid bo'lgan shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yordam ko'rsatgan shaxslar;

4¹) shu nizo bilan bog'liq mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediator sifatida ishtirok etganlar, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan va mediatorning ishtiroki yuzasidan o'zaro rozilik bo'lgan hollar mustasno;

(70-moddaning 4¹-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

5) sudya, prokuror, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimon bilan qarindoshlik munosabatlarida bo'lgan shaxslar.

8-bob. Dalillar

71-modda. Isbotlash vositalari

Taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlarning mavjudligini yoki mavjud emasligini sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumot va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar fuqarolik ishi bo'yicha dalillardir. Bu ma'lumotlar quyidagi vositalar, ya'ni: taraflarning va uchinchi shaxslarning hamda ular qonuniy vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari) bilan aniqlanadi.

(71-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

Anonim xatlarda va kelib chiqishi noma'lum bo'lgan yoki qonunni buzgan holda olingan boshqa ma'lumotlar dalil bo'la olmaydi.

Taraflarning va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari ushbu Kodeksning 209-moddasida belgilangan tartibda videokonferensaloqa tizimidan foydalanish yo'li bilan olinishi mumkin.

72-modda. Isbotlash va dalillarni taqdim etish majburiyati

Har bir taraf o'zining talablari va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlashi shart.

Sud qanday holatlar ish uchun ahamiyatga ega ekanligini, ularni taraflardan qaysi biri isbotlashi kerakligini aniqlaydi, hatto taraflar bu holatlarni dalil qilib keltirmagan bo'lsa ham ularni muhokamaga qo'yadi.

Dalillar taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan taqdim etiladi. Sud ularga qo'shimcha dalillar taqdim qilishni taklif etishi mumkin. Agar qo'shimcha dalillar taqdim etish taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun qiyinchilik tug'dirsa, ularga sud dalillar to'plashda ularning iltimosnomasiga ko'ra ko'maklashadi.

73-modda. Dalillarning aloqadorligi

Sud faqat ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan dalillarni ko'rishga qabul qiladi. Sudning dalilni qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimi asoslantirilgan bo'lishi lozim.

74-modda. Dalillarning maqbulligi

Qonun bo'yicha muayyan isbotlash vositalari bilan tasdiqlanishi shart bo'lgan ishning holatlari boshqa hech qanday isbotlash vositalari bilan tasdiqlanishi mumkin emas.

75-modda. Isbotlashdan ozod qilish asoslari

Sud hammaga ma'lum deb topgan holatlar isbotlashga muhtoj emas.

Bir fuqarolik ishi bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori bilan aniqlangan faktlar xuddi shu shaxslar ishtirok etayotgan boshqa fuqarolik ishlari muhokamasida yangidan isbot qilinmaydi.

Iqtisodiy yoki ma'muriy sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori boshqa ishni ko'rayotgan sud uchun iqtisodiy yoki ma'muriy sudning hal qiluv qarori bilan aniqlangan va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga taalluqli bo'lgan holatlar to'g'risidagi masalalar bo'yicha majburiydir.

(75-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O'RQ-833-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son)

Jinoyat ishi bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud hukmi sud tomonidan hukm etilgan shaxs harakatlarining fuqarolik-huquqiy oqibatlari to'g'risidagi ishni ko'rib chiqayotgan sud uchun faqat shu harakatlar sodir etilganligi yoki sodir etilmaganligi va ular mazkur shaxs tomonidan sodir etilganligi yoki etilmaganligi masalalari yuzasidan majburiydir.

Notarial harakat amalga oshirilganda notarius tomonidan tasdiqlangan holatlar, agar notarial tartibda rasmiylashtirilgan hujjatning haqiqiyliги ushbu Kodeksning 235 va 236-moddalarida belgilangan tartibda rad etilmagan yoki notarial harakatni amalga oshirish tartibi jiddiy tarzda buzilganligi aniqlanmagan bo'lsa, isbotlashni talab etmaydi.

76-modda. Dalillarni ta'minlash

O'zlari uchun zarur bo'lgan dalillarni keyinchalik taqdim etish mumkin bo'lmay qoladi yoki qiyinlashadi, deyishiga asosi bo'lgan shaxslar ariza berishidan oldin ham yoki keyin ham suddan bu dalillarni ta'minlashni iltimos qilishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudgacha bo'lgan jarayonda notarial tartibda dalillarni ta'minlash choralari ko'rishga haqli.

(76-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-yanvardagi O'RQ-602-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020-y., 03/20/602/0052-son)

Chet davlatlar organlarida ish yuritish uchun zarur bo'lgan dalillarni ta'minlash qonunda belgilangan tartibda notariuslar tomonidan amalga oshiriladi.

77-modda. Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi ariza

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi ariza dalillarni ta'minlash bilan bog'liq protsessual harakatlar amalga oshirilishi kerak bo'lgan hududda faoliyat olib borayotgan sudga beriladi.

Arizada ta'minlanishi zarur bo'lgan dalillar, bu dalillar bilan tasdiqlanishi zarur bo'lgan holatlar, dalillarni ta'minlash to'g'risida arizachini iltimosnoma bilan murojaat qilishga undagan sabablar, shuningdek ta'minlanadigan dalillar zarur bo'lgan yoki ular keyinchalik asqotishi mumkin bo'lgan ish ko'rsatilishi kerak.

78-modda. Dalillarni ta'minlash tartibi

Dalillarni ta'minlash ushbu Kodeksda belgilangan dalillarni to'plash va tekshirish qoidalari bo'yicha sud tomonidan amalga oshiriladi. Arizachi va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar

dalillarni ta'minlash vaqti va joyi haqida xabardor qilinadi, biroq ularning kelmaganligi dalillarni ta'minlash haqidagi arizani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Kechiktirish, shuningdek keyinchalik arizachi bilan kimning o'rtasida nizo kelib chiqishini aniqlash mumkin bo'lmagan hollarda, dalillarni ta'minlash faqat arizachining o'zini xabardor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Dalillarni ta'minlash tartibida taraflarning, uchinchi shaxslarning tushuntirishlari eshitiladi, guvohlar so'roq qilinadi, ekspertiza tayinlanadi, ashyoviy, yozma va raqamli dalillar talab qilib olinadi yoki ko'zdan kechiriladi, joyga borib ko'zdan kechirish o'tkaziladi.

(78-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

Dalillarni ta'minlash tartibida to'plangan barcha materiallar ishni ko'rib chiqayotgan sudga yuboriladi yoki arizachiga beriladi.

79-modda. Dalillarni ta'minlash masalalariga doir ajrim ustidan shikoyat qilish

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

Dalillarni ta'minlashni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

80-modda. Dalillarga baho berish

Sud dalillarga ishning hamma holatlarini jamlab, ularni sud majlisida qonunga amal qilgan holda, har taraflama, to'liq va xolis ko'rib chiqishga asoslangan o'z ichki ishonchi bo'yicha baho beradi.

Har bir dalil aloqadorlik, maqbullik va ishonchlilik nuqtai nazaridan, dalillarning majmui esa yetarilish nuqtai nazaridan baholanishi lozim.

Agar tekshirish natijasida dalilning haqiqatga to'g'ri kelishi aniqlansa, u ishonchli deb topiladi.

Hech bir dalil sud uchun oldindan belgilab qo'yilgan kuchga ega emas.

Dalillarga baho berish natijalarini sud hal qiluv qarorida aks ettirishi shart bo'lib, unda ayrim dalillar sudning xulosalarini asoslash vositasi sifatida qabul qilinganligi, boshqa dalillar sud tomonidan rad etilganligi sabablari, shuningdek ayrim dalillarning boshqa dalillarga nisbatan afzalligi asoslari keltiriladi.

Hujjatlarga yoki boshqa yozma dalillarga baho berishda sud boshqa dalillarni inobatga olgan holda, bunday hujjat yoki yozma dalil shu turdagi dalillarni taqdim etishga vakolatli bo'lgan organ tomonidan berilganligiga, hujjatni imzolab tasdiqlash huquqiga ega shaxs tomonidan imzolanganligiga, mazkur turdagi dalilning boshqa barcha ajralmas rekvizitlar mavjudligiga ishonch hosil qilishi shart.

Hujjatning yoki boshqa yozma dalilning ko'chirma nusxasiga baho berishda sud nusxa ko'chirish vaqtida uning asliga nisbatan mazmuni o'zgarib qolmaganligini, nusxa ko'chirish qanday texnik usulda bajarilganligini, nusxa ko'chirish hujjatning ko'chirma nusxasi uning asli bilan bir xilligini kafolatlashini, hujjatning ko'chirma nusxasi qanday tarzda saqlanganligini tekshiradi.

Agar hujjatning asli yo'qolgan va sudga taqdim etilmagan bo'lsa, nizolashayotgan har bir taraf tomonidan taqdim etilgan ushbu hujjatning ko'chirma nusxalari esa o'zaro bir xil bo'lmagan hamda boshqa dalillar yordamida hujjatning asl mazmunini aniqlashning iloji bo'lmagan taqdirda, sud hujjatning yoki boshqa yozma dalilning faqat ko'chirma nusxasi bilan tasdiqlangan holatlarni isbotlangan deb hisoblashi mumkin emas.

81-modda. Taraflar va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari

Taraflar va uchinchi shaxslarning hamda ular qonuniy vakillarining o'zlariga ma'lum bo'lgan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi tushuntirishlari ish yuzasidan to'plangan boshqa dalillar qatori tekshirilishi va baholanishi lozim.

Taraflardan biri o'zining talablari yoki e'tirozlariga asos qilib olgan faktlarni boshqa taraf tomonidan tan olinishi birinchi tarafni bu faktlar isbotini davom ettirish zaruriyatidan ozod qiladi. Agar muayyan fakt xususida sudning shubhasi bo'lsa, bu fakt umumiy asoslarga ko'ra isbotlanishi lozim.

Faktni tan olish sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi va tan olgan taraf uni imzolaydi. Agar faktni tan olish yozma arizada bayon etilgan bo'lsa, mazkur ariza ishga qo'shib qo'yiladi.

82-modda. Guvohni chaqirish to'g'risidagi iltimosnoma

Guvohni chaqirish to'g'risida iltimosnoma taqdim etuvchi shaxs guvohning ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qanday holatlarni tasdiqlay olishi mumkinligini ko'rsatishi va sudga uning familiyasi, ismi, otasining ismini, yashash joyini yoki ish, o'qish joyini ma'lum qilishi shart.

83-modda. Guvohlarni ularning yashash joylarida so'roq qilish

Ishni ko'rayotgan sud joylashgan yerdan tashqarida doimiy yashaydigan va uzrli sabablarga ko'ra sud majlisiga kelish imkoniga ega bo'lmagan guvohlar sudning tashabbusi bilan, taraflarning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra yoxud guvohning o'z iltimosnomasi bo'yicha, ishni ko'rib chiqayotgan sudning topshirig'iga binoan o'zlari yashab turgan joydagi sud tomonidan yoki videokonferensaloqadan foydalangan holda so'roq qilinishi mumkin. Bu guvohlar ishni ko'rib chiqayotgan sud majlisiga kelgan taqdirda, ular sud tomonidan so'roq qilinadi.

84-modda. Yozma dalillar

Ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar, shartnomalar, ma'lumotnomalar, ishga oid yozishmalar, raqamli, grafik yozuv shaklida bajarilgan hujjatlar va materiallar, shu jumladan faks, elektron yoki boshqa aloqa vositasida yoxud hujjatning haqiqiylikni aniqlash imkonini beradigan o'zga usulda olingan boshqa hujjatlar va materiallar yozma dalillardir.

Sudga taqdim etilayotgan, to'liq yoki qisman chet tilida tuzilgan yozma dalillarga ularning tegishli tarzda tasdiqlangan tarjimalari ilova qilinadi.

Chet davlatda olingan hujjat, agar u qonunchilikda belgilangan tartibda legalizatsiya qilingan bo'lsa, sudga yozma dalil deb tan olinadi.

(84-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RG-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Chet davlatda olingan hujjat O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan hollarda legalizatsiya qilinmasdan sudga yozma dalil deb tan olinadi.

85-modda. Yozma dalillarni taqdim etish va talab qilib olish

Yozma dalilni taqdim etuvchi shaxs ushbu dalil bilan ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qanday holatlarni aniqlash mumkin ekanligini ko'rsatishi, talab qilib olish haqida iltimosnoma taqdim etilganda esa bu qanday dalil ekanligini ko'rsatishi va yozma dalil muayyan shaxsda deb hisoblashi uchun qanday asosi borligini ko'rsatishi shart.

Sud tomonidan davlat organlaridan, tashkilotlardan yoki fuqarolardan talab qilinadigan yozma dalillar bevosita sudga yuboriladi.

Sud yozma dalilni talab qilib olish haqida iltimosnoma bergan shaxsga ushbu dalilni sudga taqdim etish uchun olish huquqiga doir so'rov ham berishi mumkin.

86-modda. Yozma dalillarni taqdim etish majburiyati

Ishda ishtirok etmayotgan fuqarolar va tashkilotlar sud talab qilayotgan yozma dalillarni taqdim etish imkoniga ega bo'lmasa, bu haqda sudni xabardor qilib, sababini ko'rsatishi shart.

Agar shaxs, sud undan talab qilayotgan yozma dalilni taqdim etish yoki sud tomonidan belgilangan muddatda taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u sudning so'rovini olgan kundan e'tiboran besh kunlik muddat ichida buning sabablarini ko'rsatgan holda sudni xabardor qilishi shart.

Sud xabardor qilinmagan taqdirda, shuningdek yozma dalilni taqdim etish uzrli sabablarsiz rad qilingan taqdirda, sud tashkilotlarning aybdor mansabdor shaxslariga, shuningdek fuqarolarga ushbu Kodeksning 146-moddasida belgilangan tartibda jarima soladi.

Jarima solinishi tegishli mansabdor shaxslarni va fuqarolarni sud talab qilayotgan yozma dalilni taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi.

87-modda. Yozma dalillarning aslini taqdim etish

Qoida tariqasida, yozma dalillarning asli yoki tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi taqdim etiladi. Agar hujjatning ko'chirma nusxasi taqdim etilgan bo'lsa, sud zarur hollarda, uning aslini taqdim etishni talab qilishga haqli. Agar ko'rib chiqilayotgan ishga hujjatning faqat bir qismi taalluqli bo'lsa, undan tasdiqlangan ko'chirma nusxa taqdim etilishi mumkin.

88-modda. Yozma dalillarni ular saqlanayotgan joyda ko'zdan kechirish va tekshirish

Yozma dalillarni sudga taqdim etish ularning ko'pligi yoki ulardan faqat bir qismi ish uchun ahamiyatli ekanligi oqibatida qiyinlashgan taqdirda, sud ularning tegishli ravishda tasdiqlangan ko'chirmasini talab qilishi yoki dalillarni ular saqlanayotgan joyda ko'zdan kechirishi va tekshirishi mumkin.

89-modda. Hujjatlarning aslini qaytarish

Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin ishdagi hujjatning asli uni taqdim etgan shaxsning iltimosnomasiga ko'ra qaytarilib, hujjatning sudya tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxasi ishda qoldirilishi mumkin.

Agar sud mumkin deb topsa, sud hujjati qonuniy kuchga kirguniga qadar yozma dalillar ularni taqdim etgan shaxslarga qaytarilishi mumkin. Mazkur shaxslar iltimosnoma bilan birga hujjat aslining tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxasini taqdim etadi yoki ishda qolayotgan ko'chirma nusxani sud tomonidan tasdiqlash to'g'risida iltimosnoma beradi.

89¹-modda. Elektron ma'lumotlar

Elektron ma'lumotlar elektron qurilmalardan va axborot tizimlaridan, shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan xolda yaratiladigan, ishlov beriladigan xamda saqlanadigan ma'lumotlardir.

Ishda ishtirok etuvchi taraflar, guvohlar hamda boshqa shaxslar elektron ma'lumotlarni ushbu ma'lumotlarning ko'chirma nusxasini elektron jismdan elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan boshqa elektron jismga olish orqali taqdim etishga haqli.

Sud taqdim etilgan elektron ma'lumotlarni mutaxassis ishtirokida qabul qilib oladi hamda elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan birlamchi elektron jismni ko'zdan kechiradi.

Ish uchun ahamiyatga ega bo'lmagan elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron jismlar egalariga darhol qaytarib beriladi.

89²-modda. Raqamli dalillar

Ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron ma'lumotlar, shu jumladan elektron tarzidagi fayllar, audio-, videoyozuvlar, Internet jahon axborot tarmog'ida saqlanayotgan ma'lumotlar, shuningdek boshqa elektron ma'lumotlar raqamli dalillardir.

Raqamli dalildan ko'chirma nusxa olishga, basharti uning yaxlitligi va aynan o'xshashligi saqlansa, yo'l qo'yiladi.

Raqamli dalildan ko'chirma nusxa olishga yo'l qo'yilishi o'zidan mazkur ko'chirma nusxa olingan raqamli dalilning asli mavjudligi bilan ta'minlanadi, bundan notarius tomonidan tasdiqlangan raqamli dalillar mustasno. Ishda ishtirok etuvchi taraflar, guvohlar va boshqa shaxslar raqamli dalillarning ko'chirma nusxalarini qog'ozda chop etilgan shaklda taqdim etish huquqiga ega. Bunda raqamli dalilning qog'ozdagi shakli yozma dalil deb hisoblanishi mumkin emas, bundan notarius tomonidan tasdiqlangan raqamli dalil mustasno.

Sud jarayonida tuzilgan protsessual bayonnomalarga ilova qilingan, elektron ma'lumotlar tarzida shakllantirilgan audio- va videoyozuvlar ham raqamli dalillar hisoblanadi.

Raqamli dalilning ko'chirma nusxasi ish materiallari bilan birga saqlanadi.

89³-modda. Raqamli dalillarni taqdim etish majburiyati

Fuqarolar, shuningdek korxonalarining, muassasalarning, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari o'z tasarrufida bo'lgan, sud harakatlarini amalga oshirishda

foydalanish uchun zarur bo'lgan elektron ma'lumotlarni sudning qonuniy talabiga ko'ra elektron jismlar bilan birga taqdim etishi shart.

Agar sud tomonidan raqamli dalillar talab qilinayotgan shaxs uni sud belgilagan muddatda taqdim etish imkoniga ega bo'lmasa, ushbu shaxs sabablarni ko'rsatgan holda bu haqda sudni xabardor qilishi shart.

Raqamli dalillarni o'z ixtiyori bilan taqdim etayotgan shaxs ushbu dalillar yordamida ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qanday holatlarni aniqlash mumkin ekanligini ma'lum qiladi.

Ishda ishtirok etayotgan shaxs boshqa shaxslar tasarrufida bo'lgan, ish uchun muhim bo'lgan raqamli dalillarni talab qilib olish haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bunda iltimosnoma berayotgan shaxs raqamli dalillar muayyan shaxsda qaysi asosga ko'ra turganligini, shuningdek ularning joylashgan yeri haqida ma'lum qiladi.

Sud raqamli dalillarni talab qilib olish haqida iltimosnoma berayotgan shaxsga raqamli dalilni sudga taqdim etish uchun olish huquqiga doir so'rov berishi mumkin.

Ishda ishtirok etmayotgan, sud tomonidan talab qilinayotgan raqamli dalillarni taqdim etish imkoniga ega bo'lmagan fuqarolar, shuningdek korxonalarining, muassasalarning, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari sabablarni ko'rsatgan xolda bu haqda sudni xabardor qilishi shart.

Sud tomonidan davlat organlaridan, tashkilotlardan yoki fuqarolardan talab qilinadigan raqamli dalillar bevosita sudga yuboriladi.

Sud xabardor qilinmagan taqdirda, shuningdek raqamli dalillarni uzrli sabablarsiz taqdim etish rad etilgan taqdirda, sud tashkilotlarning aybdor mansabdor shaxslariga, shuningdek fuqarolarga ushbu Kodeksning 146-moddasida belgilangan tartibda jarima soladi.

Jarima solinishi mansabdor shaxslarni va fuqarolarni sud tomonidan talab qilinayotgan raqamli dalillarni taqdim etish majburiyatidan ozod etmaydi.

89⁴-modda. Raqamli dalillarni ko'zdan kechirish va tekshirish shartlari

Sud mutaxassis ishtirokida raqamli dalillarni bevosita ko'zdan kechirishi va tekshirishi shart.

Raqamli dalillarni sudga taqdim etish mumkin bo'lmagan yoki ularni yetkazib berishda qiyinchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda sud mazkur dalillar saqlanadigan joyda ularning ko'zdan kechirilishini va tekshirilishini talab qilishi mumkin.

(89¹ — 89⁴-moddalar O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

90-modda. Ashyoviy dalillar

Ishni mazmunan hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan predmetlar ashvoviy dalillardir.

Ashvoviy dalilni taqdim etuvchi yoki uni talab qilib olish to'g'risida iltimos qilayotgan shaxs ushbu dalil orqali ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qanday holatlarni aniqlash mumkinligini ko'rsatishi shart.

91-modda. Ashvoviy dalillarni talab qilib olish va taqdim etish tartibi

Ishda ishtirok etuvchi yoki ishtirok etmayotgan shaxslardan dalil sifatida biror ashvoviy talab qilib olish haqida sudga iltimosnoma taqdim etuvchi shaxs ushbu ashvoviy ta'riflab berishi va bu ashvoviy mazkur shaxsda deb hisoblash uchun qanday asoslari borligini bayon etishi kerak.

Sud tomonidan fuqarolar va tashkilotlardan talab qilinayotgan ashvoviy dalillar bevosita sudga yuboriladi.

Sud ashvoviy dalilni talab qilib olish haqida iltimosnoma taqdim etgan shaxsga ushbu dalilni sudga taqdim etish uchun olish huquqiga doir so'rov berishi mumkin.

92-modda. Ashvoviy dalillarni taqdim etish majburiyati

Ishda ishtirok etmayotgan fuqarolar va tashkilotlar talab qilinayotgan ashvoviy taqdim etish yoki sud belgilagan muddatda taqdim etish imkoniga ega bo'lmasa, bu haqda sabablarini ko'rsatgan holda sudga xabar berishi shart.

Agar shaxs sud undan talab qilayotgan ashyoviy dalilni taqdim etish yoki sud tomonidan belgilangan muddatda taqdim etish imkoniga ega bo'lmasa, u sudning so'rovini olgan kundan e'tiboran besh kunlik muddat ichida bu haqda uzrli sabablarini ko'rsatgan holda sudga xabar berishi shart.

Sud xabardor qilinmagan taqdirda, shuningdek, agar sudning ashyoni taqdim etish to'g'risidagi talabi sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra bajarilmasa, aybdor fuqarolar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari ushbu Kodeksning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortilishi mumkin.

Jarima solish tegishli fuqarolar va mansabdor shaxslarni sud talab qilayotgan ashyoni taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi.

93-modda. Tez buziladigan ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish

Sud dalillarni sudga olib kelish imkoniyati bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan, shuningdek ashyoviy dalillar tez buziladigan hollarda, ularni ko'zdan kechirishini va tekshirishini ular joylashgan yerda amalga oshirishi mumkin.

Oziq-ovqatlar va tez buziladigan boshqa ashyolar ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda, sud tomonidan darhol ko'zdan kechiriladi. Bunday ashyolar ko'zdan kechirilganidan keyin kimdan olingan bo'lsa, o'sha shaxslarga qaytariladi yoki ulardan o'z o'rnida foydalanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslarga beriladi. Ashyolar boshqa shaxslarga berilgan taqdirda, ularning egasiga o'sha xildagi va sifatdagi buyumlar yoki ularning qaytarish paytidagi bahosi bo'yicha qiymati qaytarib berilishi kerak.

Zarur hollarda, dalillarni ko'zdan kechirish va tekshirishda ishtirok etish uchun odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar chaqirilishi mumkin.

94-modda. Ashyoviy dalillarni saqlash va qaytarib berish

Ashyoviy dalillar sudning ajrimiga binoan ishga qo'shib qo'yiladi va ishda saqlanadi yoki alohida ro'yxat qilinib, sudning ashyoviy dalillar saqlanadigan xonasiga topshiriladi.

Sudga keltirib bo'lmaydigan ashyolar turgan joyida saqlanadi. Ular batafsil tavsiflangan, muhrlangan, zarur hollarda esa foto- yoki videosuratga olingan bo'lishi kerak.

Sud, saqlovchi ashyoviy dalillarni o'zgarmas holatda saqlash choralari ko'radilar.

Ashyoviy dalillarni saqlash xarajatlari taraflar o'rtasida, ushbu Kodeksning 138-moddasida belgilangan qoidalarga muvofiq taqsimlanadi.

Ashyoviy dalillar kimdan olingan bo'lsa, sud hujjati qonuniy kuchga kirganidan keyin o'sha shaxslarga qaytarib beriladi yoki sud shu ashyoviy dalillarga kimning huquqi bor deb topgan bo'lsa, o'sha shaxslarga beriladi.

Ayrim hollarda sud ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirganidan va tekshirganidan keyin, basharti ashyoviy dalillarni taqdim etgan shaxslar ularni qaytarib berish haqida iltimosnoma taqdim etgan bo'lsa va bunday iltimosnomani qanoatlantirish ishni ko'rib chiqish hamda hal qiluv qarorini ijro etish uchun zarar keltirmasa, ular kimdan olingan bo'lsa, o'sha shaxslarga ish tamom bo'lguniga qadar qaytarib berilishi mumkin.

Qonun bo'yicha fuqarolarning egaligida turishi mumkin bo'lmagan narsalar tegishli tashkilotlarga topshiriladi.

95-modda. Ekspertiza

Ish muhokamasi chog'ida kelib chiqqan, fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarni talab qiladigan masalalarni tushuntirish uchun sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasiga yoki o'z tashabbusiga ko'ra ekspertiza tayinlashi mumkin.

Ekspertiza sudga o'tkaziladi yoki tekshirishning xususiyati taqozo etsa yoxud tekshiriladigan buyumni sudga keltirishning imkoni bo'lmasa yoki keltirish qiyin bo'lsa, sudan tashqarida amalga oshiriladi.

Ekspertiza tayinlash to'g'risidagi sud ajrimida qanday masalalar bo'yicha ekspertlarning xulosasi talab qilinayotganligi va ekspertiza o'tkazish kimga topshirilayotganligi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Ekspertlar tayinlanayotganda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrini inobatga oladi.

Taraf ekspertizada ishtirok etishdan bosh tortgan, ekspertlarga tekshirish uchun zarur bo'lgan materiallar hamda hujjatlarni taqdim etmaganda va boshqa hollarda, agar ish holatlariga ko'ra va mazkur tarafning ishtirokisiz ekspertiza o'tkazish imkoniyati bo'lmasa, sud qaysi taraf ekspertizadan bosh tortayotganligidan, shuningdek bu taraf uchun ekspertiza qanday ahamiyatga ega ekanligiga qarab, aniqlanishi uchun ekspertiza tayinlangan faktni aniqlangan yoki rad etilgan deb topishi mumkin.

Ishonch bildiruvchi shaxsning roziligi bilan advokat shartnoma asosida ekspertiza o'tkazilishiga doir advokat so'rovini davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga yuborishi mumkin.

(95-modda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-avgustdagi O'RQ-786-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son)

96-modda. Qo'shimcha va qayta ekspertizalar

Qo'shimcha ekspertiza ekspert (ekspertlar komissiyasi) xulosasidagi bo'shliqlar o'rnini to'ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa ekspert (ekspertlar komissiyasi) tomonidan o'tkaziladi.

Ekspert (ekspertlar komissiyasi) xulosasi asoslantirilmaganda yoki uning to'g'riligiga shubha tug'ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki ekspertizani o'tkazishning protsessual qoidalari jiddiy ravishda buzilganda qayta ekspertiza tayinlanadi.

Qayta ekspertiza tayinlanganda ekspert (ekspertlar komissiyasi) oldiga ilgari qo'llanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to'g'risidagi masala qo'yilishi mumkin.

Qayta ekspertizani tayinlash to'g'risidagi sud ajrimida qayta ekspertizani tayinlagan sudning birinchi (ilgarigi) ekspertiza xulosasiga qo'shilmaganligi sabablari keltirilishi kerak.

Qayta ekspertiza o'tkazish boshqa ekspertga (ekspertlar komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (ilgarigi) ekspertizani o'tkazgan ekspert (ekspertlar komissiyasi) qayta ekspertiza o'tkazishda hozir bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u tekshirishlar o'tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

97-modda. Ekspertlarning xulosasi talab qilinadigan masalalar doirasini belgilash

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ekspertlar tomonidan tushuntirilishi kerak bo'lgan masalalarni sudga taqdim etishga haqli.

Ekspertlarning xulosasi talab qilinadigan masalalar doirasini sud belgilaydi. Taklif qilingan masalalarning rad qilinishini sud asoslab berishi shart.

98-modda. Ekspertning (ekspertlar komissiyasining) xulosasi

Ekspert (ekspertlar komissiyasi) tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin tegishincha ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir ekspert imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi.

Sud ekspertga o'z xulosasini og'zaki tushuntirib berishni taklif qilish huquqiga ega. Og'zaki tushuntirish sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi, ekspertga o'qib eshittiriladi va ekspert tomonidan imzolanadi.

Ekspertning (ekspertlar komissiyasining) xulosasida quyidagilar aks ettirilgan bo'lishi kerak: ekspertiza o'tkazilgan sana va joy; ekspertizaning o'tkazilish asosi; ekspertizani tayinlagan sud to'g'risidagi ma'lumotlar; ekspert to'g'risidagi ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, mehnat staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va ekspertizani o'tkazish topshirilgan korxonasi, muassasa yoki tashkilot haqidagi ma'lumotlar; ekspert bila turib yolg'on xulosa berganligi; ish yopiq sud majlisida ko'rilganda yopiq sud majlisi muhokamasi ma'lumotlarini hamda tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilganligi uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi; ekspert oldiga qo'yilgan savollar; ekspertga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari; ekspertiza o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar; qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tekshirishlarning mazmuni va

natijalari, shuningdek bu tekshirishlar, agar ekspertiza ekspertlar komissiyasi tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi; tekshirish natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asoslantirilgan javoblar; ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va ekspertning tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar.

(98-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-sentabrdagi O'RQ-1084-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son)

Xulosani va uning natijalarini tasvirlovchi materiallar ushbu xulosaga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Tekshirishning olib borilishi, shart-sharoitlari va natijalarini hujjatlashtiradigan materiallar qonunchilikda belgilangan muddatlarda davlat sud-ekspertiza muassasasida yoki nodavlat sud-ekspertiza tashkilotida yoxud boshqa korxonada, muassasa, tashkilotda saqlanadi. Ular ekspertizani tayinlagan sudning talabiga binoan ishga qo'shib qo'yish uchun taqdim etiladi.

(98-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-avgustdagi O'RQ-786-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son)

Agar taqdim etilgan tekshirish obyektlarining, materiallarning yoki ekspertning maxsus bilimlari yetarli emasligi tekshirish davomida ma'lum bo'lib qolsa, xulosa qo'yilgan ayrim savollarga javob berishni rad etish asosini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Tekshirish tugaganidan so'ng xulosa, tekshirish obyektlari va ish materiallari ekspertizani tayinlagan sudga yuboriladi.

Sudning ekspert (ekspertlar komissiyasi) xulosasiga qo'shilmaganligi ish bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorida yoki ajrimda asoslab berilgan bo'lishi lozim.

99-modda. Ekspertizaning ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkazilishi

Ekspertiza bir xil (komissiyaviy ekspertiza) yoki turli xil (kompleks ekspertiza) sud-ekspert ixtisosligidagi bir necha ekspert tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Ekspertizaning ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkazilishi ekspertizani tayinlagan sud yoki mazkur ekspertizaning o'tkazilishini tashkil etuvchi davlat sud-ekspertiza muassasasi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti yoxud boshqa korxonada, muassasa, tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi.

(99-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-avgustdagi O'RQ-786-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son)

Ekspertizani o'tkazish topshirilgan ekspertlar komissiyasi o'z oldiga qo'yilgan masalalarni hal etish zarurligidan kelib chiqib, o'tkaziladigan tekshirishlarning maqsadi, ketma-ketligi va hajmini kelishib oladi.

Ekspertizani o'tkazish topshirilgan ekspertlar komissiyasi tarkibidagi har bir ekspert tekshirishlarni mustaqil va alohida o'tkazadi, shaxsan o'zi olgan va komissiyaning boshqa a'zolari tomonidan olingan natijalarni baholaydi hamda qo'yilgan savollar yuzasidan o'z maxsus bilimlari doirasida fikrlarini shakllantiradi.

Tekshirishlarning ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiritilmagan shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

100-modda. Komissiyaviy ekspertiza

Komissiyaviy ekspertiza o'tkazilayotganda ekspertlarning har biri tekshirishlarni to'liq hajmda o'tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladi. Ekspertlar umumiy fikrga kelganidan so'ng birgalikdagi xulosani yoki xulosa berishning imkoni yo'qligi to'g'risidagi dalolatnomani tuzadi va imzolaydi.

Ekspertlar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi.

101-modda. Kompleks ekspertiza

Kompleks ekspertiza ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni turli bilim sohalaridan foydalangan holda bir nechta tekshirish o'tkazish yo'li bilangina aniqlash mumkin bo'lgan hollarda tayinlanadi.

Kompleks ekspertizani o'tkazishda ekspertlarning har biri o'z vakolati doirasida tekshirishlar olib boradi. Kompleks ekspertizaning xulosasida ekspertlarning har biri qaysi

tekshirishlarni va qancha hajmda olib borganligi, qaysi faktlarni shaxsan o'zi aniqlaganligi hamda qanday fikrlarga kelganligi ko'rsatiladi. Ekspertlarning har biri xulosaning o'z tekshirishlari bayon etilgan qismini imzolaydi va ular uchun javobgar bo'ladi.

Umumiy fikrni (fikrlarni) olingan natijalarni baholashga va ushbu fikrni (fikrlarni) shakllantirishga vakolatli bo'lgan ekspertlar chiqaradi. Agar ekspertlardan birining (alohida ekspertlarning) aniqlagan faktlari ekspertlar komissiyasi yakuniy fikrining yoki uning bir qismining asosi sifatida olingan bo'lsa, bu haqda xulosada ko'rsatilishi kerak.

Ekspertlar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi.

Agar kompleks ekspertizani o'tkazish davlat sud-ekspertiza muassasasiga yoki nodavlat sud-ekspertiza tashkilotiga topshirilgan bo'lsa, u holda ushbu ekspertizani tashkil etish uning rahbari zimmasiga yuklatiladi.

(101-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-avgustdagi O'RQ-786-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son)

102-modda. Mutaxassisning maslahati (tushuntirishi)

Mutaxassis sudga og'zaki yoki yozma shaklda maslahat (tushuntirish) beradi.

Mutaxassisning yozma shaklda bergan maslahati sud majlisida o'qib eshittiriladi, tekshiriladi va ishga qo'shib qo'yiladi. Og'zaki maslahat bevosita sud majlisining (protsessual harakatning) bayonnomasiga kiritiladi.

Maslahatni aniqlashtirish va to'ldirish maqsadida mutaxassisga savollar berilishi mumkin.

103-modda. Sud topshiriqlari

Ishni ko'rayotgan sud dalillarni boshqa tumanda yoki shaharda to'plash zarur bo'lgan taqdirda, tegishli sudga muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirishni topshiradi.

Sud topshirig'i ajrim bilan rasmiylashtirilib, unda ko'rib chiqilayotgan ishning mohiyati, aniqlanishi zarur bo'lgan holatlar, topshiriqni bajaradigan sud to'plashi lozim bo'lgan dalillar ko'rsatiladi. Bu ajrim qaysi sud nomiga yo'llangan bo'lsa, o'sha sud uchun majburiy bo'lib, o'n besh kunlik muddat ichida bajarilishi kerak.

Sud topshirig'i axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

104-modda. Sud topshirig'ini bajarish tartibi

Sud topshirig'ini bajarish ushbu Kodeksda belgilangan qoidalarga ko'ra sud majlisida amalga oshiriladi. Ishda ishtirok etayotgan shaxslar majlisning vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinadi, biroq ularning kelmaganligi topshiriqni bajarishga to'sqinlik qilmaydi.

Sud topshirig'i tartibida taraflarning va uchinchi shaxslarning yoxud ular qonuniy vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni ko'zdan kechirish hamda tekshirish orqali aniqlanadigan faktik ma'lumotlar to'planishi mumkin.

(104-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

Bayonnomalar va sud topshirig'ini bajarishda to'plangan materiallar ishni ko'rib chiqayotgan sudga darhol yuboriladi.

Agar sud topshirig'ini bajarayotgan sudga tushuntirishlar yoki ko'rsatuvlar bergan ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki guvohlar ishni ko'rib chiqayotgan sudga kelsa, ular umumiy tartibda tushuntirishlar yoxud ko'rsatuvlar beradi.

9-bob. Da'voni ta'minlash

105-modda. Da'voni ta'minlash asoslari

Sud (sudya) da'voni ta'minlash choralari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi yoki o'z tashabbusi bo'yicha ko'rishi mumkin. Agar da'voni ta'minlash choralari ko'rmaslik sud hujjati ijrosini qiyinlashtirsa yoki uni bajarib bo'lmaydigan qilib qo'ysa, da'voni ta'minlashga yo'l qo'yiladi.

Da'voni ta'minlashga sud protsessining har qanday bosqichida yo'l qo'yiladi.

Davlat foydasiga mulkiy undiruvlar bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqayotganda sud (sudya) da'voni ta'minlash choralari ko'rishi shart.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizada da'voni ta'minlash choralari ko'rish asoslari va zaruriyati ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'voni ta'minlash choralari hakamlik muhokamasi tarafining tanloviga ko'ra, hakamlik sudi joylashgan yerdagi yoxud javobgar turgan joydagi yoki yashaydigan joydagi yoinki javobgarning mol-mulki turgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan ko'rilishi mumkin. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizaga da'voning hakamlik sudiga taqdim etilganligini isbotlovchi dalillar ilova qilinadi.

Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan ko'rib chiqish va da'voni ta'minlash haqida ajrim chiqarish ushbu bobda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

106-modda. Da'voni ta'minlash choralari

Quyidagilar da'voni ta'minlash choralari bo'lishi mumkin:

1) javobgarga tegishli bo'lgan va uning o'zida yoki boshqa shaxsda turgan mol-mulkni yoxud pul mablag'larini xatlash;

2) javobgar muayyan harakatlarni amalga oshirishini taqiqlash;

3) boshqa shaxslarning javobgarga mol-mulk berishini yoki unga nisbatan boshqa majburiyatlarni bajarishini taqiqlash;

4) mol-mulkni xatlashdan chiqarish to'g'risida da'vo arz qilingan taqdirda, uni realizatsiya qilishni to'xtatish;

5) qarzdor ijro hujjati yuzasidan sud tartibida nizolashayotgan bo'lsa va agar bunday nizolashishga qonunchilikda yo'l qo'yilsa, bu hujjat bo'yicha undiruvni to'xtatish;

(106-modda birinchi qismining 5-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

6) nizoli mol-mulk buzilishi, holati yomonlashishining oldini olish maqsadida javobgarga muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklatish;

7) nizoli mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxsga (saqlovchiga) topshirish.

Zarur hollarda, sud (sudya) da'voni ta'minlash bo'yicha boshqa choralar ham ko'rishi mumkin.

Da'voning ish haqini, daromadni, pensiya va stipendiyani xatlash yo'li bilan ta'minlanishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan aliment undirish to'g'risidagi, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazganlik, shuningdek boquvchisining o'limi oqibatida ko'rilgan zararning o'rnini qoplash haqidagi, o'zgarar mol-mulkini talon-toroj qilganlik natijasida ko'rilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar mustasno.

Da'voni ta'minlash choralari da'vogar arz qilgan talabga mutanosib bo'lishi kerak.

Zarur hollarda, sud da'voni ta'minlash chorasining bir nechta turini qo'llashi mumkin, lekin ularning umumiy summasi da'voning bahosidan oshib ketmasligi kerak.

107-modda. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza sudya (sud) tomonidan ariza tushgan kuniyoq javobgarni va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilmagan holda hal qilinadi.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.

108-modda. Da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitib, da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirishi mumkin.

Da'voni ta'minlash turini almashtirish ishda ishtirok etayotgan shaxsning iltimosnomasiga ko'ra, ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish to'g'risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida hal etiladi. Biroq bu shaxslarning

kelmaganligi da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Pul summasini undirish to'g'risidagi da'voni ta'minlashda javobgar qo'llanilgan ta'minlash choralari o'rniga da'vogar talab qilayotgan summani sudning depozit hisobvarag'iga o'tkazishga haqli.

Da'voni ta'minlash turini almashtirish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.

109-modda. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrimni ijro etish

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim sud hujjatlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda darhol ijro etiladi.

110-modda. Da'voni ta'minlash choralariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik

Ushbu Kodeks 106-moddasi birinchi qismining 2, 3, 6 va 7-bandlarida ko'rsatilgan taqiqlar buzilganda aybdor shaxslar ushbu Kodeksning 146-moddasida nazarda tutilgan tartibda sudning ajrimi bilan jarimaga tortiladi. Da'vogar bu shaxslardan sudning da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrimini bajarmaganliklari oqibatida o'zi ko'rgan zararining o'rnini qoplanishini umumiy asoslarda talab qilishga haqli.

111-modda. Da'voni ta'minlash choralarini bekor qilish

Da'voni ta'minlash choralari ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Da'voni ta'minlashni bekor qilish to'g'risidagi masala ishda ishtirok etayotgan shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida hal etiladi. Biroq bu shaxslarning kelmaganligi da'voni ta'minlashni bekor qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Hakamlilik sudining da'vo talablarini qanoatlantirishni rad etish haqidagi hal qiluv qarori da'voni ta'minlash choralari sud tomonidan bekor qilinishi uchun asos bo'ladi.

Da'voni ta'minlash choralarini bekor qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi. Ajrimning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etayotgan shaxslarga ajrim chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay yuboriladi.

112-modda. Da'voni ta'minlash choralarining saqlanish muddati

Da'vo rad qilingan taqdirda, da'voni ta'minlash choralari hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar saqlanib qoladi. Biroq sud da'voni ta'minlash choralarini bekor qilish to'g'risida hal qiluv qarori bilan bir vaqtda yoki u qabul qilinganidan so'ng ajrim chiqarishi mumkin.

Da'vo qanoatlantirilgan taqdirda, da'voni ta'minlash choralari hal qiluv qarori amalda ijro etilguniga qadar o'z kuchini saqlab qoladi.

113-modda. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrimlar ustidan shikoyat qilish (protest keltirish)

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat (protest) berish muddati ajrimning ko'chirma nusxasi topshirilgan yoki yuborilgan kundan e'tiboran hisoblanadi.

114-modda. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat (protest) berish oqibati

Sudning da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi ushbu ajrimning ijrosini to'xtatmaydi.

Sudning da'voni ta'minlashni bekor qilish to'g'risidagi yoki da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi ushbu ajrimning ijrosini to'xtatib qo'yadi.

115-modda. Da'voni ta'minlash natijasida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash

Sud (sudya) da'voni ta'minlash bilan birga da'vogardan javobgarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararining o'rnini qoplashni talab qilishi mumkin.

Javobgar da'voni rad qilish to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin da'vogardan da'vogarning iltimosnomasiga ko'ra da'voni ta'minlash bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida o'ziga yetkazilgan zararining o'rnini qoplashni talab qilishga haqli.

10-bob. Ish yuritishni to'xtatib turish

116-modda. Sudning ish yuritishni to'xtatib turish majburiyati

Sud quyidagi hollarda ish yuritishni to'xtatib turishi shart:

1) ishda taraf bo'lgan fuqaro vafot etganda, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa yoki ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganda;

2) fuqaro (taraf) muomala layoqatini yo'qotganda;

3) javobgar — fuqaro O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismida bo'lganda yoki O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismidagi da'vogar — fuqaro tegishli iltimosnoma bilan murojaat qilganda;

4) mazkur ishni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha sud, jinoyat ishlari bo'yicha sud, ma'muriy sud yoki iqtisodiy sud tomonidan ko'rilayotgan boshqa ish yoki masala yuzasidan, shuningdek tergov olib borilayotgan ish yuzasidan qaror qabul qilguniga qadar ko'rish imkoni bo'lmaganda;

5) taraf chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlig sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida yoki uning ijrosini to'xtatib turish haqida chet davlatning vakolatli organiga iltimosnoma berganda;

6) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilganda.

(116-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuniga asosan 6-band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

117-modda. Sudning ish yuritishni to'xtatib turish huquqi

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan quyidagi hollarda ish yuritishni to'xtatib turishga haqli:

1) taraf O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida muddatli haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotganda yoki mazkur shaxslar davlatning biror-bir majburiyatini bajarish uchun jalb qilinganda;

2) taraf davolash muassasasida bo'lganda, shuningdek tarafdardan birida sudga kelishga to'sqinlik qiladigan, tibbiyot muassasasining ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan kasallik mavjud bo'lganda;

3) ushbu Kodeksning 165-moddasida nazarda tutilgan hollarda javobgar qidirilayotganda;

4) taraf ishni ko'rib chiqish muddatidan ortiq muddatda xizmat safarida bo'lganda, bundan ishda tashkilot vakillari ishtirok etayotgan hollar mustasno;

5) sud tomonidan ekspertiza tayinlanganda;

6) ushbu Kodeksning 103 va 363-moddalariga muvofiq sud tomonidan sud topshirig'i yuborilganda.

118-modda. Ish yuritishni to'xtatib turish vaqti

Ish yuritish:

1) ushbu Kodeks 116-moddasining 1 va 2-bandlarida nazarda tutilgan hollarda — huquqiy voris ishga kirishguniga yoki ishga jalb qilinguniga qadar yoxud muomalaga layoqatsiz shaxsga qonuniy vakil tayinlanguniga qadar;

2) ushbu Kodeks 116-moddasining 3-bandida nazarda tutilgan hollarda — tarafning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismida bo'lishi tugaguniga qadar;

3) ushbu Kodeks 116-moddasining 4-bandida nazarda tutilgan hollarda — sudning hal qiluv qarori yoki hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar yoki ma'muriy tartibda ko'rilayotgan ish bo'yicha qaror chiqarilguniga yoxud tergov tamom bo'lguniga qadar;

4) ushbu Kodeks 116-moddasining 5-bandida nazarda tutilgan hollarda — chet davlat sudining yoki hakamlig sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi yoxud

uning ijrosini to'xtatib turish haqidagi iltimosnoma chet davlatning vakolatli organi tomonidan hal qilinguniga qadar;

4¹) ushbu Kodeks 116-moddasining **6-bandida** nazarda tutilgan hollarda — mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tugaguniga qadar, biroq oltmish kundan ortiq bo'lmagan muddatda;
(118-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuniga asosan 4¹-band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

5) ushbu Kodeks 117-moddasining **1-bandida** nazarda tutilgan hollarda — tegishincha tarafning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida muddatli haqiqiy harbiy xizmatda bo'lishi tugaguniga yoki mazkur shaxslar davlat majburiyatini bajarib bo'lguniga qadar;

6) ushbu Kodeks 117-moddasining **2-bandida** nazarda tutilgan hollarda — taraf davolash muassasasidan chiqquniga yoki tarafning sudga kelishiga to'sqinlik qilayotgan kasallik tuzalguniga qadar;

7) ushbu Kodeks 117-moddasining **3-bandida** nazarda tutilgan hollarda — javobgarni qidirish tugallanguniga qadar;

8) ushbu Kodeks 117-moddasining **4-bandida** nazarda tutilgan hollarda — taraf qaytguniga qadar;

9) ushbu Kodeks 117-moddasining **5-bandida** nazarda tutilgan hollarda — ekspertiza o'tkazish bo'yicha harakatlar tugaguniga qadar;

10) ushbu Kodeks 117-moddasining **6-bandida** nazarda tutilgan hollarda — sud topshirig'ini ijro etish bo'yicha harakatlar tugaguniga qadar to'xtatib turiladi.

119-modda. Ish yuritishni to'xtatib turish tartibi

Ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Sudning ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

120-modda. Ish yuritishni to'xtatib turishning huquqiy oqibatlari

Ish yuritish to'xtatib turilganida, ushbu Kodeksda belgilangan yoki sud tomonidan tayinlangan muddatlarning o'tishi to'xtatib turiladi.

Ish yuritish tiklanguniga qadar sud biror-bir protsessual harakatlarni amalga oshirishga haqli emas, bundan da'voni va dalillarni ta'minlashga qaratilgan harakatlar mustasno.

121-modda. Ish yuritishni tiklash

Ish yuritish uni to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar barham topganidan keyin ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra yoki sudning tashabbusi bilan tiklanadi.

Ish yuritish tiklangan taqdirda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni umumiy asoslarda chaqiradi.

Ish yuritishni tiklash to'g'risida ajrim chiqariladi.

11-bob. Arizani ko'rmasdan qoldirish

122-modda. Arizani ko'rmasdan qoldirish asoslari

Sud quyidagi hollarda arizani ko'rmasdan qoldiradi, agar:

1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

2) manfaatdor shaxs nomidan ariza ish yuritishga vakolati bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

3) fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki hakamlik sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa;

4) taraflar o'rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to'g'risida hakamlik bitimi tuzilgan bo'lsa;

5) ishni o'zining ishtirokisiz muhokama qilishni iltimos qilmagan taraflar ikkinchi chaqiruv bo'yicha ham uzrli sabablarsiz sudga kelmasa, sud esa ishga oid mavjud materiallar asosida ishni hal qilish mumkin emas, deb hisoblasa;

6) ishni o'zining ishtirokisiz muhokama qilishni iltimos qilmagan da'vogar ikkinchi chaqiruv bo'yicha sudga kelmasa, javobgar esa ishni mazmunan ko'rishni talab qilmasa;

7) alohida tartibda yuritiladigan ishni muhokama qilish vaqtida sudga taalluqli huquq to'g'risida nizo kelib chiqsa;

8) xotini homilador bo'lgan vaqtda yoki bola tug'ilganidan keyin bir yil davomida er xotining rozilgisiz nikohni bekor qilish to'g'risida da'vo taqdim etgan bo'lsa;

9) da'vogar tomonidan arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ariza berilgan bo'lsa;

9¹) da'vogarning manfaatlarini ko'zlab prokuror, davlat organi, tashkilot va boshqa shaxs tomonidan taqdim etilgan da'vodan da'vogar voz kechgan bo'lsa va bunda uchinchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qilinmasa;

(122-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuniga asosan 9¹-band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

10) da'vogar tomonidan nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinmagan, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

10¹) da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etmagan bo'lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

10²) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish haqida iltimosnoma bilan arz qilgan taraflar uni amalga oshirish muddati tugaganidan so'ng sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmasa;

10³) taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa;

(122-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuniga asosan 10¹, 10² va 10³-bandlar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

11) mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ariza qonunda belgilangan muddatdan oldin yoki egasiz mol-mulkni (ashyoni) aniqlash va hisobga olishning qonunda nazarda tutilgan tartibi buzilgan holda berilgan bo'lsa.

123-modda. Arizani ko'rmasdan qoldirish tartibi va oqibatlari

Arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida sud ajrim chiqaradi. Ajrimda sud ishning hal etilishiga to'sqinlik qilayotgan, ushbu Kodeks 122-moddasining 2, 5, 6, 7, 8, 10, 10¹ va 11-bandlarida sanab o'tilgan holatlarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishi shart.

Sud ushbu Kodeks 122-moddasining 1, 3, 4 va 10³-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha arizani ko'rmasdan qoldirib, ajrimda davlat bojini qaytarish va da'voni ta'minlash yuzasidan ko'rilgan choralarni bekor qilish haqida ko'rsatadi.

Ushbu Kodeks 122-moddasining 5, 6, 7 va 10²-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha arizani ko'rmasdan qoldirish haqidagi sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

(123-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

Arizani ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga ariza bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

12-bob. Ish yuritishni tugatish

124-modda. Ish yuritishni tugatish asoslari

Sud quyidagi hollarda ish yuritishni tugatadi, agar:

1) ish fuqarolik ishlari bo'yicha sudga, iqtisodiy sudga yoki ma'muriy sudga taalluqli bo'lmasa;

(124-modda birinchi qismining 1-bandi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O'RQ-833-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son)

2) fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki ma'muriy sudning yoxud chet davlat vakolatli sudining ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir

asoslar bo'yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishini qabul qilish to'g'risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi ajrimi mavjud bo'lsa;

3) da'vogar arz qilingan talablaridan voz kechgan va sud bu voz kechishni qabul qilgan bo'lsa;

4) taraflar kelishuv bitimi tuzgan va u sud tomonidan tasdiqlangan bo'lsa;

5) hakamlik sudining ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa, bundan sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berishni rad etgan hollar mustasno;

5¹) sudning ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan tuzilgan mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ajrimi mavjud bo'lsa;

(124-modda O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O'RQ-1089-sonli Qonuniga asosan 5¹-band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son)

6) ish bo'yicha taraflardan biri bo'lgan fuqaroning vafotidan so'ng nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa;

7) ish bo'yicha taraf bo'lib qatnashayotgan tashkilot tugatilgan bo'lsa.

125-modda. Ish yuritishni tugatish tartibi

Ish yuritish sudning ajrimi bilan tugatiladi. Agar ish yuritish ish sudga taalluqli bo'lmaganligi sababli tugatilsa va nizoni hal etish boshqa davlat organining vakolatiga taalluqli bo'lsa, sud arizachining qaysi organga murojaat qilishi kerakligini ko'rsatishi shart.

(125-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

Ish yuritishni tugatish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

(125-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

126-modda. Ish yuritishni tugatish oqibatlari

Ish yuritish tugatilgan taqdirda, ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan sudga ikkinchi marta murojaat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

13-bob. Sud xarajatlari

127-modda. Sud xarajatlarning turlari

Sud xarajatlari davlat boji va ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlardan iborat bo'ladi.

128-modda. Davlat boji

Davlat bojini to'lash asoslari va tartibi, uni to'lashdan ozod qilish, davlat bojini qaytarish tartibi qonunda belgilanadi.

(128-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi O'RQ-600-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son)

129-modda. Da'voning bahosi

Da'voning bahosi quyidagicha belgilanadi:

1) pul undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — undiriladigan summaga qarab;

2) mol-mulkni talab qilib olish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — talab qilinayotgan mol-mulkning qiymatiga qarab;

3) bir nechta mustaqil talabdan iborat da'volar bo'yicha — barcha talablarning umumiy summasiga qarab;

4) aliment undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — bir yillik to'lovlarning yig'indisiga qarab;

5) muddatli to'lovlar va pul berish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — to'lovlarning yoki beriladigan pullarning yig'indisiga, lekin ko'pi bilan uch yillik yig'indisiga qarab;

6) muddatsiz yoki umrbod to'lovlar va pul berish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — to'lovlarning yoki pullarning uch yil ichidagi yig'indisiga qarab;

7) to'lovlarni yoki pul berishni kamaytirish yoxud ko'paytirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — to'lovlar yoki beriladigan pullar kamaytiriladigan yoki ko'paytiriladigan summaga, lekin ko'pi bilan bir yillik summaga qarab;

8) to'lovlarni yoki pul berishni to'xtatish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — qolgan to'lovlar yoki pullar yig'indisiga, lekin ko'pi bilan bir yillik yig'indisiga qarab;

9) mol-mulk ijarasi shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish haqidagi da'volar bo'yicha — shartnoma amal qilishining qolgan muddatida mulkdan foydalanish uchun to'lanadigan to'lovlarning yig'indisiga, lekin ko'pi bilan uch yil ichidagi to'lovlarning yig'indisiga qarab;

10) xususiy mulk huquqi asosida fuqarolarga tegishli imoratlarga egalik huquqi to'g'risidagi da'volar bo'yicha — imoratning bozor qiymatiga qarab, lekin bu miqdor kadastr qiymatidan, bunday baho bo'lmaganida esa, majburiy sug'urta bahosidan kam bo'lmasligi kerak, tashkilotlarga qarashli imoratlar bo'yicha esa — imoratlarning haqiqiy bahosidan kam bo'lmasligi kerak.

130-modda. Da'voning bahosini belgilash tartibi

Da'voning bahosi da'vogar tomonidan ko'rsatiladi. Da'vogar ko'rsatgan baho talab qilinayotgan mol-mulkning haqiqiy qiymatiga muvofiq emasligi yaqqol bo'lsa, da'voning bahosini sudya belgilaydi.

Da'vo taqdim etilgan vaqtda uning bahosini belgilash qiyin bo'lsa, davlat bojining miqdorini sudya dastlabki tarzda belgilaydi va keyinchalik ishni hal qilish chog'ida sud belgilagan da'vo bahosiga muvofiq, davlat bojining to'lanmagan qismi undiriladi yoki ortiqcha olingan qismi qaytariladi.

131-modda. Da'voning bahosi o'zgartirilganda davlat bojini hisoblash

To'langan davlat boji da'vogar o'z talablarini kamaytirgan, arz qilingan talablaridan voz kechgan, taraflar ishni kelishuv bitimi bilan tamomlagan hollarda qaytarilmaydi.

Arz qilingan talablar ko'paytirilganda yetishmayotgan summa da'voning ko'paytirilgan bahosiga muvofiq ravishda qo'shimcha tarzda to'lanadi.

132-modda. Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar

Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga, tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar;

2) joyida ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

3) ushbu Kodeksning 165-moddasida nazarda tutilgan hollarda javobgarni qidirish uchun qilingan xarajatlar;

3¹) sud xabarnomalarini va sud hujjatlarini yuborish bilan bog'liq pochta xarajatlari;

(132-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-496-sonli Qonuniga asosan 3¹-band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son)

4) sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar;

5) sud tomonidan tan olingan boshqa zarur xarajatlar.

Pochta xarajatlarning summasi sud tomonidan belgilanadi, biroq bu summa bazaviy hisoblash miqdorining o'ndan bir qismidan oshmasligi kerak va sudning depozit hisobvarag'iga kiritilishi lozim.

(132-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)

Sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar summasi sud tomonidan belgilanadi va ishda ishtirok etuvchi shaxslardan ishni ko'rish natijalariga ko'ra ushbu Kodeksga muvofiq undiriladi.

133-modda. Sud xarajatlarini to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash va ularning miqdorlarini kamaytirish

Davlat bojini to'lashni kechiktirishga qonunchilikda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.

(133-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sud taraflarning mulkiy ahvoriga qarab, ulardan birining yoki ikkalasining davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlarini to'lashni kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib to'lashga yo'l qo'yishi, shuningdek bu xarajatlarning miqdorini kamaytirishi mumkin.

134-modda. Ekspertlarga, mutaxassislarga, guvohlarga, tarjimonlarga tegishli bo'lgan summalarni to'lash va ularning o'rtacha ish haqini saqlab qolish

Ekspertlar, mutaxassislar, guvohlar va tarjimonlarga tegishli bo'lgan summalar ular o'z vazifalarini bajarib bo'lganidan so'ng sud tomonidan to'lanadi.

Ekspertlar va mutaxassislar sudning topshirig'i bo'yicha bajargan ishi uchun, agar bu ish ularning xizmat vazifalari doirasiga kirmasa, haq oladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xodimlarning sudga borishi munosabati bilan ularning ishda bo'lmagan vaqtida ish joyidagi o'rtacha ish haqi qonunchilikda belgilangan tartibda saqlanadi.

(134-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Mehnat munosabatlariga kirishmagan guvohlar odatdagi mashg'ulotlaridan qoldirilganligi uchun amalda sarflagan vaqti va belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqilgan holda haq oladi.

(134-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)

To'lanishi lozim bo'lgan summalarni to'lash tartibi va ularning miqdorlari qonunchilik bilan belgilanadi.

(134-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

135-modda. Sud chiqimlarini to'lash uchun mablag'larni kiritish tartibi

Guvohlar, ekspertlar va mutaxassislarga, tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar yoki joyida ko'zdan kechirishni o'tkazishga doir xarajatlar uchun zarur bo'lgan summalar tegishli iltimosnoma bilan murojaat qilgan taraf tomonidan sudning depozit hisobvarag'iga oldindan kiritiladi. Agar bu iltimosnoma ikkala taraf tomonidan berilgan bo'lsa yoki guvohlarni, ekspertlarni, mutaxassislarni, tarjimonlarni chaqirish, joyida ko'zdan kechirish sudning tashabbusi bilan amalga oshirilsa, talab qilinadigan summani taraflar teng miqdorda kiritadi. Agar ekspertiza sudning tashabbusi bilan tayinlansa, to'lanishi lozim bo'lgan summa ekspertga sud tomonidan depozit hisobvarag'idan to'lanishi mumkin. Bu summa ishda ishtirok etuvchi shaxslardan sud hujjati chiqarilayotganda sudning depozit hisobvarag'iga o'tkazilgan holda ushbu Kodeksga muvofiq undiriladi.

136-modda. Vakilning yordami uchun haq to'lashga doir xarajatlarning o'rnini qoplash

Hal qiluv qarori qaysi tarafning foydasiga chiqarilgan bo'lsa, sud shu tarafga ikkinchi tarafdan vakilning yordami uchun to'lashga doir xarajatlarni oqilona miqdorlarda undirib beradi.

Agar hal qiluv qarori o'z foydasiga chiqarilgan tarafga advokat belgilangan tartibga muvofiq bepul yordam ko'rsatgan bo'lsa, bu summa boshqa tarafdan advokatlar byurosi (hay'ati, firmasi) foydasiga undiriladi.

137-modda. Yo'qotilgan vaqt uchun haq undirish

Sud insofsizlik bilan asossiz talab arz qilgan yoki da'voga qarshi nizolashgan yoxud ishning to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi hamda hal etilishiga muntazam qarshilik qilib kelgan taraf zimmasiga amalda yo'qotilgan vaqt uchun ikkinchi taraf foydasiga haq to'lash majburiyatini yuklatishi mumkin. Undiriladigan haq sud tomonidan oqilona miqdorda belgilanadi.

138-modda. Sud xarajatlarini taraflar o'rtasida taqsimlash

Hal qiluv qarori qaysi tarafning foydasiga chiqarilgan bo'lsa, sud shu tarafga ikkinchi tarafdan, garchi bu taraf davlat daromadiga tushadigan sud xarajatlarini to'lashdan ozod etilgan bo'lsa-da, ish bo'yicha qilingan hamma xarajatlarni undirib beradi.

Agar arz qilingan talablar qisman qanoatlantirilgan bo'lsa, ushbu moddada ko'rsatilgan summalar javobgardan da'vogarga talablarning sud tomonidan qanoatlantirgan qismiga mutanosib ravishda, javobgarga esa da'vogar arz qilgan talablarning rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirib beriladi.

Da'vogarning talablari u sudga murojaat qilganidan so'ng javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda qanoatlantirilganda sud xarajatlari javobgarning zimmasiga yuklatiladi.

Agar da'vogar tomonidan neustoykani undirish haqidagi talab asosli ravishda arz qilinib, biroq uning miqdori sud tomonidan kamaytirilgan bo'lsa, sud xarajatlari neustoykaning kamaytirilishi hisobga olinmagan holda undirilishi lozim bo'lgan neustoyka summasidan kelib chiqqan holda, javobgarning zimmasiga yuklatiladi.

Davlat bojini to'lashdan ozod etilgan davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek tashkilotlar tomonidan yuridik shaxslar va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab taqdim etilgan da'vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji manfaatlarini ko'zlab taqdim etilgan shaxslardan da'vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi.

Agar yuqori turuvchi instansiya sudi ishlarni yangidan ko'rib chiqish uchun yubormay, chiqarilgan hal qiluv qarorini o'zgartirsa yoki yangi hal qiluv qarorini qabul qilsa, u sud xarajatlari taqsimotini tegishincha o'zgartiradi.

Ushbu moddada bayon qilingan qoidalar apellyatsiya, kassatsiya va taftish shikoyatlarini berganda taraflar to'lagan davlat bojiga ham taalluqlidir.

(138-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

139-modda. Arz qilingan talablardan voz kechilganda, kelishuv bitimi tuzilganda sud xarajatlarini taqsimlash

Da'vogar arz qilingan talablaridan voz kechganda u qilgan xarajatlarining o'rni javobgar tomonidan qoplanmaydi.

Agar taraflar kelishuv bitimi tuzish chog'ida sud xarajatlarini taqsimlash tartibini nazarda tutmagan bo'lsa, sud bu masalani kelishuv bitimini tasdiqlashda ushbu Kodeksning 136, 138 va 141-moddalariga muvofiq hal qiladi.

140-modda. Taraflarga sud xarajatlarining o'rnini qoplash

Prokurorning, shuningdek boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilib sudga murojaat qilgan davlat boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning va fuqarolarning arz qilingan talablari to'liq yoki qisman rad etilganda, javobgar qilgan sud xarajatlarining o'rni unga budjet mablag'lari hisobidan to'liq yoki da'vogar arz qilgan talablarning rad etilgan qismiga mutanosib ravishda qoplanadi.

Talablarni qanoatlantirish rad etilgan taqdirda, ushbu Kodeks 46-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan jalb etilgan javobgar qilgan sud xarajatlarining o'rni budjet mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Mol-mulkni xatlashni bekor qilish to'g'risidagi da'vo qanoatlantirilgan taqdirda, da'vogar qilgan sud xarajatlarining o'rni unga budjet mablag'lari hisobidan qoplanadi.

141-modda. Davlatga sud xarajatlarining o'rnini qoplash

Ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan va da‘vogar to‘lashdan ozod qilingan sud chiqimlari hamda davlat boji javobgardan arz qilingan talablarning qanoatlantirilgan qismiga mutanosib ravishda davlat daromadiga undiriladi.

Arz qilingan talablarni qanoatlantirish rad etilgan taqdirda sudning ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlari da‘vogardan davlat daromadiga undiriladi.

Agar arz qilingan talablar qisman qanoatlantirilgan, javobgar esa sud xarajatlarini to‘lashdan ozod qilingan bo‘lsa, sudning ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlari sud xarajatlarini to‘lashdan ozod qilinmagan da‘vogardan talablarining rad etilgan qismiga mutanosib ravishda davlat daromadiga undiriladi.

Agar har ikki taraf ham sud xarajatlarini to‘lashdan ozod qilingan bo‘lsa, sudning ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlari davlat hisobiga o‘tkaziladi.

Javobgarni qidirish ushbu Kodeksning 165-moddasida nazarda tutilgan tartibda e‘lon qilingan taqdirda, sud qidiruv ishi bo‘yicha qilingan xarajatlarni javobgardan davlat daromadiga undiradi.

142-modda. Sud xarajatlari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ajrimlar ustidan shikoyat qilish

Sud xarajatlari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

14-bob. Protsessual majburlov choralari

143-modda. Protsessual majburlov choralarining turlari

Protsessual majburlov choralari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda majburiy keltirish;
- 2) ogohlantirish;
- 3) sud majlisi zalidan chiqarib yuborish;
- 4) sud jarimasi.

Shaxsga nisbatan protsessual majburlov choralarining qo‘llanilishi uni ushbu Kodeksda yoki sud tomonidan belgilangan tegishli majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

144-modda. Majburiy keltirish

Agar ushbu Kodeksning 313-moddasiga muvofiq sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo‘lgan yoki sudga kelishi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxs sudga uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmasa yoxud kelmaganligi sabablarini ma‘lum qilmasa, sud tomonidan unga nisbatan majburiy keltirish to‘g‘risida ajrim chiqarilishi mumkin. Mazkur ajrimning ijrosi hududiy ichki ishlar organining zimmasiga yuklatiladi. Majburiy keltirish bilan bog‘liq xarajatlarni undirish ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hududiy ichki ishlar organining tegishli arizasiga asosan amalga oshiriladi.

Majburiy keltirish voyaga yetmaganlarga, homilador ayollarga, kasalligi, yoshi yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra sud majlisiga kela olmaydigan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Majburiy keltirish to‘g‘risidagi sud ajrimida ushbu Kodeksning 272-moddasida nazarda tutilgan ma‘lumotlardan tashqari shaxs majburiy keltirilishi lozim bo‘lgan sana, vaqt va joy, shuningdek majburiy keltirish qaysi hududiy ichki ishlar organiga topshirilganligi ko‘rsatiladi.

Majburiy keltirish to‘g‘risidagi sud ajrimi darhol ijro etilishi lozim va ish yuritiladigan joydagi yoki majburiy keltirilishi kerak bo‘lgan shaxsning yashash joyi, turgan joyi (joylashgan yeri), ish, xizmat yoxud o‘qish joyidagi hududiy ichki ishlar organiga ijro uchun yuboriladi.

Majburiy keltirish to‘g‘risidagi sud ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning ijrosini to‘xtatmaydi.

145-modda. Ogohlantirish va sud majlisi zalidan chiqarib yuborish

Ishni muhokama qilish vaqtida tartibni buzgan shaxsni raislik qiluvchi sud nomidan ogohlantiradi.

Sud majlisida taraf yoki uchinchi shaxs tartibni buzgan taqdirda, sud tartibbuzarni ishni ko'rishning hamma vaqtiga yoxud uning bir qismiga majlis zalidan chiqarib yuboradi. Vaqtincha chiqarib yuborilgan shaxs sud majlisi zaliga qaytadan qo'yilganda raislik qiluvchi uni zalda yo'q bo'lganda amalga oshirilgan protsessual harakatlar bilan tanishtiradi. Sud majlisida har ikki taraf yoki uchinchi shaxslar tartibni buzgan taqdirda, sud ishning muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin.

Ishda ishtirok etayotgan shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar tartibni takroran buzgan taqdirda sudning ajrimiga binoan, ishni ko'rishda hozir bo'lgan fuqarolar esa raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin. Fuqarolar ommaviy tarzda tartibni buzgan taqdirda sud ish muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin.

Prokuror yoki advokat raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunmagan taqdirda, ular ogohlantiriladi. Mazkur shaxslar raislik qiluvchining farmoyishlariga yana bo'ysunmasa, agar ularni ishga zarar yetkazmagan holda boshqa shaxs bilan almashtirishning imkoni bo'lmasa, ishni ko'rish sudning ajrimiga binoan keyinga qoldirilishi mumkin. Sud bir vaqtning o'zida xususiy ajrim chiqaradi, ushbu ajrim tegishincha yuqori turuvchi prokurorga yoki O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga yuboriladi.

146-modda. Sud jarimalarini solish tartibi

Sud jarimalari ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda solinadi.

Sud jarimasini solish to'g'risida ajrim chiqariladi, uning ko'chirma nusxasi jarima solingan shaxsga darhol yuboriladi.

Sud tomonidan solinadigan sud jarimasining miqdori bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan oshmasligi kerak.

(146-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)

147-modda. Sud jarimasini undirish

Sud jarimalari davlat daromadiga undiriladi.

Mansabdor shaxslarga sud tomonidan solingan sud jarimalari ularning shaxsiy mablag'laridan undiriladi.

148-modda. Jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirish

Jarima solingan shaxs jarima solgan suddan jarimadan ozod qilishni yoki uning miqdorini kamaytirishni sud ajrimining ko'chirma nusxasini olganidan keyin besh kun ichida iltimos qilishi mumkin. Bu ariza jarima solingan shaxsni xabardor qilgan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Biroq uning sudga kelmaganligi arizani ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

149-modda. Sud jarimasi ustidan shikoyat qilish (protest keltirish)

Sudning jarima solish, jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirishni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

150-modda. Ma'muriy javobgarlikka tortish

Sud majlisida tartibni buzgan yoki sudga boshqacha tarzda hurmatsizlik bildirgan shaxs sud tomonidan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Sudga hurmatsizlik guvohning, da'vogarning, javobgarning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning sudga kelishdan qasddan bo'yin tovlashida yoki ushbu shaxslar va boshqa fuqarolarning raislik qiluvchining farmoyishiga bo'ysunmasligida yoxud sud majlisi vaqtida tartibni buzishida namoyon bo'ladi.

Sudga hurmatsizlik ko'rsatilganligi fakti aniqlanganligi to'g'risida ushbu huquqbuzarlik sodir etilgan sud majlisining o'zida alohida xonaga (maslahatxonaga) kirmasdan sudya (sud tarkibi) tomonidan huquqbuzarga darhol e'lon qilinadi. Mazkur fakt sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi. Bunda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmaydi.

Sudga hurmatsizlik ko'rsatilganligi fakti aniqlangan shaxs, shuningdek ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar o'z tushuntirishlarini berishga haqli.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qaror raislik qiluvchi tomonidan ish bo'yicha sud majlisi tugagandan keyin alohida xonada (maslahatxonada) tuzilib, sudya (sud tarkibi) tomonidan imzolanadi.

Agar sudga hurmatsizlik sud majlisida ko'rsatilgan va huquqbuzar sud majlisi zalini tark etgan bo'lsa, sudga hurmatsizlik sud majlisidan tashqarida ko'rsatilgan bo'lsa, shuningdek sud majlisiga kelishdan bosh tortganlik aniqlansa, huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) yoki sud raisining yoxud sud majlisida raislik qiluvchining og'zaki farmoyishiga asosan boshqa sud xodimi tomonidan tuziladi va bu haqda huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomada ko'rsatiladi.

Ushbu moddaning **oltinchi qismida** nazarda tutilgan hollarda huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ushbu sud tomonidan O'zbekiston Respublikasining **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida** belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

15-bob. Protsessual muddatlar

151-modda. Protsessual harakatlarni amalga oshirish muddatlari

Protsessual harakatlar qonunda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Protsessual muddatlar qonunda belgilanmagan hollarda, ular sud tomonidan tayinlanadi.

Protsessual harakatlarni bajarish uchun muddatlar albatta yuz berishi lozim bo'lgan voqeani ko'rsatgan holda kalendar sana bilan yoki muayyan davr bilan belgilanadi. Muayyan davr bilan belgilanganda harakat butun davr mobaynida amalga oshirilishi mumkin.

152-modda. Protsessual muddatlarni hisoblash

Protsessual muddatlar yillar, oylar va kunlar bilan hisoblanadi. Muddatning o'tishi kalendar sananing yoki muddatning boshlanishi deb belgilangan voqea yuz bergan kunning ertasidan boshlanadi.

Yillar bilan hisoblanadigan muddat uning oxirgi yilining tegishli oyi va kunida tamom bo'ladi.

Oylar bilan hisoblanadigan muddat uning oxirgi oyining tegishli oyi va kunida tamom bo'ladi.

Agar oylar bilan hisoblanadigan muddatning tugashi tegishli sanasi bo'lmagan oyga to'g'ri kelsa, muddat shu oyning oxirgi kunida tamom bo'ladi. Bu muddatning oxirgi kuni ish kuni bo'lmagan kunga to'g'ri kelgan taqdirda, undan keyingi birinchi ish kuni muddatning tamom bo'lish kuni hisoblanadi.

Amalga oshirilishi uchun muddat belgilangan protsessual harakat muddatning oxirgi kuni soat yigirma to'rtgacha bajarilishi mumkin.

Agar protsessual harakat sudda amalga oshirilishi kerak bo'lsa, belgilangan qoidalarga ko'ra sudda ish tugagan soatda muddat tamom bo'lgan hisoblanadi.

Agar ariza, shikoyat, hujjatlar yoki pul summolari muddatning oxirgi kuni soat yigirma to'rtgacha aloqa tashkilotiga topshirilgan, axborot tizimi orqali elektron tarzda yuborilgan yoki tegishli organga yoxud hujjatni qabul qilishga vakolatli shaxsga berilgan bo'lsa, muddat o'tmagan hisoblanadi.

153-modda. Protsessual muddatlarni o'tkazib yuborish oqibatlari

Protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqi qonunda belgilangan yoki sud tomonidan tayinlangan muddatning o'tishi bilan bekor bo'ladi. Bunday holda protsessual muddatlarning o'tishi ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ularning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

Protsessual muddatlar o'tgandan so'ng taqdim etilgan arizalar, shikoyatlar va hujjatlar, agar o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma mavjud bo'lmasa yoki uni qanoatlantirish rad etilgan bo'lsa, ularni taqdim etgan shaxslarga qaytariladi.

154-modda. Protsessual muddatlarni to'xtatib turish

Ish yuritish to'xtatib turilganida tugamagan barcha protsessual muddatlarning o'tishi ham to'xtatib turiladi. Muddatlarning to'xtatib turilishi ish yuritishni to'xtatib turishga asos bo'lgan holatlar yuzaga kelgan vaqtdan e'tiboran boshlanadi. Ish yuritish tiklangan kundan e'tiboran protsessual muddatlarning o'tishi davom etadi.

155-modda. Protsessual muddatlarni uzaytirish va tiklash

Sud (sudya) tayinlagan muddatlar sud (sudya) tomonidan uzaytirilishi mumkin.

(155-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonunda belgilangan muddatni sud (sudya) uzrli deb topgan sabablarga ko'ra o'tkazib yuborgan bo'lsa, mazkur muddat tiklanadi.

(155-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

O'tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to'g'risidagi iltimosnoma protsessual harakat amalga oshirilishi yoki hujjat topshirilishi lozim bo'lgan sudga beriladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Biroq bu shaxslarning kelmaganligi iltimosnomani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

O'tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to'g'risidagi iltimosnomani berish bilan bir vaqtda, muddati o'tkazib yuborilgan harakat bajarilishi yoki hujjat topshirilishi lozim.

O'tkazib yuborilgan protsessual muddatni uzaytirish, tiklash haqida yoki uzaytirishni yoxud tiklashni rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi.

O'tkazib yuborilgan protsessual muddatni uzaytirishni rad etish yoki tiklashni rad etish yoxud tiklash haqidagi sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

(155-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

16-bob. Sud xabarnomalari va chaqiruvlari

156-modda. Sud xabarnomalari va chaqiruv qog'ozlari

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va guvohlar sud chaqiruv qog'ozlari, zarur hollarda esa buyurtma xatlar, telefonogrammalar, telegrammalar va xabardor qilinganlik fakti qayd etilishini ta'minlaydigan boshqa aloqa vositalari orqali sudga chaqiriladi hamda sudning ayrim protsessual harakatlari to'g'risida xabardor qilinadi.

Sudya chaqiruv qog'ozini bilan bir vaqtda javobgarga da'vo arizasining (arizaning) ko'chirma nusxasini va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalarini yuboradi.

Agar javobgarning yozma tushuntirishi sudga kelib tushgan bo'lsa, sudya sudga murojaat qilgan shaxsga chaqiruv qog'ozini yuborayotganda ushbu tushuntirish xatining ko'chirma nusxasini jo'natadi.

Sud xabarnomalari va chaqiruv qog'ozlari ish materiallariga qo'shib qo'yiladi.

157-modda. Sud chaqiruv qog'ozining mazmuni

Sudga chaqirish to'g'risidagi sud chaqiruv qog'ozida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) sudning nomi, manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili;
- 2) kelish joyi va vaqti;
- 3) shaxs qanday ish yuzasidan chaqirilayotganligi;
- 4) shaxsning kim tariqasida chaqirilayotganligi;
- 5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ish bo'yicha o'zlari ega bo'lgan hamma dalillarni taqdim etish to'g'risidagi taklif;
- 6) chaqiriluvchi yo'qligi sababli chaqiruv qog'ozini qabul qilib olgan shaxsning imkoniyat bo'lishi bilanoq uni darhol chaqiriluvchiga topshirishga majburligi;
- 7) sudga kelmaganlikning ushbu Kodeksning 220, 221 va 222-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlarini.

Sudga chaqirish to'g'risida elektron hujjat tarzida yuborilayotgan sud chaqiruv qog'ozida ushbu modda birinchi qismining 1 — 5, 7-bandlarida sanab o'tilgan ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

158-modda. Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani topshirish muddati

Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va sud protsessining boshqa ishtirokchilariga sudga o'z vaqtida kelish va ishga tayyorlanish uchun yetarli vaqtga ega bo'lishini mo'ljallab topshirilishi yoki yetkazib berilishi kerak.

159-modda. Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani yetkazib berish

Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma chaqirilayotgan shaxsga taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxs tomonidan ko'rsatilgan manzil bo'yicha yetkazib beriladi. Agar fuqaro sudga ma'lum qilingan manzilda haqiqatda yashamasa, sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma uning ish yoki o'qish joyiga yuborilishi mumkin.

Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma aloqa tashkiloti orqali topshirilganligi to'g'risida tilxat olish yo'li bilan yoki xat-hujjat tashuvchi orqali yuboriladi.

Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) ishda ishtirok etuvchi shaxsning roziligi bilan unga ish bo'yicha chaqirilayotgan boshqa shaxsga topshirish uchun sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani berishi mumkin.

Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani yetkazib berish vazifasi yuklatilgan shaxs hujjatning ikkinchi nusxasini chaqiriluvchining uni olganligi to'g'risidagi imzosi bilan sudga qaytarishi shart.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs tomonidan elektron pochta manzili ko'rsatilgan taqdirda, sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

160-modda. Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani topshirish

Fuqaroga sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma sudga qaytarilishi lozim bo'lgan ikkinchi nusxasiga u topshirilgan vaqtini ko'rsatgan holda tilxat olib shaxsan topshiriladi.

Tashkilot nomiga yo'llangan sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma tegishli mansabdor shaxsga topshiriladi, u hujjatning ikkinchi nusxasiga imzo qo'yadi.

Agar sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani keltirgan shaxs ish bo'yicha sudga chaqirilayotgan fuqaroni yashash yoki ish yoxud o'qish joyida topmasa, sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma ushbu fuqaro bilan birga yashaydigan katta yoshdagi oila a'zolarining biriga, bo'lmagan taqdirda esa, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga yoki ish beruvchiga (ma'muriyatning mansabdor shaxsiga) yoxud o'quv muassasasiga topshiriladi. Bunday hollarda sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilib olgan shaxs uning ikkinchi nusxasida o'zining familiyasi, ismi, otasining ismini, shuningdek sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma yuborilgan shaxsning kimi ekanligini (eri yoki xotini, otasi, onasi, o'g'li, qizi va hokazo) yoki egallab turgan lavozimini ko'rsatishi shart. Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilib olgan shaxs uni imkoniyat bo'lishi bilan chaqiriluvchiga darhol topshirishi shart.

Chaqiriluvchi vaqtincha biror joyga ketgan bo'lsa, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoki ish beruvchi (ma'muriyatning mansabdor shaxsi) yoxud o'quv muassasasi sud chaqiruv qog'ozining yoki boshqa xabarnomaning ikkinchi nusxasiga chaqiriluvchi qayerga ketganligi va qachon kelishi kutilayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etadi, bu ma'lumotlar tegishincha imzo va muhr bilan tasdiqlanadi hamda guvohlantiriladi.

161-modda. Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilishdan bosh tortish oqibatlari

Chaqiriluvchi o'z nomiga yuborilgan sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilishdan bosh tortsa, uni keltirgan shaxs sudning chaqiruv qog'oziga yoki boshqa xabarnomaga tegishli belgi qo'yib, uni sudga qaytaradi. Chaqiriluvchi sudning chaqiruv qog'ozini yoxud boshqa xabarnomani qabul qilib olishdan bosh tortganligi haqidagi belgi

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoki ish beruvchi (ma'muriyatning mansabdor shaxsi) yoxud o'quv muassasasi tomonidan yoki kamida ikki nafar fuqaroning imzosi bilan tasdiqlanadi.

Chaqiriluvchi sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilishdan bosh tortganligi yoki axborot tizimi orqali elektron tarzda xabardor qilingan shaxsning uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi ishni muhokama qilishga to'sqinlik qilmaydi.

162-modda. Tegishli tartibda xabardor qilish

Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma shaxsan yoki voyaga yetgan oila a'zolaridan biri, mazkur manzilda yashovchi boshqa shaxs tomonidan olingan, shuningdek sud tomonidan matnli xabarning elektron pochta manzili orqali yoki xabarnomaning qayd etilishini ta'minlovchi boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda yetkazilganligini tasdiqlovchi hisobot olingan hollarda, agar bunday xabarnoma kelib tushmaganligi yoki kechroq kelib tushganligi isbotlanmasa, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tegishli tartibda xabardor qilingan hisoblanadi.

Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma chaqiriluvchi uni olishni rad etganda ham, agar bunday rad etish qayd etilgan bo'lsa, yetkazilgan hisoblanadi.

163-modda. Ish yuritish vaqtida familiyani, ismni, otasining ismini o'zgartirish, manzilning o'zgarishi

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish yuritish vaqtida familiyasini, ismini, otasining ismini o'zgartirganligi, manzili o'zgariganligi haqida sudga xabar qilishi shart. Bunday xabar mavjud bo'lmagan taqdirda, sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma sudga ma'lum bo'lgan oxirgi manzil bo'yicha yuboriladi va, garchi chaqiriluvchi bu manzilda ortiq yashamasa yoki bo'lmasa ham, u yetkazib berilgan deb hisoblanadi.

Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar telefonlari va fakslari raqamlarini, elektron pochta manzilini sudga ma'lum qilgan bo'lsa, ish yuritilayotgan vaqtda ularning o'zgariganligi to'g'risida sudni xabardor qilishi kerak.

164-modda. Javobgarning turish joyi noma'lumligi

Javobgarning amaldagi turish joyi noma'lum bo'lsa, javobgarning oxirgi yashash joyidagi aloqa tashkiloti, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoxud oxirgi ish joyidagi ish beruvchi (ma'muriyatning mansabdor shaxsi) sud chaqiruv qog'ozining yoki boshqa xabarnomaning ikkinchi nusxasiga mazkur organlar yoki tashkilotlar sud chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani olganligi va uni chaqiriluvchining turish joyi noma'lumligi sababli unga topshirishning imkoni bo'lmaganligi haqida yozib yuborgan ma'lumot sudga kelib tushgach, sud ishni muhokama qilishga kirishadi.

165-modda. Javobgarni (qarzdorni) qidirish

Alimentlar undirish to'g'risidagi va mayib bo'lish yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi, shuningdek boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zararining o'rnini qoplash haqidagi da'volar bo'yicha javobgarning (qarzdorning) amaldagi turish joyi noma'lum bo'lgan taqdirda, javobgar (qarzdor) qidirilishi shart. Bunday hollarda sud ichki ishlar organlari tomonidan javobgarni (qarzdorni) qidirish to'g'risida ajrim chiqaradi.

17-bob. Yarashdirish tartib-taomillari

(17-bobning nomi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

166-modda. Kelishuv bitimini yoki mediativ kelishuvni tuzish

Sud taraflarni yarashdirish uchun choralari ko'radi, ularga fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida nizoni hal etishga ko'maklashadi.

Taraflar kelishuv bitimini yoki mediativ kelishuvni tuzib, nizoni o'zaro talablarning to'liq hajmida yoki qisman hal etishi mumkin.

Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv da'vo tartibida yuritiladigan har qanday ish bo'yicha tuzilishi mumkin.

Kelishuv bitimi fuqarolik sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida va sud hujjatini ijro etish jarayonida, mediativ kelishuv esa birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar taraflar tomonidan tuzilishi mumkin.

Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv yozma shaklda tuziladi va kelishuv bitimini, mediativ kelishuvni tuzgan shaxslar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanadi.

Kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlanganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.

(166-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O‘RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

167-modda. Kelishuv bitimining mazmuni

Kelishuv bitimi uni ijro etish muddati va tartibi ko‘rsatilgan holda taraflar tomonidan kelishilgan shartlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Taraflar tomonidan kelishuv bitimi shartlari bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarning ijro etilishi taraflarni bir-biriga yoki boshqa voqealarga (harakatlarga) bog‘liq qilib qo‘yishi mumkin emas.

Kelishuv bitimida javobgar tomonidan majburiyatlarni kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etish to‘g‘risidagi, talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish haqidagi, qarzdan to‘liq yoki qisman voz kechish yoxud uni tan olish to‘g‘risidagi, sud xarajatlarini taqsimlash haqidagi shartlar va qonunga zid bo‘lmagan boshqa shartlar bo‘lishi mumkin.

Agar kelishuv bitimida sud xarajatlarini taqsimlash to‘g‘risidagi shart mavjud bo‘lmasa, sud mazkur masalani kelishuv bitimini tasdiqlash chog‘ida, ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hal qiladi.

Kelishuv bitimi uni tuzgan shaxslar sonidan bitta ortiq nusxada tuziladi va imzolanadi. Ushbu nusxalardan biri ish materiallariga qo‘shib qo‘yiladi.

168-modda. Kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish

Kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi masala sud majlisida taraflar albatta ishtirok etgan holda ko‘riladi, bunday kelishuv notarius tomonidan tasdiqlangan hollar bundan mustasno. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining vaqti va joyi haqida xabardor qilinadi.

Kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risida ajrim chiqariladi, unda ish yuritish tugatilganligi ko‘rsatiladi.

Kelishuv bitimi apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudi tomonidan tasdiqlangan taqdirda, ish bo‘yicha ilgari qabul qilingan barcha sud hujjatlari bekor qilinishi to‘g‘risida ajrim chiqariladi va ish yuritish tugatiladi.

(168-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Kelishuv bitimi sud hujjatini ijro etish bosqichida tuzilgan taqdirda, bitim ishni ko‘rgan birinchi instansiya sudiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Sud hujjatini ijro etish bosqichida tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlash masalasi kelishuv bitimi sudga taqdim etilgan kundan e‘tiboran o‘n kunlik muddatda, ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha ko‘rib chiqiladi.

Sud hujjatini ijro etish bosqichida tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrimda kelishuv bitimining shartlari va kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi xulosa bo‘lishi kerak.

Kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Kelishuv bitimini tuzgan shaxslar uni ushbu bitimda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ixtiyoriy ravishda ijro etadi.

Sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimi, ushbu bitimda nazarda tutilgan muddatlarda ixtiyoriy ravishda ijro etilmagan taqdirda, u kelishuv bitimini tuzgan shaxsning iltimosnomasiga, sud xarajatlarini undirishga taalluqli qismi esa sudning tashabbusiga ko‘ra sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida, ushbu Kodeks qoidalari bo‘yicha majburiy ijro etilishi lozim.

169-modda. Kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish

Sud kelishuv bitimini tasdiqlashni quyidagi hollarda rad etadi, agar uning shartlari: qonunchilikka zid bo'lsa;

(169-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lsa.

Kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi, ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

II BO'LIM. BIRINCHI INSTANSIYA SUDIDA ISHLARNI YURITISH

1-kichik bo'lim. Buyruq tartibida ish yuritish

18-bob. Sud buyrug'i

170-modda. Sud buyrug'iga oid umumiy qoidalar

Sud buyrug'i nizosiz talablar bo'yicha sud muhokamasi o'tkazmasdan berilgan sud hujjatidir.

Sud buyrug'i ijro hujjati kuchiga ega. Sud buyrug'i bo'yicha undiruv buyruq berilganidan keyin o'n kunlik muddat o'tgandan keyin va sud hujjatlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Aliment undirish va xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan ish haqini undirib berish to'g'risidagi sud buyruqlari darhol ijro etilishi lozim.

171-modda. Sud buyrug'ini berish bo'yicha talablar

Sud buyrug'i quyidagi hollarda beriladi, agar:

- 1) talab notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan bo'lsa;
- 2) talab yozma bitimga asoslangan va qarzdor tomonidan tan olingan bo'lsa;
- 3) kommunal xizmatlar yoki aloqa xizmatlari to'lovi bo'yicha qarzdorlikni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;
- 4) voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to'g'risidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog'liq bo'lmagan talab arz qilingan bo'lsa;
- 5) hisoblangan, lekin xodimga to'lanmagan ish haqini va unga tenglashtirilgan to'lovlarni undirish haqida talab arz qilingan bo'lsa;
- 6) fuqarolardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;
- 7) ijara shartnomasida belgilangan ijara to'lovlari muddatida to'lanmaganligi sababli ushbu to'lovlarni undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;
- 8) ko'p kvartirali uyning joylari mulkdorlaridan majburiy badallar va to'lovlarni undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;

(171-moddasining 8-bandi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-noyabrdagi O'RQ-584-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.11.2019-y., 03/19/584/4025-son — 2020-yil 1-avgustdan kuchga kiradi)

9) yozma bitim mavjud bo'lgan taqdirda, undiruvni qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti bo'lgan ko'char mol-mulkka qaratish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa.

(171-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O'RQ-572-sonli Qonuniga asosan 9-band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)

172-modda. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza sudga ushbu Kodeksning 5-bobida belgilangan sudlovga tegishlilikning umumiy qoidalari bo'yicha beriladi.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida beriladi. Arizada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;

2) undiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) hamda yuridik shaxsning rekvizitlari;

3) qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) hamda yuridik shaxsning rekvizitlari;

4) undiruvchining talabi va talabga asos bo'lgan holatlar;

5) undirilayotgan qarzdorlik vujudga kelgan davr;

5¹) to'lanmagan to'lovlar summasining hisob-kitobi va undiruv qaratilayotgan, qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida turgan ko'char mol-mulkning tavsifi;

(172-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O'RQ-572-sonli Qonuniga asosan 5¹-band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)

6) arz qilingan talabni tasdiqlovchi, ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizada undiruvchi yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin.

Ko'char mol-mulk talab qilingan taqdirda, arizada ushbu mol-mulkning qiymati ko'rsatilishi lozim.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza undiruvchi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Vakil tomonidan berilayotgan arizaga uning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi kerak.

173-modda. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga ilova qilinadigan hujjatlar

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga:

1) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini;

(173-moddaning 1-bandi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-496-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son)

2) huquqiy munosabatni sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, agar bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

3) talablarga asos bo'lgan holatlarni;

4) arz qilingan talabni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Iste'mol qilingan elektr energiyasi yoki tabiiy gaz uchun qarzdorlikni undirish to'g'risida sud buyrug'ini berish haqidagi arizaga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari quyidagilarning ko'chirma nusxalari ham ilova qilinadi:

1) iste'molchi bilan tuzilgan shartnomaning;

2) penya hisoblanishi to'g'risidagi va iste'molchini tegishli energiya resurslari tarmoqlaridan uzish haqidagi ogohlantirish ko'rsatilgan, qarzni to'lash to'g'risidagi talabning, shuningdek uning iste'molchiga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjatning;

3) iste'molchi tegishli energiya resurslari tarmoqlaridan uzilganligini tasdiqlovchi hujjatning.

(173-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 28-avgustdagi O'RQ-947-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2024-y., 03/24/947/0666-son)

Ko'p kvartirali uyning joylari mulkdorlaridan majburiy badallar va to'lovlarni undirish haqida talab arz qilinganda sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga quyidagilar ham ilova qilinadi:

1) ko'p kvartirali uydagi joylar mulkdorlari umumiy yig'ilishining ko'p kvartirali uyni boshqarish usulini tanlash to'g'risidagi qarori ko'chirma nusxasi;

2) ko'p kvartirali uyni boshqarish ko'p kvartirali uyni boshqarish organi tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilgan taqdirda — ko'p kvartirali uyni boshqarish shartnomasining ko'chirma nusxasi;

3) qarz yuzaga kelgan davr ko'rsatilgan qarz hisob-kitobi;

4) qarzni uzish to'g'risidagi talabning qarzdorga topshirilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar.

(173-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-noyabrdagi O'RQ-993-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2024-y., 03/24/993/0903-son)

174-modda. Davlat boji

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizadan qonunchilikda da'vo ishini yuritish uchun belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji undiriladi.

(174-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etilgan taqdirda, undiruvchi tomonidan to'langan davlat boji qaytarib beriladi.

Sud buyrug'i bekor qilingan taqdirda undiruvchi tomonidan to'langan davlat boji qaytarib berilmaydi. Undiruvchi tomonidan qarzdorga nisbatan da'vo ishi yuritish tartibida da'vo qo'zg'atilgan taqdirda, to'langan davlat boji to'lanishi lozim bo'lgan bojga qo'shib hisoblanadi.

175-modda. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etish asoslari

Sudya sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilishni ushbu Kodeksning 194-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha rad etadi. Sudya arizani qabul qilishni quyidagi hollarda ham rad etadi, agar:

- 1) arz qilingan talab ushbu Kodeksning 171-moddasida nazarda tutilmagan bo'lsa;
- 2) qarzdor O'zbekiston Respublikasi sudlari yurisdiksiyasi doirasidan chetda bo'lsa;
- 3) huquq to'g'risida nizo mavjud deb hisoblansa.

Arizani qabul qilishni rad etish to'g'risida sudya ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida ajrim chiqaradi.

Arizani qabul qilish rad etilganligi undiruvchining shu talab bo'yicha da'vo ishini yuritish tartibida da'vo taqdim etish imkoniyatiga to'sqinlik qilmaydi.

176-modda. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qaytarish

Sudya sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani quyidagi hollarda qaytaradi, agar:

- 1) ariza ushbu Kodeksning 172-moddasida belgilangan talablarga rioya etilmagan holda berilgan bo'lsa;
- 2) ushbu Kodeksning 173-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan bo'lsa;
- 3) arz qilingan talabni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa;
- 4) davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmagan bo'lsa, davlat boji to'lashni kechiktirish mumkinligi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa bu haqda iltimosnoma mavjud bo'lmasa yoxud iltimosnoma rad etilgan bo'lsa;
- 5) sud buyrug'i berilguniga qadar undiruvchidan sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qaytarish haqida ariza kelib tushgan bo'lsa.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qaytarish haqida sudya ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay ajrim chiqaradi.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaning qaytarilishi yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin ushbu ariza bilan sudga ikkinchi marta murojaat etishga to'sqinlik qilmaydi.

177-modda. Sud buyrug'ini berish tartibi va muddati

Arz qilingan talabning mazmuni bo'yicha sud buyrug'i ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran uch kun ichida sudya tomonidan beriladi.

Sud buyrug'i sudya tomonidan undiruvchi va qarzdorni sudga chaqirmasdan, ularning tushuntirishlarini eshitmasdan yakka tartibda, sud muhokamasisiz beriladi.

Sud buyrug'i sudya tomonidan imzolanadi.

Agar belgilangan muddatda qarzdordan sudga e'tiroz kelib tushmasa, sudya undiruvchiga sudning muhri bilan tasdiqlangan buyruq ko'chirma nusxasini ijroga taqdim etish uchun beradi.

Undiruvchining iltimosiga ko‘ra sud buyrug‘i ijro etish uchun bevosita sud tomonidan yuborilishi mumkin.

Qarzdordan davlat bojini undirish uchun sudning muhri bilan tasdiqlangan sud buyrug‘ining alohida nusxasi bevosita sud tomonidan ijro etish uchun yuboriladi.

178-modda. Sud buyrug‘ining mazmuni

Sud buyrug‘ida quyidagilar ko‘rsatiladi:

1) ishning raqami va buyruq berilgan sana;

(178-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O‘RQ-716-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

2) sudning nomi, buyruq bergan sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi;

3) undiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);

4) qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili), qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan jismoniy shaxslar shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to‘lovchi identifikatsiya raqami;

(178-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O‘RQ-711-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son)

5) talabni qanoatlantirish uchun asos bo‘lgan qonun;

6) undirilishi lozim bo‘lgan pul summalarining miqdori yoki undiruv qaratilayotgan, qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta‘minoti sifatida turgan ko‘char mol-mulk, uning tavsifi va bahosi;

(178-modda birinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)

7) undirilayotgan qarzdorlik vujudga kelgan davr;

8) neustoyka miqdori, agar uning undirilishi qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa;

9) qarzdordan undirilishi kerak bo‘lgan davlat bojining summasi;

10) arz qilingan talabga qarshi qarzdor tomonidan e‘tiroz taqdim etish muddati va tartibi.

Voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to‘g‘risidagi sud buyrug‘ida ushbu moddaning 1 — 5, 9, 10-bandlarida nazarda tutilgan ma‘lumotlardan tashqari quyidagilar ko‘rsatiladi: qarzdorning tug‘ilgan sanasi va joyi, ta‘minoti uchun aliment undirilishi lozim bo‘lgan har bir bolaning ismi va tug‘ilgan sanasi, qarzdordan har oyda undiriladigan to‘lovlar miqdori hamda ularni undirish muddati.

Sud buyrug‘ining yozuvidagi xatolarni va ochiq ko‘rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish sudning tashabbusi yoxud undiruvchining yoki qarzdorning arizasi bo‘yicha ushbu buyruq qanday tartibda berilgan bo‘lsa, shunday tartibda sudning ajrimi asosida amalga oshiriladi.

179-modda. Qarzdorga sud buyrug‘ining ko‘chirma nusxasini yuborish

Sud buyrug‘i berilganidan keyin sud uning ko‘chirma nusxasini darhol qarzdorga yuboradi.

Sud buyrug‘i sudyaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

180-modda. Sud buyrug‘ining qonuniy kuchga kirishi

Sud buyrug‘i u berilgandan so‘ng o‘n kunlik muddat o‘tgach qonuniy kuchga kiradi.

181-modda. Sud buyrug‘ini bekor qilish

Qarzdor arz qilingan talabga qarshi e‘tirozlarini buyruqni bergan sudga sud buyrug‘ining ko‘chirma nusxasini olgan kundan e‘tiboran o‘n kunlik muddatda yuborishga haqli. Bunday holda

sudya sud buyrug'ini bekor qilib, bu haqda ajrim chiqaradi. Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrimda sudya undiruvchi bildirgan talab da'vo ishini yuritish tartibida taqdim etilishi mumkinligini tushuntiradi. Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi ajrim berilganidan keyin uch kundan kechiktirmay undiruvchiga va qarzdorga imzo qo'ydirib topshiriladi yoki ularga pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Alimentlar undirish to'g'risidagi sud buyrug'i ijro ishini yuritish bo'yicha undiruv tugaguniga qadar undiruvchining arizasiga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

Sud buyrug'ini bekor qilishni rad etish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

(181-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

2-kichik bo'lim. Da'vo ishini yuritish

19-bob. Umumiy qoidalar

182-modda. Sud tomonidan da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladigan ishlar

Sud tomonidan da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladigan ishlarga, agar qonunchilikda ularni ko'rishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, fuqarolik, mehnat, oilaviy, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan da'volar bo'yicha ishlar kiradi.

(182-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

183-modda. Da'vo ishini yuritishga doir ishlarni ko'rish tartibi

Da'vo ishni yuritishga doir ishlar ushbu kichik bo'limda ko'rsatilgan istisno va qo'shimchalar bilan birga fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha ko'riladi.

184-modda. Ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarni jalb qilish

Mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimlarni yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimlarni ilgari ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud mehnat shartnomasini bekor qilishga yoki boshqa ishga o'tkazishga farmoyish bergan mansabdor shaxsni uchinchi shaxs sifatida javobgar tarafida ishda ishtirok etish uchun o'z tashabbusi bilan jalb qilishi shart.

Sud mehnat shartnomasining bekor qilinishi yoki boshqa ishga o'tkazish ochiqdan-ochiq qonunni buzgan holda amalga oshirilganligini aniqlasa, shu protsessning o'zidayoq aybdor mansabdor shaxs zimmasiga majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ish bajarilgan vaqt uchun haq to'lash sababli tashkilotga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash majburiyatini yuklatadi. Bunday hollarda mansabdor shaxsdan undiriladigan summalarning miqdori mehnat to'g'risidagi qonunchilik bilan belgilanadi.

(184-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

185-modda. Nikohni bekor qilish to'g'risidagi ish bilan birga ko'rib chiqilishi mumkin bo'lmagan nizolar

Er-xotinning mol-mulkini bo'lish haqidagi talabi, agar bu nizoni to'g'ri hal etish uchun ishga uchinchi shaxslarni jalb qilish zarur bo'lsa, nikohni bekor qilish to'g'risidagi ish bilan birga ko'rilishi mumkin emas.

186-modda. Alimentlar undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha javobgarning sudga kelishi

Sud alimentlar undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha javobgarning sudga kelishini shart deb topishi mumkin. Agar bunday holda javobgar sud tomonidan uzrsiz deb topilgan sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmasa, u majburiy tartibda keltiriladi va ushbu Kodeksning 146-moddasida nazarda tutilgan tartibda jarimaga tortiladi.

187-modda. Alimentlarni hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar undirish

Alimentlar undirish to'g'risidagi ishlarni ko'rish vaqtida sud zarur bo'lgan taqdirda, ishni mazmunan hal qilguncha qadar taraflarning moddiy ahvolini hisobga olib, er (xotin) o'z xotinini (erini) boqishga qancha miqdorda vaqtincha mablag' berib turishi kerakligi, bolalarni boqish va tarbiyalashga er-xotindan qaysi biri va qancha miqdorda vaqtincha mablag' berib turishi kerakligi, shuningdek bolalardan qaysi biri ota-onalarini boqishga qancha miqdorda vaqtincha mablag' berib turishi kerakligi to'g'risida ajrim chiqarishga haqli.

Sudning ajrimi darhol ijro etiladi.

20-bob. Ish qo'zg'atish

188-modda. Ariza berish

Sudda ishlar yozma shaklda, shu jumladan pochta orqali yoki elektron hujjat tarzida ariza berish yo'li bilan qo'zg'atiladi.

189-modda. Arizaning mazmuni

Arizada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) da'vogarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, agar da'vogar tashkilot bo'lsa, uning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda rekvizitlari, shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi va manzili;
- 3) javobgarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, agar javobgar tashkilot bo'lsa, uning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda rekvizitlari;
- 4) da'vogarning talabi;
- 5) agar da'vo baholanishi kerak bo'lsa, da'voning bahosi;
- 6) da'vogar o'z talabiga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va da'vogar tomonidan bayon qilingan holatlarni tasdiqlovchi dalillar;
- 7) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;
- 8) arizaga ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Ariza da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo'lsa, arizaga ishonchnoma yoki vakilning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi kerak.

Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar tomonidan beriladigan arizada ushbu moddada sanab o'tilgan ma'lumotlardan tashqari ariza kimning manfaatini ko'zlab berilgan bo'lsa, o'sha shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi) hamda manzili ko'rsatilishi kerak.

Arizada da'vogarni yoki uning vakilining, shuningdek boshqa tarafning telefonlari va fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Arizada elektron manzili ko'rsatilganligi arizachining sud chaqiruv qog'ozlarini va boshqa xabarnomalarni, sud hal qiluv qarorlarining hamda ajrimlarining ko'chirma nusxalarini elektron hujjat tarzida olishga bo'lgan roziligidir.

190-modda. Arizaning va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalari

Ariza javobgarlarning soniga mutanosib miqdordagi ko'chirma nusxalari bilan birga sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno.

Sudya ishning murakkabligi va xususiyatiga qarab, arizaga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalarini javobgarlarning soniga mutanosib miqdorda taqdim etish majburiyatini da'vogarning zimmasiga yuklashi mumkin.

191-modda. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar

Arizaga quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi:

- 1) arz qilinayotgan talablarga asos bo'lgan holatlarni;

- 2) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etilganligini, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;
- 3) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini;
(191-moddaning 3-bandi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-496-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son)
- 4) arizani imzolash vakolatini tasdiqlovchi hujjatni, agar ariza vakil tomonidan imzolangan bo'lsa.

192-modda. Arizani ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi masalani hal etish

Sudya arizani ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi, qabul qilishni rad etish yoki qaytarish yoxud sudga taalluqliligiga ko'ra boshqa sudga o'tkazish haqidagi masalani ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay yakka tartibda hal etadi. Arizani ish yuritishga qabul qilish, qabul qilishni rad etish yoki qaytarish yoxud arizani sudga taalluqliligiga ko'ra boshqa sudga o'tkazish to'g'risida ajrim chiqariladi. Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish yoki arizani qaytarish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi ariza va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga, shuningdek arizani taalluqliligiga ko'ra boshqa sudga o'tkazish haqidagi ajrimning ko'chirma nusxasi arizachiga ajrim chiqarilgandan keyingi kundan kechiktirmay yuboriladi.

(192-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Iqtisodiy yoki ma'muriy suddan ariza yoki ish materiallari sudga taalluqliligiga ko'ra kelib tushganda sudya ariza ushbu Kodeksning 189, 190 va 191-moddalarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq emasligini aniqlagach, ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay da'vogarni (arizachini) kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi to'g'risida xabardor qiladi va unga buning uchun o'n kundan oshmaydigan muddat beradi.

(192-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-aprelda O'RQ-833-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son)

193-modda. Arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish

Sudya ushbu Kodeksda nazarda tutilgan talablarga rioya etgan holda berilgan arizani ish yuritishga qabul qilishi va ish qo'zg'atishi shart.

Sudya ushbu Kodeksda nazarda tutilgan talablarni buzgan holda berilgan arizani, agar arizaga tegishli iltimosnomalar ilova qilingan, bunday iltimosnomalarni hal qilish qonun bilan sudyaning vakolatlariga berilgan hamda bu iltimosnomalar qanoatlantirilgan bo'lsa, ish yuritishga qabul qilishga va ish qo'zg'atishga haqli.

Sudyaning ushbu Kodeksda nazarda tutilgan talablarni buzgan holda berilgan arizani ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnomani qanoatlantirish haqidagi xulosasi arizani ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda asoslantirilgan bo'lishi kerak.

194-modda. Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish

Sud arizani ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi, agar:

- 1) arz qilinayotgan talab fuqarolik ishlari bo'yicha sudga, iqtisodiy sudga yoki ma'muriy sudga taalluqli bo'lmasa;

(194-modda birinchi qismining 1-bandi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-aprelda O'RQ-833-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son)

- 2) fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki ma'muriy sudning yoxud chet davlat vakolatli sudining ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishini qabul qilish to'g'risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi ajrimi mavjud bo'lsa;

3) fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, hakamlik sudining ish yuritishida ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa;

4) ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan hakamlik sudining qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori bo'lsa, bundan fuqarolik ishlar bo'yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berishni rad etgan hollar mustasno;

5) ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan hakamlik muhokamasini tugatish to'g'risida chiqarilgan ajrim bo'lsa, bundan hakamlik sudida ushbu nizoni ko'rib chiqish vakolati mavjud emasligi sababli hakamlik muhokamasi tugatilganligi holati mustasno.

5¹) sudning ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan tuzilgan mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ajrimi mavjud bo'lsa;

(194-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O'RQ-1089-sonli Qonuniga asosan 5¹-band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son)

Sudyaning ushbu moddada nazarda tutilgan asoslar bo'yicha arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etishi sudga ikkinchi marta murojaat etishga to'sqinlik qiladi.

Agar nizoni hal etish boshqa davlat organining vakolatiga taalluqli bo'lsa, ajrimda sudya arizachi qaysi organga murojaat qilishi lozimligini ko'rsatishi shart.

(194-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O'RQ-833-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son)

Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi.

(194-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

195-modda. Arizani qaytarish

Sudya arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni quyidagi hollarda qaytaradi, agar:

1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

2) manfaatdor shaxs nomidan berilgan ariza ish yuritish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

3) ish mazkur sudning sudloviga tegishli bo'lmasa;

4) ariza ushbu Kodeksning 189-moddasida belgilangan talablarga rioya etilmagan holda berilgan bo'lsa;

4¹) da'vogar (arizachi) sudyaning ushbu Kodeks 192-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan ko'rsatmasini belgilangan muddatda bajarmagan bo'lsa;

(195-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O'RQ-833-sonli Qonuniga asosan 4¹-band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son)

5) bitta arizada bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan bir nechta talab birlashtirilgan bo'lsa, basharti bu talablar o'zaro bog'liq bo'lmasa;

6) ish yuritishga qabul qilish va ishni qo'zg'atish to'g'risida ajrim chiqarilguniga qadar arizachidan arizani qaytarish haqida ariza kelib tushgan bo'lsa;

7) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmagan bo'lsa, davlat bojini to'lashni kechiktirish mumkinligi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa bu haqda iltimosnoma mavjud bo'lmasa yoki iltimosnoma rad etilgan bo'lsa;

(195-moddaning birinchi qismi 7-bandi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-496-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son)

8) mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ariza qonunda belgilangan muddatdan oldin yoki qonunda nazarda tutilgan mol-mulkni (ashyoni) aniqlash va hisobga olish tartibi buzib berilgan bo'lsa;

9) da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa.

(195-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RO-531-sonli Qonuniga asosan 9-band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

Arizani qaytarish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi.

Arizaning qaytarilishi yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin sudga umumiy tartibda takroran murojaat qilishga to'sqinlik qilmaydi.

196-modda. Bir nechta talabni birlashtirish

Da'vogar bitta arizada o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta talabni birlashtirishga haqli.

197-modda. Sudyaning bir turdagi ishlarni birlashtirish huquqi

Sudya mazkur sudning ish yuritishida ayni bir taraflar ishtirok etayotgan bir turdagi bir nechta ish yoxud bir shaxsning turli javobgarlarga yoki bir nechta da'vogarning ayni bitta javobgarga nisbatan arizalari bo'yicha bir nechta ish mavjudligini aniqlasa, bu ishlarni birgalikda ko'rish uchun bitta ish yuritishga birlashtirishga, agar bunday birlashtirish ishning o'z vaqtida va to'g'ri hal qilinishiga olib kelsa, haqli.

Ishlarni birlashtirish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Birlashtirilgan ishlarni ko'rish muddati keyinroq qo'zg'atilgan ish bo'yicha belgilanadi.

198-modda. Bir nechta talabni alohida ish yuritishga ajratish

Agar arizani ko'rayotgan sudya talablarni ajratib ko'rishni maqsadga muvofiq deb topsa, u birlashtirilgan talablardan birini yoki bir nechtasini alohida ish yuritishga ajratishga haqli.

Bir nechta da'vogar tomonidan yoki bir nechta javobgarga nisbatan talablar taqdim etilgan taqdirda, arizani ish yuritishga qabul qilish va ishni qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilayotgan sudya, agar talablarni ajratib ko'rishni maqsadga muvofiq deb topsa, bir yoki bir nechta talabni alohida ish yuritishga ajratishga haqli.

Talablarning bir qismini alohida ish yuritishga ajratish masalasi bo'yicha ajrim chiqariladi.

Ajratilgan talab bo'yicha ish ko'rish muddati ajrim chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

199-modda. Qarshi da'vo taqdim etish

Sud tomonidan ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar javobgar dastlabki da'vo bilan birgalikda ko'rib chiqish uchun da'vogarga nisbatan qarshi da'vo taqdim etishga haqli.

Qarshi da'vo taqdim etish da'vo taqdim etish to'g'risidagi umumiy qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi.

200-modda. Qarshi da'voni qabul qilish shartlari

Sudya quyidagi hollarda qarshi da'voni qabul qilishi shart, agar:

1) qarshi da'vo dastlabki da'voni qoplashga qaratilgan bo'lsa;

2) qarshi da'voning qanoatlantirilishi dastlabki da'voning qanoatlantirilishini butunlay yoki qisman istisno etsa;

3) qarshi va dastlabki da'vo o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjud bo'lsa hamda ularni birgalikda ko'rish nizoning tezroq va to'g'ri ko'rib chiqilishiga yordam bersa.

21-bob. Fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash

201-modda. Ishlarni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalari

Sudya arizani qabul qilish va ish qoʻzgʻatish toʻgʻrisida ajrim chiqarganidan soʻng ishni oʻz vaqtida va toʻgʻri koʻrib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sud muhokamasiga tayyorlaydi.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalari quyidagilardan iborat:

tafaflarning huquqiy munosabatlarini va ishni koʻrishda amal qilinishi lozim boʻlgan qonunni aniqlash;

tafaflarning talablari va eʼtirozlarini asoslovchi faktlarni, shuningdek nizoni toʻgʻri hal etish uchun ahamiyatga ega boʻlgan boshqa faktlarni aniqlash;

ishni hal qilish uchun zarur boʻlgan dalillar doirasini aniqlash va ularning oʻz vaqtida sud majlisiga taqdim etilishini taʼminlash;

ishda ishtirok etishi mumkin boʻlgan shaxslar tarkibi toʻgʻrisidagi masalani hal qilish;

tafaflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan zarur boʻlgan dalillarni taqdim etilishi;

tafaflarni yarashtirish.

202-modda. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash muddatlari

Fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash ariza qabul qilingan va fuqarolik ishi qoʻzgʻatilgan kundan eʼtiboran oʻn kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak. Alohida hollarda, bu muddat oʻta murakkab ishlar boʻyicha sudyaning asoslantirilgan ajrimiga binoan yigirma kunga uzaytirilishi mumkin, bundan aliment undirish haqidagi, mayib boʻlganlik yoki sogʻliqqa boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi, shuningdek boquvchisining vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan zararning oʻrnini qoplash hamda mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar toʻgʻrisidagi ishlar mustasno.

203-modda. Ishni tayyorlash tartibida taraflarni soʻroq qilish

Zarur boʻlgan hollarda, ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida sudya taraflarni soʻroq qilishi mumkin.

Bunda sudya:

1) daʼvogarni oʻzi arz qilingan talablarning mohiyati boʻyicha soʻroq qiladi, undan javobgar bildirishi mumkin boʻlgan eʼtirozlarni aniqlaydi va, agar bu zarur boʻlsa, daʼvogarga qoʻshimcha dalillar taqdim etishni taklif qiladi, shuningdek arz qilingan talablaridan voz kechish huquqini hamda voz kechishning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi;

2) ishning holatlari boʻyicha javobgarni soʻroq qiladi, daʼvogarning talabiga qarshi uning qanday eʼtirozlari borligini va bu eʼtirozlar qanday dalillar bilan tasdiqlanishi mumkinligini aniqlaydi, shuningdek javobgarga daʼvogarning talablarini tan olish yoxud qarshi talablar qoʻzgʻatish huquqini tushuntiradi, alohida murakkab ishlar boʻyicha esa, javobgarga ish yuzasidan yozma tushuntirishlar taqdim etishni taklif qiladi. Javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda uning tomonidan yozma tushuntirishlar va dalillar taqdim etilmaganligi ishni ishdagi mavjud dalillar boʻyicha koʻrish uchun toʻsqinlik qilmaydi;

3) taraflardan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish ehtimolini aniqlaydi va ularning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi.

(203-modda ikkinchi qismining 3-bandi Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi OʻRQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

204-modda. Sudyaning ishni sud muhokamasiga tayyorlash boʻyicha harakatlari

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1) ishga uchinchi shaxslarning jalb etilishi yoki kirishishi toʻgʻrisidagi masalani hal qiladi va ishda ishtirok etishiga yoʻl qoʻyilgan, mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarni ushbu Kodeksning 203-moddasiga muvofiq soʻroq qiladi;

2) ishni koʻrishda vakillarning qatnashishi masalasini hal qiladi;

3) ishda prokurorning ishtirok etishi toʻgʻrisidagi va sud protsessida ishtirok etish uchun tegishli davlat boshqaruvi organini jalb etish haqidagi masalani hal qiladi;

4) sherik da'vogarlarining, sherik javobgarlar va uchinchi shaxslarning ishga kirishishi to'g'risidagi masalani hal qiladi, shuningdek ishga daxldor bo'lmagan javobgarni almashtirish haqidagi masalani hal qiladi;

5) guvohlarni sud majlisiga chaqirish to'g'risidagi masalani hal qiladi;

6) tashkilotlardan yoki fuqarolardan ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni talab qilib oladi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sudga taqdim etish uchun bu dalillarni olishga doir so'rovlar beradi;

(204-modda birinchi qismining 6-bandi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

7) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini inobatga olgan holda, ekspertiza tayinlash va mutaxassis jalb etish to'g'risidagi masalani hal qiladi;

8) kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda, joyga chiqib ko'zdan kechirishni amalga oshiradi;

9) boshqa sudlarga sud topshiriqlari yuboradi;

10) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi;

11) bir turdagi ishlarni birlashtirish va bir nechta talabni alohida ish yuritishga ajratish to'g'risidagi masalani hal qiladi;

12) da'voni va dalillarni ta'minlash masalasini hal qiladi;

13) taraflarni yarashtirish choralarini ko'radi;

14) sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish to'g'risidagi masalani hal qiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga bunday sud majlisida ishtirok etish huquqini tushuntiradi.

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida boshqa zarur protsessual harakatlarni ham amalga oshiradi.

Sudyaning ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha harakatlari sudya tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni chaqirmagan holda ajrim bilan rasmiylashtiriladi.

205-modda. Ishni sud muhokamasiga tayinlash

Sudya ish yetarli darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida muhokama qilishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi hamda taraflar va sud protsessining boshqa ishtirokchilarini ishni ko'rish vaqti va joyi haqida xabardor qilish yuzasidan choralar ko'radi.

206-modda. Sudya yordamchisining (katta yordamchisining) ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha harakatlari

Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sudyaning topshirig'iga binoan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1) sudyaga kelib tushgan arizalarni o'rganadi va ularni ko'rish yuzasidan takliflar kiritadi, sud hujjatlari loyihalarini tayyorlaydi;

2) ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalarini hal qilishda, shu jumladan ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini aniqlashda va boshqa shaxslarni jalb qilish to'g'risidagi masalani hal etishda ishtirok etadi;

3) sud protsessini tayyorlashni va o'tkazishni tashkil etishda ishtirok etadi;

4) arizalar va murojaatlar, shuningdek ko'rilishi keyinga qoldirilgan yoki ish yuritish to'xtatib turilgan ishlar o'z vaqtida ko'rilishi ta'minlanishini tashkil etadi;

5) taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilarini ishni ko'rish vaqti va joyi haqida xabardor qiladi.

Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sudyaning topshirig'iga binoan boshqa harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

22-bob. Sud muhokamasi

207-modda. Fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish muddatlari

Ishlar sud muhokamasiga tayyorlab bo‘lingan kundan e‘tiboran bir oydan kechiktirmay sud tomonidan ko‘riladi va hal qilinadi. Bu muddat o‘ta murakkab ishlar bo‘yicha sudyaning asoslantirilgan ajrimiga ko‘ra ikki oygacha uzaytirilishi mumkin, bundan ushbu moddaning **ikkinchi qismida** ko‘rsatilgan ishlar mustasno.

Aliment undirish haqidagi, mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi, shuningdek boquvchisining vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi ishlar hamda mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha ishlar sud muhokamasiga tayyorlab bo‘lingan kundan e‘tiboran yigirma kundan kechiktirmay birinchi instansiya sudi tomonidan ko‘rilishi kerak.

Qarshi da‘vo berilgan ish bo‘yicha ishni ko‘rish va hal qilish muddatining o‘tishi asosiy da‘vo bo‘yicha ish sud muhokamasiga tayyorlab bo‘lingan kundan e‘tiboran hisoblanadi.

Asosiy ishdan ajratilgan ishni, shuningdek birgalikda ko‘rish uchun bitta ish yuritishga birlashtirilgan ishlarni ko‘rish va hal qilish muddatining o‘tishi ushbu Kodeksning **197 va 198-moddalariga** muvofiq hisoblanadi.

Ushbu Kodeksda belgilangan tartibda sud ajrimi ustidan shikoyat qilingan (protest keltirilgan) taqdirda, ishni ko‘rish va hal etish muddatining o‘tishi ish yuqori instansiya sudiga yuborilgan paytdan e‘tiboran to u birinchi instansiya sudining ish yurituviga kelib tushguniga qadar to‘xtatiladi.

208-modda. Sud majlisi

Ish muhokamasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarni albatta xabardor qilgan holda sudning ochiq majlisida o‘tadi.

Yopiq sud majlislari qonunda nazarda tutilgan hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talabiga yoki sudning tashabbusiga ko‘ra o‘tkaziladi.

Ochiq sud majlislari videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilishi mumkin. Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan sudning videokonferensaloqa rejimidagi majlisida bevosita ishtirok etish og‘zaki shaklda o‘tkaziladigan sud majlisida ishtirok etishga tenglashtiriladi.

Sudning tashabbusiga ko‘ra yoki sud protsessi ishtirokchilarining iltimosnomasi bilan sud majlisining audio- yoki videoyozuvi olib borilishi mumkin.

Sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish zarur bo‘lgan taqdirda, shuningdek sud majlisida audio- yoki videoyozuvi vositalaridan foydalanilganda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni va sud protsessining boshqa ishtirokchilarini bu haqda ogohlantiradi.

Sud protsessi ishtirokchilari va sud majlisi zalida hozir bo‘lganlar yozma qaydlar qilish huquqiga ega. Sud majlisini fototasvirga tushirish, audio- va videoyozuvini amalga oshirish, shuningdek ommaviy axborot vositalarida translyatsiya qilinishiga taraflarning roziligi va sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi.

(208-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-536-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019-y., 03/19/536/3114-son)

Ishni yopiq sud majlisida muhokama qilish to‘g‘risida ajrim chiqarilganda yopiq sud majlisida ishtirok etayotgan shaxslar sud muhokamasi ma‘lumotlarini hamda tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilmaslik to‘g‘risida ogohlantirilib, ulardan tilxat olinadi. Tilxatda mazkur majburiyatni buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **239-moddasiga** muvofiq javobgarlik haqidagi ogohlantirish ham aks ettiriladi.

(208-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-sentabrdagi O‘RQ-1084-sonli Qonuniga asosan yettinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son)

209-modda. Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etish

Sudlarda videokonferensaloqani amalga oshirishning texnik imkoniyati bo‘lgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar sudning videokonferensaloqa rejimidagi majlisida bu haqda o‘zlari iltimosnoma berganda yoki sudning tashabbusiga ko‘ra ishtirok etishi mumkin. Ko‘rsatilgan shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishi to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi, ajrimning ko‘chirma nusxasi

ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga va o‘z ko‘magida ushbu shaxslar bunday majlisda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tegishli sudga yuboriladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta‘minlash uchun ko‘rsatilgan shaxslarning yashash joyi, joylashgan yeri yoki turgan joyi bo‘yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan yoxud ishni ko‘rayotgan sudning mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalaniladi.

(209-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-martdagi O‘RQ-1047-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.03.2025-y., 03/25/1047/0233-son)

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta‘minlayotgan sud ushbu shaxslarning kelgan-kelmaganligini tekshiradi va kelgan shaxslarning shaxsini aniqlaydi. Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etayotgan shaxslarning shaxsi ishni ko‘rayotgan sud tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda aniqlanadi.

(209-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-martdagi O‘RQ-1047-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.03.2025-y., 03/25/1047/0233-son)

Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etayotgan guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga, tarjimonlarga o‘z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi, shuningdek guvohning qasamyodi audio- va videoyozuv orqali qayd etiladi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko‘rsatiladi.

(209-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-martdagi O‘RQ-1047-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.03.2025-y., 03/25/1047/0233-son)

210-modda. Sud majlisini ochish

Ishni muhokama qilish uchun tayinlangan vaqtda sudya majlis zaliga kiradi, sud majlisini ochadi va qaysi ish ko‘rilishi lozimligini e‘lon qiladi.

211-modda. Sud majlisida raislik qiluvchi

Sud majlisida shu sudning raisi, uning o‘rinbosari yoki sudya raislik qiladi.

Sud majlisida raislik qiluvchi (bundan buyon matnda raislik qiluvchi deb yuritiladi) sud majlisini boshqarib, ishning barcha holatlari, taraflarning huquq va majburiyatlari to‘liq, har tomonlama va xolisona aniqlanishini, sud protsessining tarbiyaviy ta‘sirini ta‘minlaydi, ko‘rilayotgan ishga aloqasi bo‘lmagan hamma narsani sud muhokamasidan chetlatadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslardan, guvohlardan, ekspertlardan, mutaxassislardan, tarjimonlardan birortasi raislik qiluvchining xatti-harakatlariga e‘tiroz bildirgan taqdirda, bu e‘tirozlar sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi va masala sud tomonidan hal qilinadi.

Raislik qiluvchi sud majlisida tegishli tartibni ta‘minlash uchun zarur choralar ko‘radi.

212-modda. Sud majlisi zalidagi tartib

Sudyalar majlis zaliga kirib kelganida va undan chiqib ketayotganida zalda hozir bo‘lganlarning barchasi o‘rnidan turadi.

O‘n olti yoshga to‘lmagan fuqarolar, agar ular ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki guvohlar bo‘lmasa, sud majlisi zaliga qo‘yilmaydi.

Sud jarayoni ishtirokchilari sudga “Hurmatli sud!” degan so‘zlar bilan murojaat qiladi. Ular sudga o‘z tushuntirishlari va ko‘rsatuvlarini, savollarga javoblarini tik turib beradi. Bu qoidadan chetga chiqishga faqat raislik qiluvchining ruxsati bilan yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, shuningdek sud majlisi zalida hozir bo‘lgan barcha fuqarolar sud majlisida belgilangan tartibga rioya etishi va raislik qiluvchining farmoyishlariga so‘zsiz bo‘ysunishi shart.

Alohida xonada (maslahatxonada) qabul qilingan sud hujjatini sud majlisi zalida hozir bo‘lganlarning barchasi tik turib eshitadi.

213-modda. Sud protsessi ishtirokchilarining kelgan-kelmaganligini tekshirish

Sud majlisining kotibi mazkur ish bo'yicha chaqirilganlardan kimlar kelganligini, kelmaganlarga sudning chaqiruv qog'ozlari yoki boshqa xabarnomalar topshirilgan-topshirilmaganligini (yetkazib berilganligini) va ularning kelmaganligi sabablari to'g'risida qanday ma'lumotlar borligini sudga ma'lum qiladi.

Sud kelganlarning shaxsini aniqlaydi, shuningdek mansabdor shaxslar va vakillarning vakolatini tekshiradi.

214-modda. Tarjimonga uning vazifalarini tushuntirish

Raislik qiluvchi tarjimonga uning vazifasi sud ishi yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning tushuntirishlarini, ko'rsatuvlarini, arzlari, tilni bilmaydigan shaxslarga esa tushuntirishlarning, ko'rsatuvlarning, arzlarning, o'qib eshittiriladigan hujjatlarning mazmunini, shuningdek raislik qiluvchining farmoyishlarini, ish bo'yicha sudning hal qiluv qarori va ajrimini tarjima qilib berishdan iborat ekanligini tushuntiradi.

Raislik qiluvchi tarjimonni bila turib yolg'on tarjima qilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining [238-moddasiga](#) muvofiq javobgar bo'lishi to'g'risida ogohlantiradi.

215-modda. Guvohlarni sud majlisi zalidan chiqarib yuborish

Guvohlarning kelgan-kelmaganligi tekshirilgach, ular sud majlisi zalidan chiqarib yuboriladi. Raislik qiluvchi sud tomonidan so'roq qilingan guvohlar so'roq qilinmagan guvohlar bilan muomalada bo'lmasligi uchun choralar ko'radi.

216-modda. Sud tarkibini e'lon qilish va rad qilish huquqini tushuntirish

Raislik qiluvchi sudning tarkibini e'lon qiladi, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisining kotibi sifatida kimlar ishtirok etayotganligini ma'lum qiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning rad qilish to'g'risida ariza berish huquqini tushuntiradi.

217-modda. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish

Raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Bu haqda sud majlisining bayonnomasida ko'rsatiladi.

218-modda. Ekspert hamda mutaxassisga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish

Raislik qiluvchi ekspert hamda mutaxassisga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, ekspertni bila turib yolg'on xulosa berganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining [238-moddasiga](#) muvofiq javobgar bo'lishi to'g'risida ogohlantiradi.

219-modda. Sudning ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomalarini hal qilishi

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yangi dalillarni talab qilib olish to'g'risidagi va ishni muhokama qilish bilan bog'liq boshqa barcha masalalar bo'yicha iltimosnomalari ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning fikr-mulohazalari eshitilganidan keyin sudning ajrimi bilan hal qilinadi.

220-modda. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud majlisiga kelmaganligi oqibatlari

Ishda ishtirok etuvchi shaxslardan birortasi sud majlisiga kelmagan taqdirda, ularga sudning chaqiruv qog'ozi yoki boshqa xabarnomalar topshirilganligi (yetkazib berilganligi) to'g'risidagi ma'lumot mavjud bo'lmasa, sud ish muhokamasini keyinga qoldiradi.

Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan bo'lib, sud uzrli deb topgan sabablarga ko'ra kelmagan bo'lsa, sud ish muhokamasini keyinga qoldiradi.

Taraflar kelmaslik sabablari to'g'risida sudni xabardor qilishi va bu sabablarning uzrliligiga dalillar taqdim etishi shart. Agar javobgarining kelmaganligi sabablari to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmasa yoki sud kelmaganlik sabablarini uzrsiz deb topsa yoxud javobgar ish yuritilishini qasddan cho'zayotgan bo'lsa, sud ishni ko'rishga haqli.

Taraflar ishni o'zining ishtirokisiz ko'rishni va o'zlariga sud hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasini yuborishni iltimos qilishga haqli. Agar ishning holatlari bo'yicha zarur bo'lsa, sud taraflarning sud majlisida ishtirok etishini shart deb topishi mumkin.

Sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxs vakilining kelmaganligi ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Prokuror yoki advokatning uzrsiz sabablarga bilan kelmaganligi to'g'risida sud xususiy ajrim chiqaradi, bu haqda tegishincha yuqori turuvchi prokurorga yoki O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga ma'lum qiladi.

221-modda. Taraflar sud majlisiga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligining oqibatlari

Taraflar uzrsiz sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmagan taqdirda, agar ularning bittasidan ham ishni o'zining ishtirokisiz muhokama qilish to'g'risida ariza tushmagan bo'lsa, sud ish muhokamasini keyinga qoldiradi.

Taraflar ikkinchi chaqiruv bo'yicha uzrsiz sabablarga ko'ra kelmasa, sud arizani ko'rmasdan qoldirishga haqli.

Faqat da'vogar ikkinchi chaqiruv bo'yicha uzrsiz sabablarga ko'ra kelmasa, sud javobgarning roziligi bilan arizani ko'rmasdan qoldirishga haqli.

222-modda. Guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimonning sud majlisiga kelmaganligi oqibatlari

Guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon sud majlisiga kelmagan taqdirda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishni kelmagan guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon yo'qligida ko'rish mumkinligi to'g'risidagi fikrlarini eshitadi va sud muhokamasini davom ettirish yoki ish muhokamasini keyinga qoldirish haqida ajrim chiqaradi. Agar chaqirilgan guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmasa, ularga nisbatan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan protsessual majburlor choralari qo'llanilishi mumkin. Agar chaqirilgan guvoh ikkinchi chaqiruv bo'yicha sud majlisiga kelmasa, u sudning ajrimiga binoan majburiy tartibda keltirilishi mumkin.

223-modda. Ish muhokamasini keyinga qoldirish

Sud ish muhokamasini quyidagi hollarda keyinga qoldirishi mumkin:

- 1) tartib fuqarolar tomonidan ommaviy tarzda buzilganda;
- 2) raislik qiluvchi tomonidan ogohlantirilganidan so'ng prokuror yoki advokat uning farmoyishlariga bo'ysunmaganida;
- 3) taraflar (uchinchi shaxslar) tomonidan sud majlisidagi tartib buzilganda;
- 4) o'ziga sud chaqiruv qog'ozi yoki boshqa xabarnomalar topshirilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmagan ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biror-biri sud majlisiga kelmaganda;
- 5) tegishli tarzda xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biror-biri sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmaganda;
- 6) tegishli tarzda xabardor qilingan taraflar sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmaganda, agar ulardan birortasidan ham sud muhokamasi ularning ishtirokisiz o'tkazilishi to'g'risida ariza kelib tushmagan bo'lsa;
- 7) sud majlisiga guvoh, tarjimon, ekspert yoki mutaxassis kelmaganda, agar ularning ishtirokisiz ishni ko'rish imkoni bo'lmasa;
- 8) da'vogar ishni javobgarning ishtirokisiz ko'rishga rozi bo'lmaganda;
- 9) qarshi da'vo taqdim etilganda;
- 10) sud majlisi yuritishda texnik vositalaridan, shu jumladan videokonferensaloqa tizimidan foydalanilganda texnik nosozliklar kelib chiqqanda;
- 11) qo'shimcha dalillar taqdim etish yoki talab qilib olish zarur bo'lganda;
- 12) ishda ishtirok etish uchun boshqa shaxslar jalb qilinganda yoki boshqa protsessual harakatlar amalga oshirilganda.

Sud ishni sud majlisida ko‘rish imkoni bo‘lmagan boshqa hollarda ham muhokamani keyinga qoldirishi mumkin.

Sud muhokamasi uni keyinga qoldirish uchun asos bo‘lgan holatlarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan muddatga, sud muhokamasining ushbu Kodeksda nazarda tutilgan muddati doirasida keyinga qoldirilishi mumkin.

Sud ish muhokamasini keyinga qoldirganda, keyingi sud majlisining vaqtini belgilaydi, bu haqda hozir bo‘lgan shaxslarga imzo qo‘ydirgan holda e‘lon qiladi. Sudga kelmagan va sud protsessida ishtirok etish uchun yangidan jalb qilinadigan shaxslar keyingi sud majlisining vaqti to‘g‘risida ushbu Kodeksning **16-bobida** nazarda tutilgan tartibda xabardor qilinadi.

Keyinga qoldirilgan ishni ko‘rish qolgan joyidan davom ettiriladi. Biroq, agar ish ushbu Kodeksning **39-moddasida** sanab o‘tilgan yangi shaxslarni jalb qilish sababli keyinga qoldirilgan bo‘lsa, ish muhokamasi boshidan boshlanadi.

224-modda. Ish muhokamasi keyinga qoldirilganida guvohlarni so‘roq qilish

Ish muhokamasi keyinga qoldirilgan taqdirda, agar sud majlisida ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar hozir bo‘lsa va guvohlarning ikkinchi marta kelishi qiyin bo‘lsa, sud kelgan guvohlarni so‘roq qilishi mumkin. Ushbu guvohlarni keyingi sud majlisiga takroran chaqirish faqat zarur hollardagina amalga oshiriladi.

225-modda. Ishni mazmunan ko‘rishning boshlanishi

Ishni mazmunan ko‘rish raislik qiluvchining ish to‘g‘risidagi ma‘ruzasidan boshlanadi. So‘ngra raislik qiluvchi da‘vogardan o‘z talablarini quvvatlash-quvvatlamasligini, javobgardan da‘vogarning talablarini tan olish-olmasligini va taraflarning ishni kelishuv bitimi bilan tamomlashni istash-istamasligini so‘raydi.

226-modda. Da‘vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi, javobgarning da‘vogar talablarini tan olishi, taraflarning kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuvi

(226-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O‘RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

Da‘vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligi, javobgarning da‘vogar talablarini tan olganligi yoki taraflarning kelishuv bitimi shartlari sud nomiga yo‘llangan, ishga qo‘shib qo‘yiladigan yozma arizalarida ifoda etilgan bo‘lishi lozim bo‘lib, bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko‘rsatiladi.

Mediativ kelishuv sudga alohida hujjat tarzida taqdim etiladi va ishga qo‘shib qo‘yiladi, bu haqda sud majlisining bayonnomasida ko‘rsatiladi.

(226-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O‘RQ-531-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

Da‘vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilishdan yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin sud da‘vogarga yoki taraflarga tegishli protsessual harakatlarni amalga oshirish oqibatlarini tushuntiradi.

Da‘vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilish to‘g‘risida yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash haqida sud ajrim chiqaradi, bir vaqtning o‘zida ushbu ajrim bilan ish yuritishni tugatadi.

Arz qilingan talablar javobgar tomonidan tan olingan va bu sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, ularni qanoatlantirish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqariladi.

Sud tomonidan javobgarning arz qilingan talablarni tan olishi qabul qilinmagan yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash rad qilingan taqdirda, sud bu haqda ajrim chiqaradi va ishni mazmunan ko‘radi.

227-modda. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari

Ish to‘g‘risida ma‘ruza qilinganidan so‘ng sud da‘vogar va uning tarafida ishtirok etayotgan uchinchi shaxsning, javobgar va uning tarafida ishtirok etayotgan uchinchi shaxsning, shuningdek ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini eshitadi.

Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ariza bergan prokuror, shuningdek boshqa shaxslar arz qilgan talablari bo‘yicha tushuntirishlar berish yoki ularni asoslash uchun birinchi bo‘lib so‘zga chiqadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bir-biriga savollar berishga haqli.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yozma tushuntirishlari va ushbu Kodeksning 76, 83, 103 va 104-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan olingan tushuntirishlar o‘qib eshittiriladi.

228-modda. Dalillarni tekshirish tartibini belgilash

Sud taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini eshitib, guvohlarni, ekspertlarni, mutaxassislarni so‘roq qilish hamda boshqa dalillarni tekshirish tartibini belgilaydi.

229-modda. Guvohni so‘roq qilish tartibi

Har bir guvoh alohida so‘roq qilinadi.

So‘roq qilinmagan guvohlar ishni muhokama qilish vaqtida sud majlisi zalida bo‘lishi mumkin emas.

Raislik qiluvchi guvohni so‘roq qilishdan oldin uning shaxsini, yoshini, mashg‘uloti turini, ushbu ishga aloqasini hamda taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarini aniqlaydi, shuningdek uni bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq javobgar bo‘lishi to‘g‘risida ogohlantiradi. Shundan keyin raislik qiluvchi guvohga: “Ish yuzasidan o‘zimga ma‘lum bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni sudga aytib berishga qasamyod qilaman. Faqat haqiqatni, barcha haqiqatni gapirib beraman, haqiqatdan o‘zga narsani gapirmayman” deb oshkora qasamyod qilishni taklif etadi.

Guvohdan unga o‘z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi to‘g‘risida tilxat olinadi. Qasamyodning matni va tilxat sud majlisi bayonnomasiga qo‘shib qo‘yiladi.

Raislik qiluvchi guvohga ish bo‘yicha shaxsan o‘zi bilgan barcha ma‘lumotlarni sudga aytib berishni taklif qiladi. Shundan so‘ng guvohga savollar berilishi mumkin.

Guvoh kimning arizasi bo‘yicha chaqirilgan bo‘lsa, shu shaxs va uning vakili birinchi bo‘lib, keyin esa ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar guvohga savollar beradi. Sudning tashabbusi bilan chaqirilgan guvohga savollarni birinchi bo‘lib davogar beradi.

Sudya (sudyalar) guvohga u so‘roq qilinayotganida istalgan vaqtda savol berishga haqlidir.

So‘roq qilingan guvohlar ishning muhokamasi tamom bo‘lguniga qadar sud majlisi zalida qolishi kerak. Sud so‘roq qilingan guvohlar ishning muhokamasi tamom bo‘lmasidan oldin sud majlisi zalidan chiqib ketishiga taraflarning roziligi bilan ruxsat berishi mumkin.

Zarur bo‘lgan taqdirda sud guvohni o‘sha majlisning o‘zida yoki kelgusi majlisda takroran so‘roq qilishi, shuningdek guvohlarning ko‘rsatuvlaridagi ziddiyatlarni aniqlash uchun ularni yuzlashtirishi mumkin.

230-modda. Guvohning yozma xotiralardan foydalanish huquqi

Guvoh ko‘rsatuv berishda uning ko‘rsatuvlari biror-bir hisoblar yoki xotirada saqlab qolish qiyin boshqa ma‘lumotlar bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda yozma xotiralardan foydalanishi mumkin. Bu yozma xotiralar sudga va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ko‘rsatiladi hamda sudning ajrimi bilan ishga qo‘shib qo‘yilishi mumkin.

231-modda. O‘n olti yoshga to‘lmagan guvohni so‘roq qilish tartibi

Raislik qiluvchi o‘n olti yoshga to‘lmagan guvohlarga ish bo‘yicha o‘zlari bilgan barcha ma‘lumotlarni ro‘y-rost aytib berishi shart ekanligini tushuntiradi, biroq ular bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilmaydi.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan guvohlarni so‘roq qilishda, sud lozim topgan taqdirda esa o‘n to‘rt yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan guvohlarni so‘roq qilishda ham mutaxassis (pedagog) va, zarur bo‘lgan taqdirda, ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, ularning vasiylari va

homiylari chaqiriladi. Mazkur shaxslar raislik qiluvchining ruxsati bilan guvohga savollar berishi mumkin.

Alohida hollarda, o‘n olti yoshga to‘lmagan guvohni so‘roq qilish vaqtiga ishda ishtirok etuvchi u yoki bu shaxs sudning ajrimi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin. Bu shaxs majlis zaliga qaytib kirganidan keyin unga voyaga yetmagan guvohning ko‘rsatuvlari o‘qib eshittirilishi va guvohga savollar berish imkoniyati taqdim etilishi kerak.

O‘n olti yoshga to‘lmagan guvoh so‘roq qilib bo‘lingach, sud majlisi zalidan chiqarib yuboriladi, bundan sud bu guvohning majlis zalida bo‘lishini zarur deb topgan hollar mustasno.

232-modda. Guvohlarning ko‘rsatuvlarini o‘qib eshittirish

Sud tomonidan ushbu Kodeksning 76, 83, 103 va 104-moddalarida nazarda tutilgan tartibda guvohlardan olingan ko‘rsatuvlar sud majlisida o‘qib eshittiriladi.

233-modda. Yozma dalillarni tekshirish

Yozma dalillar yoki ushbu Kodeksning 76, 83, 103 va 104-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tuzilgan ularni ko‘zdan kechirish bayonnomalari sud majlisida o‘qib eshittiriladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, zarur hollarda esa, ekspertlar, mutaxassislar hamda guvohlarga tanishish uchun taqdim etiladi. Shundan so‘ng ishda ishtirok etuvchi shaxslar ushbu dalillar yuzasidan tushuntirishlar berishi mumkin.

233¹-modda. Raqamli dalillarni tekshirish

Raqamli dalillar yoki ushbu Kodeksning 76, 83, 103 va 104-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tuzilgan ularni ko‘zdan kechirish bayonnomalari sud majlisida namoyish etiladi yoki o‘qib eshittiriladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, zarur bo‘lgan hollarda esa ekspertlarga, mutaxassislarga xamda guvohlarga tanishish uchun taqdim etiladi. Shundan keyin ishda ishtirok etuvchi shaxslar ushbu dalillar yuzasidan tushuntirishlar berishi mumkin.

(233¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

234-modda. Fuqarolarning shaxsiy yozishmalarini, telegraf xabarlari va boshqa xabarlarini o‘qib eshittirish

Fuqarolarning yozishmalari, telegraf xabarlari va boshqa xabarlar sir saqlash maqsadida ularning shaxsiy yozishmalari, telegraf xabarlari va boshqa xabarlari shu yozishma, telegraf xabarlari va boshqa xabarlarini o‘zaro almashgan shaxslarning roziligi bilan ochiq sud majlisida o‘qib eshittirilishi mumkin. Aks holda bunday yozishma, telegraf xabarlari va boshqa xabarlar yopiq sud majlisida o‘qib eshittiriladi hamda tekshiriladi.

235-modda. Hujjatning qalbakiligi to‘g‘risida arz qilish

Ishda mavjud bo‘lgan hujjat qalbaki ekanligi to‘g‘risida arz qilingan taqdirda, bu hujjatni taqdim etgan shaxs uni dalillar qatoridan chiqarishni va ishni boshqa dalillar asosida hal qilishni suddan iltimos qilishi mumkin.

Agar hujjatni taqdim etgan shaxs bunday arz bilan murojaat qilmasa yoki hujjat sudning o‘z tashabbusi bilan talab qilib olingan bo‘lsa, hujjatning qalbakiligi to‘g‘risida arz qilgan shaxs o‘z da’vosini isbotlashi shart.

236-modda. Hujjatning qalbakiligi to‘g‘risidagi arizani tekshirish

Hujjatning qalbakiligi to‘g‘risidagi arizani tekshirish uchun sud ekspertiza tayinlashi yoki boshqa dalillar talab qilishi mumkin.

Agar sud hujjat qalbaki degan xulosaga kelsa, uni dalillar qatoridan chiqaradi. Zarur hollarda, sud materiallarni prokurorga yuboradi.

237-modda. Ashyoviy dalillarni tekshirish

Ashyoviy dalillar sud tomonidan ko‘zdan kechiriladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, zarur hollarda esa ekspertlar, mutaxassislar va guvohlarga ham taqdim etiladi.

O'ziga ashyoviy dalillar taqdim etilgan shaxslar ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu holatlarga sudning e'tiborini qaratishi mumkin. Bunday arzlar sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi.

Ushbu Kodeksning 76, 93, 103, 104 va 239-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tuzilgan ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish bayonnomalari sud majlisida o'qib eshittiriladi, shundan keyin ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'z tushuntirishlarini berishi mumkin.

238-modda. Audio yoki videoyozuvni qayta namoyish qilish va ularni tekshirish

Xususiylar tusga ega bo'lgan audio- yoki videoyozuvni qayta namoyish qilish, shuningdek ularni tekshirish chog'ida ushbu moddaning qoidalari qo'llaniladi.

Audio- yoki videoyozuvni qayta namoyish qilish sud majlisi zalida yoki shu maqsad uchun maxsus jihozlangan boshqa xonada, sud majlisi bayonnomasida dalillarning qayta namoyish qilish manbalari belgilari va qayta namoyish qilish vaqti ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi. Shundan keyin sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, ular vakillarining tushuntirishlarini eshitadi.

Zarur bo'lgan hollarda, audio yoki videoyozuvni qayta namoyish qilish to'liq yoki qisman takrorlanishi mumkin.

Audio- yoki videoyozuvdagi mavjud ma'lumotlarni aniqlash maqsadida sud tomonidan mutaxassis jalb etilishi, shuningdek ekspertiza tayinlanishi mumkin.

239-modda. Dalillarni joyida ko'zdan kechirish

Sudga olib kelish mumkin bo'lmagan ashyoviy, yozma va raqamli dalillar turgan joyida ko'zdan kechiriladi va tekshiriladi. Ko'zdan kechirishni joyida o'tkazish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

(239-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

Dalillarni joyida ko'zdan kechirish sudning butun tarkibi tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan, zarur hollarda esa ekspertlar, mutaxassislar va guvohlarni chaqirgan holda amalga oshiriladi.

Raislik qiluvchi ko'zdan kechirish joyiga yetib borgach, sud muhokamasi davom ettirilishi to'g'risida e'lon qiladi, sud muhokamasi ushbu Kodeksda belgilangan qoidalar bo'yicha olib boriladi. Ko'zdan kechirish natijalari sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi. Bayonnomaga ko'zdan kechirish paytida tuzilgan yoki tekshirilgan barcha rejalar, chizmalar, suratlar, hisob-kitoblar, hujjatlarning ko'zdan kechirish vaqtida olingan ko'chirma nusxalari, ashyoviy, yozma va raqamli dalillarning videoyozuvlari, fotosuratlar, shuningdek ekspert xulosasi va mutaxassis maslahati ilova qilinishi mumkin.

(239-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

240-modda. Ekspertni so'roq qilish

Ekspertning xulosasi sud majlisida o'qib eshittiriladi, shundan keyin xulosani tushuntirish va to'ldirish maqsadida ekspertga savollar berilishi mumkin.

Ekspertiza kimning arizasi bo'yicha tayinlangan bo'lsa, o'sha shaxs va uning vakili birinchi bo'lib, keyin esa ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar savollar beradi.

Sudning tashabbusi bilan tayinlangan ekspertga birinchi bo'lib da'vogar savollar beradi.

Sudya (sudyalar) ekspert so'roq qilayotganida unga istalgan vaqtda savollar berishga haqli.

241-modda. Mutaxassisni so'roq qilish

Mutaxassis tomonidan berilgan maslahatni (tushuntirishni) oydinlashtirish va to'ldirish maqsadida sud majlisida unga savollar beriladi.

Mutaxassis kimning arizasi bo'yicha chaqirilgan bo'lsa, o'sha shaxs va uning vakili birinchi bo'lib, keyin esa ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar savollar beradi.

Sudning tashabbusi bilan chaqirilgan mutaxassisga birinchi bo'lib da'vogar savollar beradi.

Sudya (sudyalar) mutaxassis so'roq qilinayotganida unga istalgan vaqtda savollar berishga haqli.

242-modda. Davlat boshqaruvi organlarining xulosalari

Sud tomonidan sud protsessida ishtirok etish uchun jalb qilingan yoki o'z tashabbusi bilan protsessga kirishgan davlat boshqaruvi organlarining xulosalari sud majlisida o'qib eshittiriladi, shundan keyin xulosalarni oydinlashtirish va to'ldirish maqsadida sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar mazkur organlarning vakillariga savollar berishi mumkin.

243-modda. Ishni mazmunan muhokama qilishni tamomlash

Ish bo'yicha to'plangan barcha dalillar tekshirib bo'linganidan keyin raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslardan ularda ish materiallarini biror narsa bilan to'ldirish istagi bor-yo'qligini so'raydi. Bunday arzlar bo'lmagan taqdirda, raislik qiluvchi ishni mazmunan muhokama qilish tamom bo'lganligini e'lon qiladi va sud sudning muzokalarini eshishga o'tadi.

244-modda. Sud muzokaralari

Sud muzokaralari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nutqlaridan iborat bo'ladi.

Sud muzokaralari ishtirokchilari o'z chiqishlarida sud tomonidan aniqlamagan holatlarga, shuningdek sud majlisida tekshirilmagan dalillarga asoslanishga haqli emas.

Dastlab da'vogar va uning vakili, keyin javobgar hamda uning vakili so'zga chiqadi. Boshlangan sud protsessida nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilgan uchinchi shaxs va uning vakili taraflardan keyin so'zga chiqadi. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bildirmagan uchinchi shaxs va uning vakili uchinchi shaxs ishda qaysi da'vogarning yoki javobgarning tarafida ishtirok etayotgan bo'lsa, shu da'vogardan yoxud javobgardan keyin so'zga chiqadi.

Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan prokuror, shuningdek davlat boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning vakillari yoki ayrim fuqarolar sud muzokalarida birinchi bo'lib so'zga chiqadi.

Sud tomonidan sud protsessida ishtirok qilishga jalb etilgan yoki protsessga o'z tashabbusi bilan kirishgan davlat boshqaruvi organlarining vakillari sud muzokalarida taraflar va uchinchi shaxslardan keyin so'zga chiqadi.

Sud muzokaralari ishtirokchilari bir-birlariga luqma tashlashi mumkin. Oxirgi luqma huquqi doimo javobgar va uning vakiliga tegishli bo'ladi.

245-modda. Prokuror fikri

Ishda ishtirok etuvchi prokuror sud muzokalaridan keyin nizoning mohiyati bo'yicha o'z fikrini bayon etadi, bundan prokurorning boshqa shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergan arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar mustasno.

246-modda. Ishni mazmunan muhokama qilishni tiklash

Sud muzokalarini eshitgach, sud ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan yangi holatlarni aniqlash yoki yangi dalillarni tekshirishni zarur deb topsa, u ishni mazmunan muhokama qilishni tiklash to'g'risida ajrim chiqaradi. Ishni mazmunan muhokama qilish tamom bo'lganidan keyin sud muzokaralari umumiy tartibda o'tkaziladi.

247-modda. Hal qiluv qarorini qabul qilish uchun sudning alohida xonaga (maslahatxonaga) kirishi

Sud muzokalarini eshitganidan keyin sud hal qiluv qarorini qabul qilish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqib ketadi, bu haqda raislik qiluvchi sud majlisi zalida hozir bo'lganlarga e'lon qiladi.

248-modda. Sudning hal qiluv qarorini o'qib eshittirish

Sud hal qiluv qarori imzolanganidan keyin sud majlisi zaliga qaytib kiradi, bu yerda sudning hal qiluv qarorini raislik qiluvchi o'qib eshittiradi. Raislik qiluvchi sud majlisining

bayonnomasi bilan tanishish va hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish tartibi va muddatini tushuntiradi hamda ushbu ish bo'yicha sud majlisini yopiq deb e'lon qiladi.

23-bob. Sudning hal qiluv qarori

249-modda. Hal qiluv qarorini qabul qilish

Sud ishni mazmunan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hal qiluv qarorini qabul qiladi.

Sud hal qiluv qarorini O'zbekiston Respublikasi nomidan qabul qiladi.

Sudning hal qiluv qarori qonuniy, asoslantirilgan va adolatli bo'lishi kerak. U faqat sud majlisida tekshirilgan dalillarga asoslangan bo'lishi kerak.

(249-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

Sudning hal qiluv qarori ishning sud muhokamasi tugaganidan keyin darhol qabul qilinadi.

Alohida hollarda, o'ta murakkab ishlar yuzasidan asoslantirilgan hal qiluv qarorini tayyorlash ko'pi bilan besh kunga kechiktirilishi mumkin, ammo hal qiluv qarorining xulosa qismini sud ishning muhokamasi tugallangan majlisning o'zidayoq e'lon qilishi kerak. Ayni vaqtda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar asoslantirilgan hal qiluv qarori bilan qachon tanishib chiqishi mumkinligini e'lon qiladi. Hal qiluv qarorining e'lon qilingan xulosa qismi sudya tomonidan imzolanadi va ishga qo'shib qo'yiladi.

250-modda. Hal qiluv qarori qabul qilinishing sir tutilishi

Hal qiluv qarori sudya tomonidan alohida xonada (maslahatxonada) qabul qilinadi. Hal qiluv qarorini qabul qilish vaqtida boshqa shaxslarning hozir bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

251-modda. Hal qiluv qarorini qabul qilishda yechiladigan masalalar

Sud hal qiluv qarorini qabul qilayotganida dalillarga baho beradi, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qanday holatlar aniqlanganligini va qandaylari aniqlanmaganligini, bu ish bo'yicha qanday qonun yoki boshqa qonunchilik hujjati qo'llanilishi kerakligini hamda arz qilingan talab qanoatlantirilishi lozimligini yoki lozim emasligini aniqlaydi.

(251-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sud, shuningdek sud xarajatlarini ham taqsimlaydi, hal qiluv qarorini ijro etish muddati va tartibini belgilaydi, boshqa qo'shimcha masalalarni hal qiladi.

Agar ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan yangi holatlarni aniqlash yoki yangi dalillarni tekshirish zarur bo'lib qolsa, sud hal qiluv qarorini qabul qilmasdan, sud muhokamasini tiklaydi, bu haqda ajrim chiqaradi. Bunday holda sud muhokamasi faqat qo'shimcha tekshirish ehtiyoji bo'lgan holatlar doirasida olib boriladi.

252-modda. Hal qiluv qarorini bayon qilish

Sudning hal qiluv qarori ishni ko'rib chiqqan sudning majlisida raislik qiluvchi tomonidan yozma shaklda bayon etiladi va u tomonidan imzolanadi.

Sudning hal qiluv qarori bir nusxada tuziladi va ish materiallariga qo'shib qo'yiladi.

253-modda. Hal qiluv qarorining mazmuni

Sudning hal qiluv qarori kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Hal qiluv qarorining kirish qismida ish raqami, hal qiluv qarori qabul qilingan vaqt va joy, hal qiluv qarorini qabul qilgan sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, sud majlisining kotibi, taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarorining bayon qismi o'zida da'vogarning talabi, javobgarning e'tirozlari va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini aks ettirishi kerak.

Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, sudning ish holatlari to'g'risidagi xulosalari asoslangan dalillar, sudning u yoki bu dalillarni rad qilganligi haqidagi xulosalari, sud amal qilgan moddiy va protsessual huquq normalari ko'rsatilishi

kerak. Arz qilingan talab javobgar tomonidan tan olingan taqdirda, asoslantiruvchi qismda faqat arz qilingan talabning tan olinganligi va uning sud tomonidan qabul qilinganligi ko'rsatilishi mumkin.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida sudning arz qilingan talablardan har birini to'liq yoki qisman qanoatlantirish to'g'risidagi yoxud qanoatlantirishni rad etish haqidagi xulosasi bo'lishi, sud xarajatlarini taqsimlash, hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish muddati va tartibi ko'rsatilishi kerak.

254-modda. Sudning arz qilingan talablar doirasidan chetga chiqish huquqi

Sud ishni da'vogar tomonidan arz qilingan talablar doirasida hal qiladi. Biroq, agar sud da'vogarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun zarur deb topsa, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda da'vogar tomonidan bildirilgan talablar doirasidan chetga chiqishi mumkin.

255-modda. Hal qiluv qarorini ijro etish tartibi va muddatini belgilash, hal qiluv qarorining ijrosini ta'minlash

Sud hal qiluv qarorini ijro etishning muayyan tartibi va muddatini belgilagan yoki hal qiluv qarori darhol ijro etilishini zarur deb topgan yoxud uning ijrosini ta'minlashga doir choralar ko'rgan hollarda, bu haqda hal qiluv qarorida ko'rsatiladi.

256-modda. Bir nechta da'vogarga yoki bir nechta javobgarga nisbatan qabul qilingan hal qiluv qarori

Bir nechta da'vogarning talablari qanoatlantirilganda hal qiluv qarorining xulosa qismida sud ularning har biriga nisbatan uning qaysi qismi tegishlilikini ko'rsatadi.

Bir nechta javobgarga nisbatan talablar qanoatlantirilganda sud hal qiluv qarorining xulosa qismida javobgarlar zimmasiga ulushli yoki solidar javobgarlik yuklatilganligini ko'rsatadi.

257-modda. Pul mablag'larini undirish to'g'risidagi hal qiluv qarori

Sud pul mablag'larini undirish to'g'risidagi hal qiluv qarorida undirilishi lozim bo'lgan pul summalarini undirish davrini, asosiy qarzning, zararlarning, neustoykaning hamda foizlarning umumiy miqdorini alohida-alohida aniqlagan holda ko'rsatadi.

Tashkilotlardan pul mablag'lari undirilgan taqdirda hal qiluv qarorida undiriladigan mablag'larning xususiyati, shuningdek undirib beriladigan summa javobgarning bankdagi qaysi hisobvarag'idan hisobdan chiqarilishi kerakligi ko'rsatiladi.

Sud dastlabki va qarshi da'volarni to'liq yoki qisman qanoatlantirgan taqdirda hal qiluv qarorida o'zaro hisobga olish natijasida undirilishi lozim bo'lgan summani ko'rsatadi.

258-modda. Mol-mulkni yoki uning qiymatini undirib berish to'g'risidagi hal qiluv qarori

Sud mol-mulkni natura tarzida undirib bergan taqdirda hal qiluv qarorida da'vogarga topshirilishi lozim bo'lgan mol-mulkning nomini, turgan joyini, agar hal qiluv qarorini ijro etish vaqtida undirib berilgan mol-mulk naqd bo'lmasa, uning javobgardan undirilishi lozim bo'lgan qiymatini ko'rsatadi.

259-modda. Javobgar zimmasiga muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklatadigan hal qiluv qarori

Sud javobgar zimmasiga mol-mulkni yoki pul summalarini olib berish bilan bog'liq bo'lmagan muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklatishni nazarda tutuvchi hal qiluv qarorini qabul qilish chog'ida, qarorning o'zida, agar javobgar hal qiluv qarorini belgilangan muddat ichida bajarmasa, da'vogar shu harakatlarni javobgarning hisobidan amalga oshirishga va zarur xarajatlarni keyinchalik javobgardan undirib olishga haqli ekanligini ko'rsatishi mumkin. Agar mazkur harakatlar faqat javobgar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lsa, sud hal qiluv qarorida uni ijro etish kerak bo'lgan muddatni belgilab qo'yadi.

(260-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

261-modda. Hal qiluv qarori yozuvidagi xatolarni va aniq ko‘rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish

Sud hal qiluv qarori yozuvida yo‘l qo‘yilgan xatolarni yoki ochiq ko‘rinib turgan arifmetik xatolarni o‘z tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga ko‘ra tuzatishi mumkin.

Hal qiluv qarori yozuvida yo‘l qo‘yilgan xatolarni yoki ochiq ko‘rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish haqidagi ariza u topshirilgan kundan e‘tiboran o‘n kunlik muddatda ko‘rib chiqiladi.

Hal qiluv qarori yozuvidagi xatolarni yoki ochiq ko‘rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish to‘g‘risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida hal etiladi. Biroq, bu shaxslarning kelmaganligi tuzatishlarni kiritish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

Hal qiluv qaroriga tuzatishlar kiritish yoxud tuzatishlar kiritishni rad qilish to‘g‘risida ajrim chiqariladi.

Hal qiluv qaroriga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

262-modda. Qo‘shimcha hal qiluv qarori

Ish bo‘yicha hal qiluv qarorini qabul qilgan sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga ko‘ra yoki o‘z tashabbusi bilan quyidagi hollarda qo‘shimcha hal qiluv qarori chiqarishi mumkin, agar:

1) huquq to‘g‘risidagi masalani hal qilib, undiriladigan summaning miqdorini, olib berilishi kerak bo‘lgan mol-mulkni yoki javobgar amalga oshirishi shart bo‘lgan harakatlarni ko‘rsatmagan bo‘lsa;

2) arz qilingan talablarning birortasi bo‘yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar dalillar taqdim etgan va tushuntirishlar bergan bo‘lsalarda, biroq bu xususda hal qiluv qarori qabul qilinmagan bo‘lsa;

3) hal qiluv qarorida sud xarajatlarini taqsimlash ko‘rsatilmagan bo‘lsa.

Qo‘shimcha hal qiluv qarorini chiqarish to‘g‘risidagi masala hal qiluv qarori chiqarilgan kundan e‘tiboran o‘n kundan kechiktirmay qo‘zg‘atilishi mumkin.

Qo‘shimcha hal qiluv qarorini qabul qilish to‘g‘risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Biroq bu shaxslarning kelmaganligi masalani ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi. Qo‘shimcha hal qiluv qarori ustidan asosiy hal qiluv qarori bilan birga shikoyat qilinishi va protest keltirilishi mumkin.

Qo‘shimcha hal qiluv qarori asosiy hal qiluv qarori bilan birga qonuniy kuchga kiradi.

Qo‘shimcha hal qiluv qarorini chiqarish rad etilgan taqdirda, ajrim chiqariladi.

Qo‘shimcha hal qiluv qarorini chiqarishni rad etish haqidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

263-modda. Hal qiluv qarorini tushuntirish

Hal qiluv qarori noaniq bo‘lsa, ishni hal qilgan sud o‘z tashabbusiga yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga, shuningdek hal qiluv qarorini ijro etish zimmasiga yuklatilgan organlar va davlat ijrochisining arizasiga ko‘ra hal qiluv qarorini uning mazmunini o‘zgartirmagan holda tushuntirishga haqli.

Agar hal qiluv qarori ijro etilmagan va uni majburiy ijro ettirish mumkin bo‘lgan muddat o‘tmagan bo‘lsa, hal qiluv qarorini tushuntirishga yo‘l qo‘yiladi.

Hal qiluv qarorini tushuntirish to‘g‘risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Biroq, bu shaxslarning sudga kelmaganligi hal qiluv qarorini tushuntirish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

Sud hal qiluv qarorini tushuntirish to‘g‘risidagi arizani u kelib tushgan kundan e‘tiboran o‘n kunlik muddatda ko‘rib chiqadi.

Hal qiluv qarorini tushuntirish to‘g‘risidagi arizani ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim chiqariladi.

Hal qiluv qarorini tushuntirish to'g'risidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

264-modda. Hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishi

Sudning hal qiluv qarori, agar uning ustidan shikoyat qilinmagan (protest keltirilmagan) bo'lsa, apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi. Hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda, hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni apellyatsiya instansiyasi sudi ko'rib chiqqanidan keyin qonuniy kuchga kiradi.

(264-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

Hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin taraflar va ishda ishtirok etgan boshqa shaxslar, shuningdek ularning huquqiy vorislari sudga o'sha asoslar bo'yicha yangidan o'sha talablarni arz qilishi, shuningdek sud aniqlagan faktlar va huquqiy munosabatlar xususida boshqa protsessda nizolashishi mumkin emas.

Agar ish sudda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda prokuror yoki davlat boshqaruvi organi, tashkilot yoki ayrim fuqarolarning arizasi bo'yicha boshlangan bo'lsa, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori ish kimning manfaatini ko'zlab qo'zg'atilgan bo'lsa, ana shu shaxs uchun majburiydir. Agar javobgardan davriy to'lovlarni (alimentlar, sog'liqqa shikast yetkazilganda ko'rilgan zararning o'rnini qoplash yoki vafot etganlik bilan bog'liq to'lovlar va hokazo) undirish to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin to'lovlarning miqdoriga yoki muddatini belgilashga ta'sir etuvchi holatlar jiddiy ravishda o'zgarsa, har bir taraf yangidan ariza berish yo'li bilan to'lovlarning miqdori va muddatini o'zgartirishni talab qilishga haqli.

265-modda. Hal qiluv qarorini ijro etish

Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin ijro etiladi, bundan darhol ijro etish hollari mustasno.

266-modda. Darhol ijro etilishi lozim bo'lgan hal qiluv qarorlari

Sudning quyidagi:

- 1) alimentlar undirish to'g'risidagi;
- 2) xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan ish haqini undirib berish to'g'risidagi;
- 3) mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi, shuningdek boquvchisi vafot etganligi natijasida ko'rilgan zararning o'rnini qoplash uchun to'lovlar undirish to'g'risidagi;

- 4) mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni avvalgi ishiga tiklash to'g'risidagi, shuningdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi;

- 5) sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurashish muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'linmasiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi;

- 6) sudda ishni muhokama qilish vaqtida javobgar da'voni butunlay yoki qisman tan olganligiga qarab, to'liq yoki qisman qanoatlantirilgan talablar bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari darhol ijro etilishi kerak.

267-modda. Hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga sudning yo'l qo'yish huquqi

Sud quyidagi: hal qiluv qarorlari butunlay yoki qisman darhol ijro etilishiga yo'l qo'yishi mumkin:

- 1) da'vogar va javobgar chiqarilgan hal qiluv qaroriga hamda uning darhol ijro etilishiga rozi bo'lgan hollarda;

- 2) muallifning intellektual faoliyati natijalaridan foydalanganlik uchun unga haq undirib berish to'g'risidagi hal qiluv qarori;

3) alohida holatlar natijasida hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish undiruvchi uchun ko'p zarar keltirishi mumkin bo'lgan yoki ijro etish mumkin bo'lmay qolgan barcha boshqa ishlar bo'yicha.

Ushbu modda birinchi qismining **1-bandida** ko'rsatilgan asoslar bo'yicha darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilgan taqdirda, taraflarning roziligi sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi. Agar taraflarning roziligi sud nomiga yuborilgan yozma arizalarda bayon etilgan bo'lsa, bu arizalar ishga qo'shib qo'yiladi, bu haqda sud majlisining bayonnomasida ko'rsatiladi.

Ushbu modda birinchi qismining **3-bandida** ko'rsatilgan asoslar bo'yicha darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilganida sud da'vogardan sudning qarori bekor qilingan taqdirda, hal qiluv qarorining qaytarma ijrosini ta'minlashni talab qilishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyati berish (protest keltirish) muddati ichida hal qiluv qarori chiqarilganidan so'ng hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yish to'g'risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Biroq ushbu shaxslarning kelmaganligi darhol ijro etish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Hal qiluv qarorini darhol ijro etish to'g'risidagi masalani ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.

Hal qiluv qarorini darhol ijro etish to'g'risidagi masala bo'yicha sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin. Hal qiluv qarorini darhol ijro etish to'g'risidagi ajrim ustidan berilgan xususiy shikoyat (protest) bu ajrimning ijrosini to'xtatmaydi.

268-modda. Hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilmasligi

Quyidagi hollarda hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilmaydi: darhol ijro etish natijasida mol-mulkning holati o'zgarib, hal qiluv qarori bekor qilingan taqdirda, mol-mulkni ilgari holatiga keltirish mumkin bo'lmasa yoki juda qiyin bo'lsa; fuqarolarni binodan ko'chirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha.

269-modda. Hal qiluv qarorining ijrosini ta'minlash

Sud darhol ijro etishga qaratilmagan hal qiluv qarorining ijrosini ushbu Kodeksning **V bo'limida** belgilangan qoidalar bo'yicha ta'minlashi mumkin.

270-modda. Sud hujjatlarining ko'chirma nusxalarini taraflarga va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga yuborish

Sud hujjatining ko'chirma nusxasi u chiqarilgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay taraflarga va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuboriladi yoki tilxat olib topshiriladi, ushbu shaxslarning elektron manzillari mavjud bo'lgan taqdirda esa u elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Sud ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud hujjatining ko'chirma nusxasini boshqa shaxslarga ham yuboradi.

(270-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

23¹-bob. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarni yuritish xususiyatlari

270¹-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarni ko'rish tartibi

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha, mazkur bobda belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

270²-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan da'vo arizasi bilan sudga murojaat etish muddatlari

Agar ushbu Kodeksda yoki o'zga qonunlarda boshqa muddatlar belgilanmagan bo'lsa, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi da'vo arizasi fuqaroning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida unga ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida sudga berilishi mumkin.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risida da'vo arizasi berishning uzrli sababga ko'ra o'tkazib yuborilgan muddati sud tomonidan tiklanishi mumkin.

270³-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi da'vo arizasining shakli hamda mazmuni

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi da'vo arizasi ushbu Kodeksning 189-moddasida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Da'vo arizasida quyidagilar ham ko'rsatilishi kerak:

1) nizolashilayotgan qarorni qabul qilgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmasining nomi yoki nizolashilayotgan harakatlarni (harakatsizlikni) sodir etgan mansabdor shaxsning familiyasi va ism-sharifining bosh harflari;

2) nizolashilayotgan qarorning nomi, raqami, qabul qilingan sanasi, nizolashilayotgan harakatlar (harakatsizlik) sodir etilgan sana va joy;

3) da'vogarning fikriga ko'ra, nizolashilayotgan qaror, harakatlar (harakatsizlik) tufayli buzilayotgan o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'g'risidagi ma'lumotlar;

4) da'vogarning fikriga ko'ra, nizolashilayotgan qaror, harakatlar (harakatsizlik) qaysi qonunchilikka zid bo'lsa, o'sha qonunchilik;

(270³-modda ikkinchi qismining 4-bandida O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

5) da'vogarning qarorni haqiqiy emas, harakatlarni (harakatsizlikni) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi talabi.

Da'vo arizasiga ushbu Kodeksning 191-moddasida ko'rsatilgan hujjatlar, shuningdek nizolashilayotgan qarorning matni ilova qilinadi.

270⁴-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasining xususiyatlari

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish chog'ida sud nizolashilayotgan qarorning yoki uning ayrim qismlarining, harakatlarning (harakatsizlikning) qonuniyligini, nizolashilayotgan qarorni qabul qilgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmasining yoxud nizolashilayotgan harakatlarni (harakatsizlikni) sodir etgan mansabdor shaxsning vakolatlarini tekshiradi, shuningdek nizolashilayotgan qaror yoki uning ayrim qismlari yoxud harakatlar (harakatsizlik) fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzgan-buzmaganligini aniqlaydi.

270⁵-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ish bo'yicha sudning hal qiluv qarori

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ish bo'yicha

hal qiluv qarori ushbu Kodeksning **23-bobida** belgilangan qoidalarga ko'ra sud tomonidan qabul qilinadi.

Sud nizolashilayotgan qaror yoki uning ayrim qismlari yoxud harakatlar (harakatsizlik) qonunchilikka zid ekanligini hamda da'vogarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzayotganligini aniqlasa, qarorni yoki uning ayrim qismlarini haqiqiy emas deb yoxud harakatlarni (harakatsizlikni) qonunga xilof deb topish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

(270⁵-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar sud nizolashilayotgan qaror yoki uning ayrim qismlari yoxud harakatlar (harakatsizlik) qonunga muvofiq ekanligini hamda da'vogarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmayotganligini aniqlasa, arz qilingan talabni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Da'vo arizasini qanoatlantirish to'g'risidagi hal qiluv qarorining xulosa qismida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

1) nizolashilayotgan qarorni qabul qilgan korxon, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasining nomi yoki harakatlarni (harakatsizlikni) sodir etgan mansabdor shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, nizolashilayotgan qarorning nomi, raqami, qabul qilingan sanasi, nizolashilayotgan harakatlar (harakatsizlik) sodir etilgan sana va joy;

2) nizolashilayotgan qarorning to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb yoki harakatlarning (harakatsizlikning) qonunga xilof deb topilganligi;

3) sud xarajatlarining taqsimlanishi.

Qaror haqiqiy emas deb, harakatlar (harakatsizlik) qonunga xilof deb topilgan taqdirda, sud tegishli korxon, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasining yoki mansabdor shaxsning zimmasiga qonunga muvofiq qaror qabul qilish yoki muayyan harakatlarni amalga oshirish yoxud da'vogarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining yo'l qo'yilgan buzilishlarini boshqacha usulda bartaraf etish majburiyatini yuklaydi.

(270⁵-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

23²-bob. O'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ishlarni yuritishning o'ziga xos xususiyatlari

270⁶-modda. Da'vo arizasini berish

Prokuror, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishni (buzib tashlashni) tashkil etish sohasidagi vakolatli davlat organi o'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat etishga haqli.

270⁷-modda. Da'vo arizasining mazmuni

O'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi da'vo arizasi ushbu Kodeksning 189-moddasida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Ushbu Kodeksning 189 va 270⁸-moddalarida nazarda tutilgan talablarni buzgan holda berilgan da'vo arizasi ushbu Kodeksning 195-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq da'vogarga qaytariladi.

270⁸-modda. Da'vo arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar

O'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi da'vo arizasiga ushbu Kodeksning 191-moddasida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari quyidagilar ilova qilinadi:

1) qonunchilik talablari buzilganligi to'g'risida o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishni (buzib tashlashni) tashkil etish sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan tuzilgan dalolatnoma;

2) o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishni (buzib tashlashni) tashkil etish sohasidagi vakolatli davlat organining qonun buzilishlarini ixtiyoriy ravishda bartaraf etish to'g'risidagi ogohlantirishi;

3) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

4) huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi hujjat.

270⁹-modda. O'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasining o'ziga xos xususiyatlari

O'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ishlar ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha, mazkur bobda belgilangan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda ko'riladi.

Ish sudya da'vo arizasini ish yurituviga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risida ajrim chiqargan kundan e'tiboran yigirma kundan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqilishi kerak.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ish bo'yicha kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

270¹⁰-modda. Sudning hal qiluv qarori

O'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ish bo'yicha sudning hal qiluv qarori ushbu Kodeksning **23-bobida** belgilangan qoidalarga ko'ra sud tomonidan qabul qilinadi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish to'g'risidagi talab sud tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda, sud hal qiluv qarorining xulosa qismida ushbu Kodeksning **253, 255 va 256-moddalarida** ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari:

1) qaytarilayotgan yer uchastkasining maydoni va joylashgan joyi (manzili);

2) yer uchastkasi tasarrufiga qaytarilayotgan davlat organi ko'rsatilishi kerak.

O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi talab sud tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda, sud hal qiluv qarorining xulosa qismida ushbu Kodeksning **253, 255 va 256-moddalarida** ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari:

1) o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratning manzili va tavsifi;

2) buzilishi lozim bo'lgan imorat ko'rsatilishi kerak.

Agar da'vo arizasida o'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish to'g'risidagi va o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash haqidagi talablar birgalikda bildirilgan bo'lib, bu talablar qanoatlantirilgan taqdirda, hal qiluv qarorining xulosa qismida ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Sudning o'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi hal qiluv qarori, agar apellyatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo'lsa, u qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun o'tgach qonuniy kuchga kiradi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasi hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin uch ish kuni ichida sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi yoki tilxat olib topshiriladi, ushbu shaxslarning elektron manzillari mavjud bo'lgan taqdirda esa hal qiluv qarori elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

(23²-bob O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi O'RQ-997-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.11.2024-y., 03/24/997/0923-son)

24-bob. Birinchi instansiya sudining ajrimlari

271-modda. Sud ajrimini chiqarish

Ajrimlar sud tomonidan alohida xonada (maslahatxonada) ushbu Kodeksning 19, 250 va 252-moddalarida belgilangan tartibda chiqariladi va ishga qo'shib qo'yiladi.

Murakkab bo'lmagan masalalarni hal etishda sud o'z joyida ajrim chiqarishi mumkin. Bunday ajrim sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi. Ajrimlar chiqarilishi bilan darhol o'qib eshittiriladi.

272-modda. Ajrimning mazmuni

Sud ajrimida quyidagilar ko'rsatiladi:

1) ishning raqami, ajrim chiqarilgan vaqt va joy;

(272-modda birinchi qismining 1-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

2) sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, sud majlisining kotibi;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxslar, qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek soliq to'lovchi qarzdor yuridik shaxsning identifikatsiya raqami;

(272-modda birinchi qismining 3-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O'RQ-711-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son)

4) nizo predmeti va ajrim bilan hal qilinadigan masalaning mohiyati;

5) sudning xulosasiga olib kelgan asoslar va sud amal qilgan qonunlar hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga havolalar;

(272-modda birinchi qismining 5-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

6) sudning hal etilayotgan masala yuzasidan xulosasi;

7) ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) tartibi va muddati.

Sud tomonidan o'z joyida chiqariladigan ajrim ushbu moddaning 4, 5 va 6-bandlarida sanab o'tilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Ajrimning yozuvidagi xatolar va aniq ko'rinib turgan arifmetik xatolar ushbu Kodeksning 261-moddasida nazarda tutilgan tartibda tuzatiladi.

273-modda. Ajrimning ko'chirma nusxalarini taraflar va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuborish

Ajrim alohida sud hujjati tarzida chiqarilgan hollarda, uning ko'chirma nusxalari taraflarga, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga, shuningdek u daxldor bo'lgan o'zga shaxslarga ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay pochta orqali yoki elektron hujjat tarzida yuboriladi.

274-modda. Ajrimni ijro etish

Sud ajrimi, agar qonunda yoki sud tomonidan boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, darhol ijro etiladi.

275-modda. Sudning xususiy ajrimi

(275-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

Ishni ko'rish chog'ida davlat organining yoki boshqa organning, tashkilotning, mansabdor shaxsning yoki fuqaroning faoliyatida qonunchilik hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, ularning ishda ishtirokidan qat'i nazar, sud xususiy ajrim chiqarishga haqlidir.

(275-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Xususiy ajrim bilan sud tegishli organdan yoki mansabdor shaxsdan qonunchilik hujjatlarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalani o'zlarining vakolatiga muvofiq ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin.

(275-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Xususiy ajrim tegishli davlat organlariga va boshqa organlarga, tashkilotlarga, mansabdor shaxslarga yuboriladi, ular ko'rilgan choralar to'g'risida bir oylik muddatda sudga xabar qilishi shart.

(275-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

Sudning xususiy ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Agar sud ishni ko'rayotganida shaxslarning xatti-harakatlarida jinoyat alomatlarini aniqlasa, u jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal etish uchun bu haqda prokurorga tegishli materiallarni ilova qilgan holda xabar qiladi.

25-bob. Sud bayonnomalari

276-modda. Bayonnoma yuritish shartligi

Har bir sud majlisi to'g'risida, shuningdek sud majlisi zalidan tashqarida qilingan har bir alohida protsessual harakat to'g'risida bayonnoma tuziladi.

277-modda. Bayonnoma mazmuni

Sud majlisi bayonnomasida ish muhokamasining yoki alohida protsessual harakatlarni amalga oshirishning barcha muhim jihatlari aks ettirilishi kerak. Sud majlisi bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) sud majlisi bo'lib o'tgan yil, oy, kun va joy;
- 2) sud majlisi boshlangan va tamomlangan vaqt;
- 3) ishni ko'rayotgan sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, hamda sud majlisining kotibi;
- 4) ishning nomi va raqami;
- 5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovga ko'maklashayotgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 6) sudning taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirganligi;
- 7) ushbu moddaning **5-bandida** ko'rsatilgan shaxslarga sud chaqiruv qog'ozlari va boshqa xabarnomalar topshirilganligi to'g'risidagi hamda ular sud majlisiga kelmaganligining sabablari haqidagi ma'lumotlar;
- 8) raislik qiluvchining barcha farmoyishlari va sudning alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqmasdan chiqargan ajrimlari;
- 9) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizalari;
- 10) sudga taqdim etilgan barcha ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ekspertlarning yozma xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

(277-modda birinchi qismining 10-bandi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

11) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertlarning o'z xulosalarini og'zaki tushuntirishlari, mutaxassislarning tushuntirishlari, ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni ko'zdan kechirishga oid ma'lumotlar;

(277-modda birinchi qismining 11-bandi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

- 12) sud muzokaralarining mazmuni va prokurorning fikri;

13) sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori o'qib eshittirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Sud majlisi bayonnomasida boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Sud majlisi audio- yoki videoyozuvga olingan taqdirda, sud majlisi bayonnomasiga sud majlisida yozib olish texnika vositalaridan foydalanilganligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

Sud majlisining bayonnomasi audio- va videoyozuv vositalaridan foydalangan holda to'xtovsiz yozib boriladi.

Audio- va videoyozuv saqlanayotgan elektron yoki boshqa manbalar sud majlisi bayonnomasiga yoki alohida protsessual harakatlarni bajarish haqidagi bayonnomaga qo'shib qo'yiladi, unga tegishli yozuv kiritiladi.

Sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilgan taqdirda, sud majlisi bayonnomasida ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilganlardan tashqari:

sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilganligi to'g'risidagi;

sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishda ko'maklashayotgan sudning nomi haqidagi;

ishda ishtirok etuvchi shaxslar va sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishga ko'maklashayotgan, sudga kelgan sud protsessining boshqa ishtirokchilari to'g'risidagi;

sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishiga ko'maklashayotgan sudning va ishni ko'rayotgan sudning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha xodimlari haqidagi ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak.

278-modda. Bayonnomani tuzish

Bayonnomani sud majlisi kotibi tomonidan sud majlisining o'zida yoki sud majlisi zalidan tashqarida alohida protsessual harakat bajarilganida yuritiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlari ish uchun ahamiyatga ega deb hisoblangan holatlarni bayonnomaga kiritish to'g'risida iltimosnomalar berishga haqli.

Taraflarning, uchinchi shaxslarning o'zlari qo'ygan talablardan butunlay yoki qisman voz kechganligi haqidagi, qo'yilgan talablarni tan olishi, ishni kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv bilan tamomlash to'g'risidagi arizalari bayonnomaga kiritiladi. Bayonnomani sud majlisi tamom bo'lganidan yoki alohida protsessual harakat amalga oshirilganidan keyin kechi bilan uch kunda raislik qiluvchi va sud majlisining kotibi tomonidan imzolinishi kerak. Kiritilgan barcha o'zgarishlar, tuzatishlar, qo'shimchalar bayonnomada izohlanishi kerak.

(278-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

279-modda. Bayonnomani yuzasidan fikr-mulohaza bildirish

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining bayonnomasi bilan tanishib chiqishga va unda yo'l qo'yilgan xatoliklarni yoki uning to'liq emasligini u imzolangan kundan e'tiboran besh kun ichida ko'rsatib, bayonnomani yuzasidan yozma ravishda fikr-mulohazalar bildirishga haqli.

Bayonnomaga doir berilgan fikr-mulohazalarni raislik qiluvchi ko'rib chiqadi va u ushbu fikrlarga qo'shilgan taqdirda, bu fikr-mulohazalarning to'g'riligini tasdiqlaydi hamda ularni sud majlisining bayonnomasiga qo'shib qo'yadi.

Raislik qiluvchi berilgan fikr-mulohazalarga qo'shilmasa, ular sud majlisida ko'rib chiqiladi. Berilgan fikr-mulohazalar barcha hollarda ham ishga qo'shib qo'yilishi kerak.

Bayonnomaga doir fikr-mulohazalar ular topshirilgan kundan e'tiboran yetti kun ichida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko'rib chiqilishi kerak. Biroq, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning kelmaganligi bayonnomani yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Sud protsessi ishtirokchilari sud majlisining audio- yoki videoyozuvi bilan tanishish huquqiga ega.

Sud majlisining audio- yoki videoyozuvlari ko'chirma nusxasi sud protsessi ishtirokchilariga ishni ko'rgan sudning ruxsati bilan beriladi.

25¹-bob. Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish

279¹-modda. Ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqish

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ish ushbu Kodeksda nazarda tutilgan da’vo ishini yuritishning umumiy qoidalariga ko‘ra, mazkur bobda belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

279²-modda. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ishlar

Agar da’voning bahosi yuridik shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan yuz baravaridan, jismoniy shaxslarga nisbatan esa ellik baravaridan oshmasa, da’vo arizalari bo‘yicha ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilishi lozim.

(279²-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 30-apreldagi O‘RQ-1142-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2026-y., 03/26/1142/0440-son)

Agar ushbu moddaning **uchinchi** va **beshinchi qismlarida** ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lmasa, da’vogarning iltimosnomasiga ko‘ra, javobgarning roziligi bilan boshqa ishlar ham soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Agar ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqish chog‘ida quyidagi holatlar belgilanadigan bo‘lsa, sud ishni da’vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo‘yicha ko‘rish haqida ajrim chiqaradi:

1) ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqish davlat sirining, tijorat sirining yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga olib kelishi mumkin bo‘lsa;

2) qo‘shimcha holatlarni aniqlash yoki qo‘shimcha dalillarni tekshirish, shuningdek dalillarni ular turgan joyda ko‘zdan kechirish va tekshirish, ekspertiza tayinlash yoki guvohlarning ko‘rsatuvlarini eshitish zarur bo‘lsa;

3) bildirilgan talab boshqa talablar bilan bog‘liq bo‘lsa, shu jumladan uchinchi shaxslarga taalluqli bo‘lsa yoki mazkur ish bo‘yicha qabul qilingan sud hujjati bilan uchinchi shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzilishi mumkin bo‘lsa;

4) ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqish chog‘ida ushbu bobda belgilangan qoidalar bo‘yicha ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lmagan qarshi da’vo berilgan bo‘lsa.

Ishni da’vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo‘yicha ko‘rishga o‘tish to‘g‘risidagi ajrimda umumiy tartibga o‘tish uchun asoslar ko‘rsatiladi. Ajrim chiqarilganidan keyin ishni ko‘rish boshidan boshlanadi.

O‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta talab bildirilgan bo‘lib, ulardan biri ushbu moddaning **birinchi qismida** ko‘rsatilgan talablarga taalluqli bo‘lgan, boshqalari esa ularga taalluqli bo‘lmagan taqdirda, barcha talablar da’vo ishini yuritishning ushbu Kodeksda belgilangan umumiy qoidalari bo‘yicha ko‘rilishi lozim.

Ishni ko‘rish muddati ishni da’vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo‘yicha ko‘rib chiqish to‘g‘risida ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran hisoblanadi.

279³-modda. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ish bo‘yicha da’vo arizasiga doir talablar

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ish bo‘yicha da’vo arizasi ushbu Kodeksning **189-moddasida** nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ish bo‘yicha da’vo arizasiga ushbu Kodeksning **191-moddasida** nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinadi.

279⁴-modda. Ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari

Arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo‘zg‘atish to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi, ajrimda ish soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rilishini hamda ish ko‘rib chiqiladigan sanani ko‘rsatadi.

Sud arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo‘zg‘atish haqidagi ajrimda javobgarga da’vo arizasiga doir yozma fikrini hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar taqdim etishi zarurligini ko‘rsatadi.

Sud ajrim bilan bir vaqtda javobgarga da'vo arizasining (arizaning) ko'chirma nusxasini va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalarini darhol pochta orqali yoki elektron hujjat tarzida axborot tizimi orqali yuboradi.

Javobgar da'vo arizasiga doir yozma fikrini sudga o'zi asoslanayotgan hujjatlar va dalillarni ilova qilgan holda taqdim etishga haqli.

Yozma fikrga uning ko'chirma nusxasi da'vogarga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi. Da'vo arizasiga doir yozma fikr javobgar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Vakil tomonidan imzolangan yozma fikrga uning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma yoki boshqa hujjat ilova qilinadi.

Javobgar tomonidan da'vo arizasiga doir yozma fikr taqdim etilmaganligi da'vo arizasini soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilayotgan ish arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish haqida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kundan oshmagan muddatda sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqish muddati uzaytirilmaydi.

Sud soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ishni sud muhokamasini o'tkazmasdan, taraflarni chaqirtirmasdan va ularning tushuntirishlarini eshitmasdan ko'rib chiqadi.

Sud taraflar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda bayon qilingan tushuntirishlarni, e'tirozlarni va (yoki) vajlarni tekshiradi, dalillar bilan tanishadi hamda hal qiluv qarorini qabul qiladi.

279⁵-modda. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori ushbu Kodeksning **23-bobida** nazarda tutilgan umumiy qoidalarga ko'ra, mazkur bobda belgilangan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda sud tomonidan qabul qilinadi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori, agar apellyatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo'lsa, qabul qilinganidan keyin o'n kun o'tgach qonuniy kuchga kiradi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori sud tomonidan ushbu Kodeks **V bo'limining** qoidalariga ko'ra beriladigan ijro varaqasi asosida ijro etilishi lozim.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, apellyatsiya instansiyasi sudining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori ushbu Kodeksning **IV bo'limida** nazarda tutilgan qoidalarga asosan apellyatsiya va kassatsiya tartibida, shu jumladan kassatsiya instansiyasi sudida takroran, shuningdek yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

(25¹-bob O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

26-bob. Sirdan ish yuritish

280-modda. Sirdan ish yuritish asoslari

Sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan, kelmaganligining uzrli sabablari borligi haqida xabar bermagan va ishni uning ishtirokisiz ko'rish to'g'risida so'ramagan taqdirda, agar da'vogar bunga e'tiroz bildirmasa, ish sirdan ish yuritish tartibida ko'rilishi mumkin. Ishni bunday tartibda ko'rish haqida sud ajrim chiqaradi. Javobgar tegishli tarzda xabardor qilinganligi haqida ishda ma'lumot bo'lishi kerak.

Ishda bir nechta javobgar ishtirok etgan va sud majlisiga barcha javobgarlar kelmagan taqdirda, ish sirdan ish yuritish tartibida ko'rilishi mumkin.

281-modda. Sudga kelgan tarafning huquqlari

Agar sud majlisiga kelgan da'vogar ishni javobgar ishtirokisiz sirdan ish yuritish tartibida ko'rishga rozi bo'lmasa, sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi va kelmagan javobgarga yangi sud muhokamasining vaqti va joyi haqida takroran xabar yuboradi.

Tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga takroran kelmasa, sud da'vogarning fikridan qat'i nazar, ishni sirdan ish yuritish tartibida ko'radi.

282-modda. Sirdan ish yuritish tartibi

Ish sirdan ish yuritish tartibida ko'rilganida sud ishdagi mavjud dalillarni tekshirish bilan kifoyalanadi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vajlari va iltimoslarini e'tiborga olib, hal qiluv qarori chiqaradi, bu hal qiluv qarori sirdan chiqarilgan deb ataladi.

Da'vogar tomonidan da'voning predmeti yoki asosi, da'vo talablari miqdori o'zgartirilganda sud mazkur sud majlisida ishni sirdan ish yuritish tartibida ko'rishga haqli emas. Bu holda ishni ko'rish da'vo arizasini da'vo predmeti yoki asosi, da'vo talablari miqdori o'zgartirilgan holda javobgarga topshirish uchun keyinga qoldiriladi.

Agar sud majlisiga kelmagan javobgardan ishni uning ishtirokisiz ko'rish haqida ariza kelib tushsa, ish sirdan ish yuritish tartibida emas, umumiy tartibda ko'rilishi lozim.

283-modda. Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuni

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuni ushbu Kodeks 253-moddasining qoidalari bilan belgilanadi. Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorining xulosa qismida ushbu hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish haqida ariza berish muddati va tartibi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

284-modda. Hal qiluv qarorining ko'chirma nusxalarini yuborish

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasi taraflarga ushbu qaror chiqarilgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuboriladi yoki tilxat olib topshiriladi, ushbu shaxslarning elektron manzillari mavjud bo'lgan taqdirda esa u elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

(284-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

285-modda. Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza

Javobgar sirdan hal qiluv qarorini qabul qilgan sudga shu hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o'n besh kun ichida uni qayta ko'rib chiqish to'g'risida ariza berishga haqli.

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza ushbu Kodeksning 287 — 291-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

(285-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

285¹-modda. Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish)

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda shikoyat (protest) berilishi mumkin.

(285¹-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

286-modda. Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizaning mazmuni

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizada quyidagilar bo'lishi kerak:

- 1) sirdan hal qiluv qarori qabul qilgan sudning nomi;
- 2) ariza berayotgan javobgarning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi (joylashgan yeri, pochta manzili);

3) sud majlisiga uzrli sabablarga ko'ra kelmaganlikdan dalolat beruvchi holatlarning ro'yxati va ularni tasdiqlovchi dalillar, shuningdek sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dalillar ro'yxati;

4) ariza beruvchi javobgarning iltimosi;

5) arizaga ilova qilingan materiallarning ro'yxati.

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza javobgar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdordagi ko'chirma nusxalari bilan birga sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno. Ariza uchun davlat boji to'lanmaydi.

287-modda. Sudning arizani qabul qilganidan keyingi harakatlari

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida xabardor qiladi, ularga ushbu ariza va unga ilova qilingan materiallarning ko'chirma nusxalarini yuboradi.

288-modda. Arizani ko'rib chiqish

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza u kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida sud majlisida ko'rib chiqiladi. Sud majlisining vaqti va joyi haqida xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi arizani ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Sud arizani ko'rib chiqib, ajrim chiqaradi. Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi yoki sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinmaydi (protest keltirilmaydi).

289-modda. Sudning vakolatlari

Sud sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqib, o'zining ajrimi bilan:

arizani qanoatlantirmay qoldirishga;

sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish va ishni ilgarigi tarkibdagi yoki boshqa tarkibdagi sud tomonidan mazmunan ko'rib chiqishni tiklashga haqli.

290-modda. Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari

Agar sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishda sud tarafning sud majlisiga kelmaganligiga uzrli sabablar borligini va bu haqda sudni o'z vaqtida xabardor qilish imkoniyati bo'lmaganligini hamda taraf sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dalillarni taqdim qilayotganligini aniqlasa, sirdan qabul qilingan hal qiluv qarori bekor qilinib, ishni mazmunan ko'rib chiqish tiklanishi lozim.

291-modda. Ishni ko'rib chiqishni tiklash

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarori ushbu qarorni qabul qilgan sud tomonidan bekor qilingan taqdirda, ishni mazmunan ko'rib chiqish tiklanadi va mazkur Kodeksda nazarda tutilgan qoidalar asosida olib boriladi.

Sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda, ish yangidan ko'rib chiqilganda qabul qilingan hal qiluv qarori sirdan qabul qilingan deb tan olinmaydi. Javobgar bu hal qiluv qarori sirdan qabul qilingan qaror sifatida qayta ko'rib chiqilishini so'rab, ariza berishga haqli emas.

292-modda. Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorining qonuniy kuchi

Sirdan qabul qilingan hal qiluv qarori ushbu Kodeksning [264-moddasida](#) nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq qonuniy kuchga kiradi.

3-kichik bo'lim. Alohida tartibda ish yuritish

27-bob. Umumiy qoidalar

293-modda. Sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ishlar

Sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi;
- 2) bolani farzandlikka olish (bundan buyon matnda farzandlikka olish deb yuritiladi) haqidagi;
- 3) fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va fuqaroni vafot etgan deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi;
- 4) fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi;
- 5) shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya stasionariga yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi;
- 6) shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi;
- 7) voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e‘lon qilish (emansipatsiya) to‘g‘risidagi;
- 8) mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish haqidagi;
- 9) taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda, ular bo‘yicha huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish) to‘g‘risidagi;
- 10) yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi.

294-modda. Alohida yuritiladigan ishlarni ko‘rib chiqish tartibi

Ushbu Kodeksning 293-moddasida sanab o‘tilgan ishlar sudlarda ushbu Kodeksning 27 — 37-boblarida ko‘rsatilgan istisno va qo‘shimchalar bilan fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

28-bob. Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash

295-modda. Sud tomonidan ko‘rib chiqiladigan, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ishlar

Sud fuqarolarning yoki tashkilotlarning shaxsiy, mulkiy huquqlari yuzaga kelishiga, o‘zgarishiga yoki tugashiga sabab bo‘ladigan faktlarni aniqlaydi.

Sud:

- 1) shaxslarning qarindoshlik aloqalari;
- 2) shaxs birovning qaramog‘ida ekanligi;
- 3) otalikni tan olish (belgilash), bolaning u yoki bu onadan tug‘ilganligi, shuningdek tug‘ilgan vaqti;
- 4) farzandlikka olishni, nikohni, nikohdan ajratishni va o‘limni qayd etilganligi;
- 5) er-xotindan biri vafot etganligi oqibatida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohni ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin bo‘lmay qolsa, qonunda belgilangan hollarda ularning haqiqatda nikoh munosabatlarida bo‘lganligi;
- 6) shaxsning huquqini belgilovchi hujjatlarda (bundan jamoat birlashmalariga a‘zolik biletlari, harbiy hujjatlar, pasportlar yoki identifikatsiyalovchi ID-kartalar, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari beradigan guvohnomalar mustasno) ko‘rsatilgan familiyasi, ismi yoki otasining ismi uning pasportidagi yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasidagi yoxud tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasidagi familiyasi, ismi yoki otasining ismi bilan mos kelmagan taqdirda, mazkur hujjatlarning unga tegishliligi yoxud tegishli emasligi;
(295-modda ikkinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-martdagi O‘RQ-759-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son)
- 7) baxtsiz hodisa;
- 8) imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish;

9) merosni qabul qilish va merosning ochilish joyi faktlarini aniqlash to'g'risidagi ishlarni ko'radi.

Agar qonunchilikda ularni belgilashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, sud yuridik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni ham belgilashi mumkin.

(295-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Arizachi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni tasdiqlaydigan zarur hujjatlarni boshqacha tartibda olishi mumkin bo'lmagan yoxud yo'qotilgan hujjatlarni tiklashning imkoni bo'lmagan taqdirdagina sud ushbu faktlarni aniqlaydi.

296-modda. Ariza berish va uning mazmuni

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni belgilash to'g'risidagi ishlar bo'yicha ariza arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi.

Arizada muayyan faktni aniqlash arizachiga qanday maqsadlar uchun zarur ekanligi ko'rsatilishi, shuningdek arizachining tegishli hujjatlarni olish imkoniyatiga ega emasligini yoxud yo'qolgan hujjatlarni tiklab bo'lmashligini tasdiqlovchi dalillar keltirilishi kerak.

297-modda. Fakt aniqlanganligi to'g'risidagi hal qiluv qarori

Sudning hal qiluv qarorida: sud tomonidan aniqlangan fakt, uning qanday maqsadda aniqlanganligi, shuningdek mazkur faktni aniqlash uchun sud qanday dalillarga asoslanganligi ko'rsatilishi kerak.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida qayd etilishi yoki boshqa organlarda rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan faktlarning aniqlanganligi to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori ushbu organlar tomonidan beriladigan hujjatlarning o'rniga o'tmaganda, ana shunday qayd qilish yoki rasmiylashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

29-bob. Farzandlikka olish

298-modda. Ariza berish

Farzandlikka olish to'g'risidagi ariza bolani farzandlikka olishni istagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishni istovchi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar farzandlikka olish to'g'risidagi arizani farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar yoki Toshkent shahar sudlariga beradi.

(298-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

299-modda. Arizaning mazmuni

Farzandlikka olish to'g'risidagi arizada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning (uning) yashash joyi;

farzandlikka olinayotgan bolaning familiyasi, ismi, otasining ismi va tug'ilgan sanasi, uning yashash (turgan) joyi, farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasi to'g'risidagi, aka-uka va opa-singillari borligi yoki yo'qligi haqidagi ma'lumotlar;

farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) farzandlikka olish to'g'risidagi iltimosini asoslovchi holatlar va mazkur holatlarni tasdiqlovchi dalillar;

farzandlikka oluvchilar (oluvchi) bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartirishlar kiritishni istagan taqdirda — farzandlikka olinayotgan bolaning familiyasini, ismini, otasining ismini, tug'ilgan sanasini (ko'pi bilan bir yilga), farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilgan joyini (agar bola o'n yoshdan oshmagan bo'lsa) o'zgartirish haqidagi, bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi dalolatnoma yozuviga farzandlikka oluvchilarni (oluvchini) ota-ona (ota yoki ona) sifatida qayd etish haqidagi iltimos.

Farzandlikka olish to'g'risidagi ariza farzandlikka oluvchilar (oluvchi) tomonidan imzolanadi.

300-modda. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar

Farzandlikka olish to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilingan bo'lishi kerak:

nikohda turgan shaxslar (shaxs) tomonidan farzandlikka olinganda — farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) nikoh tuzilganligi to'g'risidagi guvohnomasining ko'chirma nusxasi;

er-xotindan biri tomonidan farzandlikka olinganda — boshqasining roziligi. Agar er-xotin oilaviy munosabatlarni tugatgan, bir yildan ortiq birga yashamayotgan bo'lsa va erning (xotinning) yashash (turgan) joyi noma'lum bo'lsa, shuningdek bu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa, farzandlikka olishda uning roziligi talab qilinmaydi;

nikohda turmagan shaxs tomonidan farzandlikka olinganda — farzandlikka oluvchi pasportining yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasining ko'chirma nusxasi va nikohda turmasligi haqidagi ma'lumotnoma;

(300-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-martdagi O'RQ-759-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son)

farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy xulosa (psixiatriya, sil kasalligiga qarshi kurash va narkologiya muassasalaridan, shuningdek OITSGa qarshi kurash markazidan ma'lumotnomalar);

fuqaro farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo'yilganligi to'g'risidagi hujjat, bundan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 154-moddasining **ikkinchi — beshinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan hollar mustasno;

farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) ish joyidan egallab turgan lavozimi va ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma yoki boshqa daromad manbalari haqidagi ma'lumotnoma;

turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining boshqa davlat fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olish to'g'risidagi arizasiga ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari quyidagilar ilova qilinadi:

farzandlikka olinayotgan bolaning O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashi uchun O'zbekiston Respublikasi vakolatli organining roziligi;

farzandlikka olinayotgan bola qonuniy vakilining va bola qaysi davlat fuqarosi bo'lsa, o'sha davlat vakolatli organining roziligi;

farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi dalolatnoma yozuvidan ko'chirma;

farzandlikka olinayotgan bolaning sog'lig'i holati, jismoniy va aqliy rivojlanishi haqidagi tibbiy xulosa;

o'n yoshga to'lgan farzandlikka olinayotgan bolaning farzandlikka olinishiga, shuningdek familiyasi, ismi, otasining ismi o'zgartirilishi mumkinligiga va farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) uning ota-onasi (otasi yoki onasi) sifatida qayd etilishiga roziligi, bundan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining **156-moddasida** nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ushbu modda ikkinchi qismining **uchinchi, to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida** ko'rsatilgan hujjatlar belgilangan tartibda legalizatsiya qilinishi yoxud ularga belgilangan tartibda apostil qo'yilgan bo'lishi kerak. Bunda taqdim etiladigan hujjatlar O'zbekiston Respublikasining davlat tiliga tarjima qilingan va notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Agar ushbu modda ikkinchi qismining **beshinchi xatboshisida** ko'rsatilgan hujjat O'zbekiston Respublikasi hududida berilgan bo'lsa, legalizatsiya qilinishi yoki apostil qo'yilishi hamda tarjima qilingan bo'lishi to'g'risidagi talablar ushbu hujjatga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olish to'g'risidagi arizasiga ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan hujjatlar, shuningdek farzandlikka oluvchilar qaysi davlat fuqarosi

bo'lsa, o'sha davlat (bola O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan farzandlikka olinayotganda — ushbu shaxslar qaysi davlatda doimiy yashash joyiga ega bo'lsa, o'sha davlat) vakolatli organining ularning yashash sharoitlari haqidagi va farzandlikka oluvchi bo'la olish imkoniyatlari to'g'risidagi xulosasi, tegishli davlat vakolatli organining farzandlikka olinayotgan bolaning ushbu davlatga kirishi va mazkur davlat hududida doimiy yashashi uchun ruxsatnomasi, farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonasi vakillariga farzandlikka olingan bola haqida axborot berish va bola bilan muloqot qilish imkoniyatini berish to'g'risidagi notarial tasdiqlangan majburiyati ilova qilinadi.

Chet el fuqarolari bo'lgan yoki fuqaroligi bo'lmagan farzandlikka oluvchi shaxslar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar belgilangan tartibda legalizatsiya qilinishi yoxud ularga belgilangan tartibda apostil qo'yilgan bo'lishi kerak. Bunda taqdim etiladigan hujjatlar O'zbekiston Respublikasining davlat tiliga tarjima qilingan va notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ushbu moddaning **birinchi**, **ikkinchi** va **to'rtinchi qismlarida** ko'rsatilgan hujjatlar sudga ikki nusxada taqdim etiladi.

301-modda. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlashda ajrim chiqaradi, unga ko'ra farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi vasiylik va homiylik organlari zimmasiga farzandlikka olishning asosli ekanligi va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi to'g'risida sudga xulosa taqdim etish majburiyati yuklanadi.

Vasiylik va homiylik organining farzandlikka olishning asosli ekanligi to'g'risidagi va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi haqidagi xulosasiga quyidagilar ilova qilingan bo'lishi kerak:

farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyi yoki farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yashash joyi bo'yicha vasiylik va homiylik organi tomonidan tuzilgan farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yashash sharoitlarini tekshirish dalolatnomasi. Farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yashash sharoitlarini tekshirish dalolatnomasida boshqa ma'lumotlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining **152-moddasida** nazarda tutilgan farzandlikka olish uchun to'siqlar borligi yoki yo'qligi ko'rsatilishi shart;

farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi dalolatnoma yozuvidan ko'chirma;

farzandlikka olinayotgan bolaning sog'lig'i holati, jismoniy va aqliy rivojlanishi haqidagi tibbiy xulosa;

o'n yoshga to'lgan farzandlikka olinayotgan bolaning farzandlikka olishga, shuningdek familiyasi, ismi, otasining ismi o'zgartirilishi mumkinligiga va farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) uning ota-onasi (otasi yoki onasi) sifatida qayd etilishiga roziligi, bundan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining **156-moddasida** nazarda tutilgan hollar mustasno;

bola ota-onasining (otasining yoki onasining) uning farzandlikka olinishiga roziligi, o'n olti yoshga to'lmagan ota-onaning bolasi farzandlikka olinayotganda esa ota-ona qonuniy vakillarining ham roziligi, qonuniy vakillar mavjud bo'lmagan taqdirda esa vasiylik va homiylik organining roziligi, bundan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining **160-moddasida** nazarda tutilgan hollar mustasno;

bolaning qarindoshlari bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan farzandlikka olinganda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni va farzandlikka olishga nomzodlarni hisobga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasida farzandlikka olinayotgan bola to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari oilasiga tarbiyaga olish yoki bolaning qarindoshlari tomonidan, ushbu qarindoshlarning fuqaroligi va yashash joyidan qat'i nazar, farzandlikka olinishi imkoniyati mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Boshqa davlat fuqarosi bo'lgan bolani yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lgan bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olishda vasiylik va homiylik

organining farzandlikka olish asosli ekanligi to'g'risidagi va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi haqidagi xulosasiga ushbu modda ikkinchi qismining **ikkinchi xatboshisida** ko'rsatilgan hujjat ilova qilinishi kerak.

Zarur bo'lgan hollarda, sud boshqa hujjatlarni (ma'lumotlarni) ham talab qilib olishi mumkin.

302-modda. Ishni ko'rib chiqish

Sud farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarni farzandlikka oluvchilar (oluvchi), vasiylik va homiylik organlarining vakillari, shuningdek prokuror albatta ishtirok etgan holda ko'rib chiqadi.

Zarur hollarda, sud farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasini (otasini yoki onasini), uning qarindoshlarini va boshqa manfaatdor shaxslarni, shuningdek o'n yoshga to'lgan bolaning o'zini ishda ishtirok etishga jalb qilishi mumkin.

Sud farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarni sudning yopiq majlisida ko'rib chiqadi.

303-modda. Sudning hal qiluv qarori

Sud farzandlikka olish to'g'risidagi ishni mazmunan ko'rib chiqib, farzandlikka olish haqidagi arizani qanoatlantirish to'g'risida yoxud uni qanoatlantirishni butunlay yoki qisman rad etish haqida hal qiluv qarori chiqaradi.

Farzandlikka olish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, sudning hal qiluv qarorida farzandlikka olingan bolaning tug'ilganligini qayd etish daftariga o'zgartirishlar kiritish uchun zarur bo'lgan farzandlikka olingan va farzandlikka oluvchilar (oluvchi) haqidagi barcha ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Bola bitta shaxs tomonidan farzandlikka olinayotganda uning manfaatlarini ko'zlab, agar farzandlikka oluvchi erkak bo'lsa, onasining xohishiga ko'ra yoki agar farzandlikka oluvchi ayol bo'lsa, otasining xohishiga ko'ra, shuningdek agar farzandlikka olinayotgan bolaning otasi yoki onasi vafot etgan bo'lsa, vafot etgan ota yoki ona ota-onasining (buvaning yoki buvining) iltimosiga ko'ra sudning farzandlikka olish to'g'risidagi qarorida farzandlikka olingan bolaning otasi yoki onasi bilan yoxud vafot etgan otasining yoki onasining qarindoshlari bilan huquqiy munosabatlari saqlanib qolishi ko'rsatib o'tiladi.

Farzandlikka olish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, farzandlikka oluvchilar (oluvchi) va farzandlikka olinayotgan bolaning o'zaro huquq va majburiyatlari farzandlikka olingan bolaning tug'ilganligini qayd etish daftariga zarur o'zgartirishlar kiritilgan kundan e'tiboran belgilanadi.

Sud farzandlikka olish to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran uch kun ichida ushbu hal qiluv qaroridan ko'chirma nusxasini farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.

304-modda. Farzandlikka olishning bekor qilinishi

Farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va hal etish da'vo ishlarini yuritish tartibida hamda oila to'g'risidagi qonunchilikda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi.

(304-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

30-bob. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish

305-modda. Ariza berish va uning mazmuni

Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ariza manfaatdor shaxs tomondan bedarak yo'qolgan fuqaroning oxirgi ma'lum bo'lgan yashash joyidagi sudga beriladi.

Sud fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishga qonunchilikda belgilangan muddatlar o'tganidan so'ng kirishadi.

(305-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Arizada fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki uni vafot etgan deb e‘lon qilish arizachiga qanday maqsadlar uchun zarur ekanligi ko‘rsatilishi, shuningdek fuqaroning bedarak yo‘qolganligini tasdiqlaydigan yoxud bedarak yo‘qolgan shaxsga o‘lim xavfini solgan yoki u muayyan baxtsiz voqea tufayli halok bo‘lgan deb taxmin qilishga asos bo‘ladigan holatlar bayon qilinishi kerak.

306-modda. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlashda bedarak yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida kimlar (qarindosh-urug‘lari, birga ishlovchilar va boshqalar) ma‘lumot bera olishi mumkinligini aniqlaydi, shuningdek bedarak yo‘qolganning ma‘lum bo‘lgan so‘nggi yashash joyi va ish joyidagi tegishli tashkilotlardan (ichki ishlar organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan) bedarak yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida bor ma‘lumotlarni so‘rab oladi.

Sudya arizani qabul qilib olgach, ayni vaqtda vasiylik va homiylik organiga bedarak yo‘qolganning mol-mulkini saqlash, shuningdek uni boshqarish uchun shaxsni tayinlashni taklif qilishi mumkin.

307-modda. Ish muhokamasida prokurorning ishtiroki

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish to‘g‘risidagi yoki fuqaroni vafot etgan deb e‘lon qilish haqidagi ishlar albatta prokurorning ishtirokida ko‘riladi.

308-modda. Sudning hal qiluv qarori

Sudning fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori bedarak yo‘qolgan shaxsning mol-mulki turgan joydagi vasiylik va homiylik organining bu mulkka nisbatan boshqaruvchi tayinlashi uchun asos bo‘ladi.

Sudning fuqaroni vafot etgan deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organining fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftariga mazkur fuqaroni vafot etgan deb yozib qo‘yish uchun asos bo‘ladi.

309-modda. Bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e‘lon qilingan fuqaro qaytib kelishi yoki uning turgan joyi aniqlanishi oqibatlarini

Bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e‘lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turgan joyi aniqlangan taqdirda, sud o‘zining ilgarigi hal qiluv qarorini yangi hal qiluv qarori bilan bekor qiladi. Yangi hal qiluv qarori tegishincha mol-mulkka nisbatan boshqaruvni yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi fuqaroning vafotiga doir yozuvni bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

31-bob. Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish

310-modda. Ariza berish

Spirтли ichimliklar, giyohvandlik moddalari va psixotrop moddalarni suiiste‘mol qilishi natijasida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi yoki fuqaroni ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ish uning oila a‘zolari, vasiylik va homiylik organlari, prokuror, davolash muassasalari va boshqa davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari bergan arizalar bo‘yicha qo‘zg‘atilishi mumkin.

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza mazkur fuqaro yashab turgan joydagi, agar bu shaxs davolash muassasasiga joylashtirilgan bo‘lsa, mazkur muassasa joylashgan hududdagi sudga beriladi.

311-modda. Arizaning mazmuni

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi arizada spirтли ichimliklar, giyohvandlik moddalari va psixotrop moddalarni suiiste‘mol qiluvchi shaxs o‘z oilasini moddiy jihatdan og‘ir ahvolga solib qo‘yayotganligidan dalolat beruvchi holatlar bayon etilishi kerak.

Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi arizada shaxsning ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi), shuning oqibatida u o'z xatti-harakatlarini anglay olmasligidan yoki boshqara olmasligidan dalolat beruvchi holatlar bayon qilinishi kerak.

312-modda. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash

Sudya arizani olgach, ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida fuqaroning ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) to'g'risida yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lsa, uning ruhiy ahvolini aniqlash uchun sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlaydi.

Fuqaro sud-psixiatriya ekspertizasini o'tishdan bosh tortganda sud uni majburiy tarzda ekspertizaga yuborish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

313-modda. Ishni ko'rib chiqish

Sud fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi ishni albatta mazkur fuqaroning, prokuror hamda vasiylik va homiylik organi vakilining ishtirokida ko'radi. Agar fuqaro sud majlisiga kelmasa, ushbu Kodeks **186-moddasining** qoidalari qo'llanadi.

Sud fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishni prokuror hamda vasiylik va homiylik organining vakili ishtirokida ko'rib chiqadi. Ishi ko'rib chiqilayotgan fuqaro, agar uning sog'lig'i holati imkon bersa, sud majlisiga chaqiriladi.

314-modda. Sudning hal qiluv qarori

Sudning fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarori vasiylik va homiylik organining muomala layoqati cheklangan shaxsga homiy tayinlashi, muomalaga layoqatsiz shaxsga esa, vasiy tayinlashi uchun asos bo'ladi.

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topganda sud hal qiluv qarori kuchga kirganidan so'ng uch kun ichida bu haqda mazkur shaxs yashab turgan joydagi homiylik va vasiylik organiga xabar qiladi va uning ustidan homiy yoki vasiy tayinlash uchun hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasini yuboradi.

315-modda. Fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, sud fuqaroning o'zi, uning homiysi, shuningdek ushbu Kodeksning **310-moddasida** sanab o'tilgan tashkilotlar va shaxslar bergan arizaga binoan fuqaroning muomala layoqatini cheklashni va unga nisbatan belgilangan homiylikni bekor qilish to'g'risida hal qiluv qarori chiqaradi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, sud vasiy, shuningdek ushbu Kodeksning **310-moddasida** sanab o'tilgan tashkilotlar va shaxslar bergan arizaga binoan, sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga asoslanib, sog'aygan fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi.

(315-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

316-modda. Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud xarajatlari

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlarni yuritish bilan bog'liq sud xarajatlari arizachidan undirilmaydi.

Agar sud ariza fuqaroning oila a'zolari tomonidan insofsizlik qilib, asossiz ravishda fuqaroning muomala layoqatini cheklash yoki uni muomala layoqatidan mahrum etish maqsadida ataylab berilgan deb topsa, sud xarajatlarini oila a'zolaridan undiradi.

32-bob. Shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish

317-modda. Ariza berish

Shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ariza sudga shaxs yotgan psixiatriya muassasasi tomonidan beriladi.

G'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar ko'rsatilgan arizaga shifokor psixiatrlardan iborat komissiyaning shaxsning psixiatriya statsionarida bundan keyin bo'lishi zarurligi to'g'risidagi asoslantirilgan xulosasi ilova qilinadi.

Ariza psixiatriya muassasasi joylashgan yerdagi sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Sud arizani qabul qilish bilan bir paytda arizani sudda ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan muddatda shaxsning psixiatriya statsionarida bo'lib turishi masalasini hal etadi.

318-modda. Ishni ko'rib chiqish

Shaxsni psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ish sud tomonidan statsionarga yotqizilayotgan shaxsning qonuniy vakili va statsionarga yotqizishning asosliliigi to'g'risida xulosa bergan komissiya tarkibidagi shifokor psixiatr, prokuror, shuningdek shaxs yotgan psixiatriya muassasasi vakili ishtirokida o'n kunlik muddat ichida ko'rib chiqiladi.

Sud majlisiga psixiatriya muassasasi vakilining uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi arizani ko'rib chiqishga monelik qilmaydi, biroq sud uning kelishini shart deb topishi mumkin.

319-modda. Sudning hal qiluv qarori

Sudning arizani qanoatlantirish to'g'risidagi hal qiluv qarori tegishincha shaxsni psixiatriya statsionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish uchun asos bo'ladi.

33-bob. Shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish

320-modda. Ariza berish

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ariza sudga mazkur shaxs dispanser hisobida turgan yoxud davolanayotgan yoki uning yashash (turgan) joyidagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi tomonidan beriladi.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ariza mazkur shaxs dispanser hisobida turgan yoxud davolanayotgan sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi joylashgan yerdagi yoki uning yashash (turgan) joyidagi sudda ko'rib chiqiladi.

321-modda. Arizaning mazmuni va uni berish muddati

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi ariza ushbu muassasa tibbiy komissiyasining tibbiy tekshiruvdan va (yoki) davolanishdan bo'yin tovlayotgan mazkur shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish zarurligi haqidagi xulosasi qabul qilingan kundan e'tiboran bir sutka ichida beriladi. Xulosada davolash o'tkaziladigan muddat ko'rsatiladi.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsning sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limida g'ayriixtiyoriy tartibda yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza ushbu muassasa tibbiy komissiyasining shaxsning davolanishda bo'lgan muassasada yotishi muddatini uzaytirish zarurligi haqidagi xulosasi asosida beriladi. Xulosada davolash o'tkaziladigan muddat ko'rsatiladi.

322-modda. Ishni ko'rib chiqish

Shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini

uzaytirish haqidagi ish sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risida yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqida ariza berilgan kundan e'tiboran uch kunlik muddatda sud tomonidan mazkur shaxs dispanser hisobida turgan yoxud davolanayotgan sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining vakili — tibbiy komissiyasi a'zosi, sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsning vakili, shuningdek prokuror ishtirokida ko'rib chiqiladi. Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan, ishi sudda ko'rib chiqilayotgan shaxs, agar uning sog'lig'i holati imkon bersa, sud majlisiga chaqirilishi mumkin.

Sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi vakilining — tibbiy komissiyasi a'zosining, sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxs vakilining sud majlisiga uzrsiz sababga ko'ra kelmaganligi ishni ko'rib chiqishga monelik qilmaydi, biroq sud bu shaxslarning kelishini shart deb topishi mumkin.

323-modda. Sudning hal qiluv qarori

Sudning arizani qanoatlantirish to'g'risidagi hal qiluv qarori sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni tegishincha sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish uchun asos bo'ladi.

34-bob. Voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya)

324-modda. Ariza berish

O'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda o'zi yashab turgan joydagi sudga o'zini to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

(324-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Vasiylik va homiylik organlari voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilishni rad etganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo'lganda voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi ariza sud tomonidan qabul qilinadi.

325-modda. Ishni ko'rib chiqish

Voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi ish sud tomonidan arizachi, uning ota-onasi (ulardan biri) yoki farzandlikka oluvchilar (oluvchi) yoki homiy, shuningdek vasiylik va homiylik organining vakili hamda prokuror ishtirokida ko'rib chiqiladi.

326-modda. Sudning voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi ariza yuzasidan hal qiluv qarori

Sud voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi arizani mazmunan ko'rib chiqib, uni qanoatlantirish yoki rad etish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Ariza qanoatlantirilgan taqdirda, o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran to'liq muomalaga layoqatli (emansipatsiya qilingan) deb e'lon qilinadi.

35-bob. Mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish

327-modda. Ariza berish

Mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ariza davlat mol-mulkini boshqarish vakolatiga ega organ yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan mol-mulk (ashyo) turgan joydagi sudga beriladi.

Arizada qaysi mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish kerakligi ko'rsatilgan bo'lishi, shuningdek mol-mulk (ashyo) egasini aniqlashning imkoni yo'qligini yoxud mol-mulk (ashyo)

mulkdor tomonidan unga nisbatan mulk huquqini saqlab qolish niyatisiz qoldirganligini tasdiqlovchi dalillar keltirilgan bo'lishi kerak.

328-modda. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlashda mol-mulk (ashyo) kimga tegishli ekanligi to'g'risida ma'lumot berishi mumkin bo'lgan shaxslarni (mol-mulkning (ashyoning) mulkdorlari, unga amalda egalik qilib turganlar, qo'shnilar va boshqalarni) aniqlaydi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan mol-mulkka doir mavjud ma'lumotlarni so'raydi.

329-modda. Ishni ko'rib chiqish

Mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ish arizachining vakili, uchinchi shaxslar va prokuror ishtirokida sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

330-modda. Sudning hal qiluv qarori

Sud mol-mulkni (ashyoni) mulkdori yo'q yoki mulkdori noma'lum yoxud mol-mulk (ashyo) mulkdor tomonidan unga nisbatan mulk huquqini saqlab qolish niyatisiz qoldirilgan deb topsa, mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish va uni davlat mulkiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga o'tkazish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

36-bob. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ular bo'yicha huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish)

331-modda. Ariza berish

Shaxs pul mablag'lari qo'yilganligi haqida yoki qimmatli narsalar yoxud davlat zayomi obligatsiyalari saqlash uchun topshirilganligi to'g'risida bank tomonidan taqdim etuvchiga berilgan qiymatli hujjatni yo'qotgan taqdirda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda, suddan yo'qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish va yo'qolgan hujjat bo'yicha huquqlarini tiklash to'g'risida iltimos qilishi mumkin.

Ish taqdim etuvchiga deb hujjat bergan muassasa joylashgan hududdagi sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Arizada hujjat qanday vaziyatda yo'qolganligi, taqdim etuvchiga deb hujjat bergan muassasaning, hujjatning nomi ko'rsatilgan bo'lishi, hujjatning alohida belgilari va yo'qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi iltimos bayon qilinishi kerak.

332-modda. Sudyaning arizani qabul qilganidan keyingi harakatlari

Sudya arizani qabul qilganidan keyin:

ariza beruvchining hisobidan ommaviy axborot vositalarida e'lon chiqarish to'g'risida;

taqdim etuvchiga deb hujjat bergan muassasaning yo'qolgan hujjat bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishini va pul berishini ish sudga ko'rilguniga qadar taqiqlash haqida ajrim chiqaradi.

Sud ajrimining ko'chirma nusxasi hujjatni bergan muassasaga yuboriladi.

Ajrim chiqarish rad etilganligi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

333-modda. E'lonning mazmuni

E'londa quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

1) hujjat yo'qolganligi to'g'risida ariza tushgan sudning nomi;

2) arizachining familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;

3) hujjatning nomi va farqlovchi belgilari;

4) yo'qolganligi to'g'risida ariza berilgan hujjatni saqlovchiga ommaviy axborot vositalarida e'lon chiqqan kundan e'tiboran uch oy muddat ichida o'zining mazkur hujjatga bo'lgan huquqlari haqida sudga arz qilishi to'g'risidagi taklif.

334-modda. Hujjatni saqlovchining majburiyatlari

Yo‘qolganligi to‘g‘risida ariza berilgan hujjatni saqlovchi ajrim chiqargan sudga ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oylik muddat o‘tguniga qadar o‘zining hujjatga bo‘lgan huquqlari haqida ariza berishi va bunda hujjatning asl nusxasini taqdim etishi shart.

335-modda. Sudyaning hujjatni saqlovchidan ariza tushganidan keyingi harakatlari

Hujjat yo‘qolganligi to‘g‘risida e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oylik muddat o‘tguniga qadar sudga hujjatni saqlovchidan ariza tushgan taqdirda, sudya ajrim chiqarib, unda hujjati yo‘qolganligi haqida ariza bergan shaxsga hujjatni olib qo‘yish to‘g‘risida hujjatni saqlovchiga nisbatan umumiy tartibda da‘vo taqdim etish uchun muddat beradi va bu haqda hujjatni saqlovchini xabardor qiladi. Bu muddat ikki oydan oshmasligi kerak.

336-modda. Hujjatni saqlovchiga nisbatan da‘vo taqdim etmaslik oqibatlari

Agar arizachi ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oylik muddat o‘tguniga qadar hujjatni saqlovchiga nisbatan da‘vo taqdim etmasa, sudya ushbu Kodeksning 332-moddasiga muvofiq ko‘rilgan choralar o‘z kuchini yo‘qotganligi to‘g‘risida ajrim chiqaradi va hujjat bergan muassasani bu haqda xabardor qiladi. Hujjatni saqlovchi bunday choralar ko‘rilishi natijasida o‘ziga yetkazilgan zararni arizachidan undirish huquqiga ega.

337-modda. Ishni ko‘rib chiqishga tayinlash

Agar ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oylik muddat o‘tguniga qadar hujjatni saqlovchidan ariza kelib tushmasa, sud ishni ko‘rib chiqishga tayinlaydi.

Ish ko‘rib chiqiladigan kun to‘g‘risida arizachi ham, hujjatni bergan muassasa ham xabardor qilinadi. Biroq ularning kelmaganligi ishni ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qilmaydi.

338-modda. Ishni hal qilish

Ishni ko‘rib chiqqach, sud hal qiluv qarori chiqaradi. Sud arizani qanoatlantirgan taqdirda hal qiluv qarorida taqdim etuvchiga deb berilgan yo‘qolgan hujjat haqiqiy emasligini ko‘rsatadi. Bu hal qiluv qarori arizachiga omonatni yoki haqiqiy emas deb topilgan hujjat o‘rniga yangisini berish uchun asos bo‘ladi.

339-modda. Hujjatni saqlovchining asossiz boyish to‘g‘risida da‘vo taqdim etish huquqi

O‘zining ushbu hujjatga bo‘lgan huquqlari to‘g‘risida biror sabab bilan o‘z vaqtida arz qilmagan hujjatni saqlovchi yo‘qolgan hujjat o‘rniga yangisini olish huquqi berilgan shaxsga nisbatan asossiz boyish to‘g‘risida da‘vo taqdim etishi mumkin. Bunday da‘vo hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyingina sudga taqdim etilishi mumkin.

37-bob. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash

340-modda. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash

Yo‘qolgan sud ishini yuritish sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, prokurorning arizasiga binoan, shuningdek sudning tashabbusiga ko‘ra tiklanishi mumkin.

Yo‘qolgan sud ishini yuritish to‘liq yoki uning sud fikriga ko‘ra tiklanishi zarur bo‘lgan qismi tiklanadi. Sudning hal qiluv qarori yoki ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimi, agar ular ish yuzasidan chiqarilgan bo‘lsa, tiklanishi shart.

Arizachi yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda sud tomonidan qilingan sud xarajatlarini to‘lashdan ozod etiladi. Bila turib yolg‘on ariza berilganda sud xarajatlari arizachidan undirib olinadi.

341-modda. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ariza

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ariza ishni ko‘rib chiqqan sudga beriladi.

Arizada ishga doir batafsil ma‘lumotlar bo‘lishi kerak.

Arizachida saqlanib qolgan va ishga daxldor bo‘lgan hujjatlar yoki ularning ko‘chirma nusxalari, basharti ular belgilangan tartibda tasdiqlanmagan bo‘lsa ham, arizaga ilova qilinadi.

342-modda. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish

Sud yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishda ishning saqlanib qolgan qismlaridan, sud ishini yuritish yo‘qolguniga qadar ushbu ishdan fuqarolar va tashkilotlarga olib berilgan hujjatlardan, bu hujjatlarning ko‘chirma nusxalaridan, shuningdek ishga daxldor bo‘lgan boshqa hujjatlardan foydalanadi.

Sud protsessual harakatlarni bajarish chog‘ida hozir bo‘lgan shaxslarni, zarur hollarda esa, yo‘qolgan sud ishini ko‘rib chiqqan sud tarkibiga kirgan shaxslarni ham guvoh sifatida so‘roq qilishi mumkin.

343-modda. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha sudning hal qiluv qarori

Sudning yo‘qolgan hal qiluv qarorini yoki ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimni tiklash haqidagi hal qiluv qarorida sud tiklanayotgan sud hujjatining mazmuni sudga taqdim etilgan va yo‘qolgan ish bo‘yicha sud protsessining barcha ishtirokchilari ishtirokida sud majlisida tekshirilgan qanday aniq ma‘lumotlar asosida aniqlangan deb hisoblashi ko‘rsatiladi.

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida, shuningdek qanday dalillar sud tomonidan tekshirilganligi va yo‘qolgan sud ishini yuritish bo‘yicha qanday protsessual harakatlar sodir etilganligi isbotlanganligi haqidagi sudning xulosalari ko‘rsatiladi.

344-modda. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish

To‘plangan materiallar yo‘qolgan sud ishini yuritishni aniq tiklash uchun yetarli bo‘lmasa, sud ajrim chiqarib, ish yuritishni tugatadi. Bu holda arizachi umumiy tartibda da‘vo taqdim etishga haqli.

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish uning saqlanish muddati bilan chegaralanmaydi. Biroq yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ariza bilan uni ijro etish maqsadida murojaat qilingan, bu vaqtga kelib ijro varaqasini ijroga qaratish muddati o‘tgan va u sud tomonidan tiklanmaydigan bo‘lsa ham sud ish yuritishni tugatadi.

345-modda. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash bilan bog‘liq bo‘lgan sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish)

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

4-kichik bo‘lim. Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni, shuningdek mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish

(4-kichik bo‘lim nomi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-1089-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son)

38-bob. Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni yuritishning umumiy qoidalari

(38-bob nomi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-1089-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son)

346-modda. Sud tomonidan ko‘rib chiqiladigan, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlar

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan ko‘rib chiqiladigan, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlar jumlasiga:

- 1) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to‘g‘risidagi;
- 2) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish haqidagi arizalar bo‘yicha ishlar kiradi.

347-modda. Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqish tartibi

Sudlar ushbu Kodeksning **346-moddasida** sanab o‘tilgan ishlarni ushbu Kodeksning **38 — 40-boblarida** ko‘rsatilgan istisno va qo‘shimchalar bilan birga fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalariga binoan ko‘rib chiqadi.

348-modda. Sudning ajrimlari ustidan shikoyat qilish

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ish bo‘yicha ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

39-bob. Hakamlik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish

349-modda. Hakamlik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashish

Hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga taalluqli nizoga doir hal qiluv qarori yuzasidan ushbu qarorni olgan kundan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza berish yo‘li bilan nizolashishi mumkin.

Hakamlik sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga taalluqli nizoga doir hal qiluv qarori yuzasidan huquqlari va majburiyatlari haqida hakamlik sudi hal qiluv qarorini qabul qilgan, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslar ham nizolashishi mumkin.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan joydagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga beriladi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza berilganligi hakamlik sudi hal qiluv qarorining ijrosi yuzasidan ish yuritishni fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan nizo bo‘yicha ish yuritish tugallanganigacha qadar to‘xtatib turadi.

350-modda. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizaning shakli va mazmuni

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida beriladi va hal qiluv qarori yuzasidan nizolashayotgan hakamlik muhokamasi tarafi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizada quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning nomi;
- 2) nizolashilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi, uning joylashgan yeri;
- 3) hakamlik muhokamasi taraflarining nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi), yashash joyi yoki turgan joyi (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo‘lsa, vakilning famiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi;
- 4) hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan sana;
- 5) hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining nizolashilayotgan hal qiluv qarorini olgan sana;
- 6) hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi talab va mazkur qaror qanday asoslar bo‘yicha nizolashilayotganligi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizada telefonlar, fakslar raqamlari, elektron pochta manzillari va boshqa ma‘lumotlar ko‘rsatilishi mumkin.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1) hakamlik sudi hal qiluv qarorining tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi. Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudi hal qiluv qarorining ko‘chirma nusxasi mazkur hakamlik sudining raisi tomonidan tasdiqlanadi, muvaqqat hakamlik sudining hal qiluv qarori ko‘chirma nusxasidagi hakamlik sudiasining imzosi notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi kerak;
- 2) hakamlik bitimining tegishli tarzda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi;
- 3) hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi talabni asoslash uchun taqdim etiladigan hujjatlar;

4) belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat.

(350-moddaning to‘rtinchi qismi 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O‘RQ-496-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son)

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza javobgarlar soniga qarab ko‘chirma nusxalari bilan birga fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza hakamlik muhokamasi tarafining vakili tomonidan berilgan bo‘lsa, unga ishonchnoma yoki vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi kerak.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza ushbu Kodeks 349-moddasining **birinchi** va **uchinchi qismlarida** nazarda tutilgan talablar, shuningdek ushbu modda qoidalari buzilgan holda berilgan bo‘lsa, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ushbu Kodeksning **194-moddasida** nazarda tutilgan qoidalarga binoan bunday arizani qabul qilishni rad etadi.

351-modda. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish tartibi

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga binoan sudya tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Sudya ishni hakamlik muhokamasi tarafining iltimosnomasiga binoan sud muhokamasiga tayyorlayotganda hal qiluv qarori fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda nizolashilayotgan ishning materiallarini hakamlik sudidan ushbu Kodeksda dalillarni talab qilib olish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan talab qilib olishi mumkin.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hakamlik muhokamasi taraflarini sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqti va joyi haqida belgilangan tartibda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

Sud ishni sud majlisida ko‘rib chiqayotganda hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish uchun ushbu Kodeksning **352-moddasida** nazarda tutilgan asoslar mavjudligini yoki mavjud emasligini bildirilgan talablar va e’tirozlarni asoslash uchun sudga taqdim etilgan dalillarni tekshirish yo‘li bilan aniqlaydi.

Sud ishni sud majlisida ko‘rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko‘rib chiqishga haqli emas.

352-modda. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari

Hakamlik sudining hal qiluv qarori, agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza bergan hakamlik muhokamasi tarafi quyidagilarni isbotlovchi dalillarni taqdim etsa, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan bekor qilinishi kerak:

1) hakamlik bitimining qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra haqiqiy emasligini;

2) hakamlik sudi hal qiluv qarorining hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to‘g‘ri kelmaydigan nizo bo‘yicha chiqarilganligini yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo‘yicha xulosalar mavjudligini. Agar hakamlik sudining hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo‘yicha xulosalarini bunday bitim bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo‘yicha xulosalaridan ajratib olish mumkin bo‘lsa, hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo‘yicha xulosalari bo‘lgan qismi bekor qilinishi mumkin;

3) hakamlik sudi tarkibining yoki hakamlik muhokamasining “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining **14, 15, 16** va **25-moddalari** qoidalarga muvofiq emasligini;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarori “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasining **birinchi** va **uchinchi qismlari** talablari buzilgan holda chiqarilganligini;

5) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf hakamlik sudylarini saylash (tayinlash) to'g'risida yoki hakamlik sudi majlisining vaqti va joyi haqida zarur tarzda xabardor qilinmaganligini hamda shu sababli u hakamlik sudiga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini.

Agar hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan nizo qonunga muvofiq hakamlik muhokamasining predmeti bo'lmasa, hakamlik sudining hal qiluv qarori sud tomonidan bekor qilinishi lozim.

353-modda. Sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ish bo'yicha ajrimi

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ushbu Kodeksda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga ko'ra ajrim chiqaradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi yoki hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish haqidagi ajrimida quyidagilar ham ko'rsatilishi lozim:

1) hakamlik sudining nizolashilayotgan hal qiluv qarori to'g'risidagi va mazkur qaror qabul qilingan joy haqidagi ma'lumotlar;

2) nizolashilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

3) hakamlik muhokamasi taraflarining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);

4) hakamlik sudining hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilishga yoxud arizachining talabini to'liq yoki qisman qanoatlantirishni rad etishga doir ko'rsatma.

Hakamlik sudi hal qiluv qarorining bekor qilinganligi hakamlik muhokamasi taraflarining, agar hakamlik sudiga murojaat etish imkoniyati yo'qolmagan bo'lsa, hakamlik bitimiga muvofiq hakamlik sudiga yangidan murojaat etishiga yoki ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga binoan fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat etishiga to'sqinlik qilmaydi.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik bitimi haqiqiy emasligi oqibatida yoki hal qiluv qarori hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligi yoxud unda hakamlik bitimida qamrab olinmagan masalalar bo'yicha xulosalar mavjudligi yoinki nizo hakamlik muhokamasining predmeti bo'lishi mumkin emasligi oqibatida fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan to'liq yoki qisman bekor qilingan bo'lsa, hakamlik muhokamasi taraflari bunday nizoni hal qilish uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan sudga murojaat etishi mumkin.

40-bob. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish

354-modda. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishning umumiy qoidalari

Ushbu bobda belgilangan qoidalar hakamlik muhokamasi taraflarining hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalari fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan ko'rib chiqilayotganda qo'llaniladi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi masala hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga chiqarilgan bo'lsa, o'sha tarafning arizasiga binoan fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza qarzdor yashaydigan joydagi yoki turgan joydagi yoxud, agar qarzdor yashaydigan joy yoki turgan joy noma'lum bo'lsa, uning mol-mulki turgan yerdagi fuqarolik ishlari bo'yicha sudga beriladi.

355-modda. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida beriladi va hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan fuqarolik ishlari bo'yicha sudning nomi;
- 2) hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi, joylashgan yeri;
- 3) hakamlik muhokamasi taraflarining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki turgan joyi (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;

- 4) hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan sana;

- 5) ariza bilan murojaat etgan hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining hal qiluv qarorini olgan sana;

- 6) hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi talab.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizada telefonlar, fakslar raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1) hakamlik sudi hal qiluv qarorining tasdiqlangan ko'chirma nusxasi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasi mazkur hakamlik sudining raisi tomonidan tasdiqlanadi, muvaqqat hakamlik sudi hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasidagi hakamlik sudyasining imzosi notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak;

- 2) hakamlik bitimining tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi;

- 3) belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

(355-moddaning to'rtinchi qismi 3-bandi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-496-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son)

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza qarzdorlarning soniga qarab ko'chirma nusxalar bilan birga sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza hakamlik muhokamasi tarafining vakili tomonidan berilgan bo'lsa, unga ishonchnoma yoki vakilning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi kerak.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza hakamlik sudining hal qiluv qarorini ixtiyoriy ijro etish muddati tugagan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay berilishi mumkin. Mazkur muddat fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan taqdirda, o'tkazib yuborilgan muddat tiklanishi mumkin.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza ushbu Kodeksning 354-moddasida nazarda tutilgan talablar, shuningdek ushbu modda qoidalari buzilgan holda berilgan bo'lsa, fuqarolik ishlari bo'yicha sud ushbu Kodeksning 194-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha bunday arizani qabul qilishni rad etadi.

356-modda. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish tartibi

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga binoan sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Sudya ishni hakamlik muhokamasi tarafining iltimosnomasiga binoan ijro varaqasi so‘ralayotgan ish materiallarini hakamlik sudidan ushbu Kodeksda dalillarni talab qilib olish uchun nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha talab qilib olishi mumkin.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hakamlik muhokamasi taraflarini sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqti va joyi haqida zarur tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

Sud ishni sud majlisida ko‘rib chiqayotganda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish uchun ushbu Kodeksning **357-moddasida** nazarda tutilgan asoslar mavjudligini yoki mavjud emasligini bildirilgan talablar va e‘tirozlarni asoslash uchun fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga taqdim etilgan dalillarni tekshirish yo‘li bilan aniqlaydi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ishni sud majlisida ko‘rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko‘rib chiqishga haqli emas.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza ushbu Kodeks 349-moddasining **uchinchi qismida** ko‘rsatilgan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning ish yurituvida bo‘lsa, mazkur hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza ko‘rib chiqilayotgan sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishni qarzdorning iltimosnomasiga binoan keyinga qoldirishi mumkin.

357-modda. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish asoslari

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha taraf:

1) hakamlik bitimi qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra haqiqiy emasligini;

2) hakamlik sudi hal qiluv qarorining hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to‘g‘ri kelmaydigan nizo bo‘yicha chiqarilganligini yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo‘yicha xulosalar mavjudligini. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorida hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo‘yicha xulosalarni bunday bitim bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo‘yicha xulosalardan ajratib olish mumkin bo‘lsa, sud hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo‘yicha xulosalar mavjud bo‘lgan qismi uchun ijro varaqasi beradi;

3) hakamlik sudi tarkibining yoki hakamlik muhokamasining “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining **14, 15, 16** va **25-moddalari** qoidalariga muvofiq emasligini;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarori “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasining **birinchi** va **uchinchi qismlari** talablari buzilgan holda chiqarilganligini;

5) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha taraf hakamlik sudylarini saylash (tayinlash) to‘g‘risida yoki hakamlik sudi majlisining vaqti va joyi haqida zarur tarzda xabardor qilinmaganligini hamda shu sababli u hakamlik sudiga o‘z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini;

6) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflari uchun hali majburiy bo‘lmaganligini yoki bekor qilinganligini yoxud uning ijrosi sud yoki iqtisodiy sud tomonidan to‘xtatib turilganligini isbotlovchi dalillarni taqdim etgan hollardagina rad etadi.

Agar hakamlik sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan nizo qonunga muvofiq hakamlik muhokamasining predmeti bo‘lmasa, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etadi.

358-modda. Sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ajrimi

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud hakamlig sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ushbu Kodeksda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hakamlig sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi yoki hakamlig sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish to'g'risidagi ajrimida quyidagilar ham ko'rsatilishi lozim:

- 1) hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlig sudining nomi va tarkibi;
- 2) hakamlig muhokamasi taraflarining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);
- 3) hakamlig sudining hal qiluv qarori to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 4) hakamlig sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish yoki ijro varaqasi berishni rad etish uchun ko'rsatma.

Hakamlig sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish rad etilganligi hakamlig muhokamasi taraflarining, agar hakamlig sudiga murojaat etish imkoniyati yo'qolmagan bo'lsa, hakamlig bitimiga muvofiq hakamlig sudiga yangidan murojaat etishiga yoki ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga binoan fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat etishiga to'sqinlik qilmaydi.

Agar hakamlig sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish hakamlig bitimining haqiqiy emasligi oqibatida yoki hal qiluv qarori hakamlig bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligi yoxud unda hakamlig bitimida qamrab olinmagan masalalar bo'yicha to'xtamlar mavjudligi yoinki nizo hakamlig muhokamasining predmeti bo'lishi mumkin emasligi oqibatida fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan to'liq yoki qisman rad etilgan bo'lsa, hakamlig muhokamasi taraflari bunday nizoni hal qilish uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga binoan fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat etishi mumkin.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hakamlig sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ajrimi darhol ijro etilishi kerak.

40¹-bob. Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish

358¹-modda. Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishning umumiy qoidalari

Mediativ kelishuv taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda, uni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ish mediativ kelishuv tuzgan tarafning arizasiga binoan ko'rib chiqiladi.

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza mediativ kelishuvni ixtiyoriy ravishda bajarmagan taraf yashaydigan joydagi yoki turgan joydagi yoxud, agar mediativ kelishuvni ixtiyoriy ravishda bajarmagan taraf yashaydigan joy yoki turgan joy noma'lum bo'lsa, uning mol-mulki turgan joydagi sudga beriladi.

358²-modda. Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza yozma shaklda yoki elektron hujjat tarzida beriladi va arizachi yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak.

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) mediativ kelishuv tuzgan taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki turgan joyi (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;
- 3) mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi talab.

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizada telefonlar, fakslar raqamlari, elektron pochta manzillari va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin.

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

1) mediativ kelishuvning asli yoki tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi;

2) belgilangan tartibda hamda miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza mediativ kelishuvni ixtiyoriy ravishda bajarmagan taraflarning soniga qarab ko'chirma nusxalari bilan birga sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno.

Agar mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza mediativ kelishuv tuzgan tarafning vakili tomonidan berilgan bo'lsa, unga ishonchnoma yoki vakilning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi kerak.

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza mediativ kelishuvni ixtiyoriy ijro etish muddati tugagan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay berilishi mumkin. Mazkur muddat sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan taqdirda, o'tkazib yuborilgan muddat tiklanishi mumkin.

Agar mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza ushbu Kodeksning [358¹-moddasida](#) nazarda tutilgan talablar, shuningdek ushbu moddaning [birinchi](#), [ikkinchi](#), [to'rtinchi](#), [beshinchi](#) va [oltinchi qismlari](#) qoidalari buzilgan holda berilgan bo'lsa, sudya bunday arizani ushbu Kodeksning [195-moddasida](#) nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha qaytaradi.

358³-modda. Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish tartibi

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga binoan sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Sud mediativ kelishuv tuzgan taraflarni sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqti va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish uchun ushbu Kodeksning [358⁴-moddasida](#) nazarda tutilgan asoslar mavjudligini yoki mavjud emasligini bildirilgan talablar va mediativ kelishuvda belgilangan majburiyatlar to'liq bajarilganligini yoxud bajarilmaganligini aniqlaydi.

Sud arizani sud majlisida ko'rib chiqayotganda mediativ kelishuvni tuzishga sabab bo'lgan nizoni mazmunan ko'rib chiqishga haqli emas.

358⁴-modda. Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish asoslari

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish quyidagi hollarda rad etiladi, agar:

mediativ kelishuv qonunchilikka zid bo'lsa;

mediativ kelishuvning ijro etilishi talab qilinayotgan shartlari o'zgartirilgan yoki bekor qilingan bo'lsa;

mediativ kelishuvda belgilangan majburiyatlar to'liq bajarilgan bo'lsa;

mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza mediativ kelishuvni ixtiyoriy ijro etish muddati tugagan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin berilgan bo'lsa, bundan o'tkazib yuborilgan muddat sud tomonidan uzrli deb topilgan va tiklangan hollar mustasno.

Agar mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish rad etilgan bo'lsa, mediativ kelishuvni tuzgan taraflar bunday nizoni hal qilish uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga binoan sudga murojaat etishi mumkin.

358⁵-modda. Sudning mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza bo'yicha ajrimi

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud ushbu Kodeksda hal qiluv qarorini qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga ko'ra ajrim chiqaradi.

Sudning mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi yoki mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish to'g'risidagi ajrimida quyidagilar ham ko'rsatilishi kerak:

1) mediativ kelishuv tuzgan taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);

2) mediativ kelishuv to'g'risidagi ma'lumotlar;

3) mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish yoki ijro varaqasi berishni rad etish uchun ko'rsatma.

Sudning mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ajrimi darhol ijro etilishi lozim.

Sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

(40¹-bob O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O'RQ-1089-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son)

III BO'LIM. FUQAROLIK PROTSESSIDA CHET EL FUQAROLARI VA TASHKILOTLARINING, FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLARNING ISHTIROKI

41-bob. Umumiy qoidalar

359-modda. Chet el fuqarolari va tashkilotlarining fuqarolik protsessual huquqlari

Chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga ega va ular fuqarolik protsessual huquqlardan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda foydalanadi.

Chet el tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga ega va ular o'z manfaatlarini himoya qilish uchun fuqarolik protsessual huquqlardan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlarining fuqarolik protsessual huquqlarining maxsus cheklanishiga yo'l qo'yilgan davlatlarning fuqarolari va tashkilotlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javob tariqasidagi cheklovlar belgilanishi mumkin.

(359-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

360-modda. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik protsessual huquqlari

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga ega va ular fuqarolik protsessual huquqlardan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda foydalanadi.

361-modda. Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etayotgan nizolar, shuningdek loaqal bittasi chet elda yashab turgan taraflar o'rtasidagi nizolar bo'yicha fuqarolik ishlari O'zbekiston Respublikasi sudlarining sudloviga tegishli bo'lishi

Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etayotgan nizolar, shuningdek loaqal bittasi chet elda yashab turgan taraflar o'rtasidagi nizolar bo'yicha fuqarolik ishlari O'zbekiston Respublikasi sudlarining sudloviga tegishli bo'lishi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Kodeks bilan belgilanadi.

362-modda. Chet davlatlarga nisbatan da'volar

Chet davlatga nisbatan da'vo taqdim etilishiga, da'voning ta'minlanishiga va undiruvning chet davlatning O'zbekiston Respublikasidagi mol-mulkiga qaratilishiga faqat tegishli davlatning vakolatli organlari roziligi bilan yo'l qo'yilishi mumkin.

Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakillari hamda ularga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari faqat O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari yoki xalqaro huquq normalari bilan belgilanadigan doiradagina O'zbekiston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudining yurisdiksiyasida bo'ladi.

363-modda. Chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlariga topshiriqlar bilan murojaat qilishi

O'zbekiston Respublikasi sudlari chet davlat sudlarining ayrim protsessual harakatlarni (chaqiruv qog'ozlari va boshqa hujjatlarni topshirish, taraflar va guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza o'tkazish, joyida ko'zdan kechirish va hokazo) bajarish to'g'risida belgilangan tartibda bergan topshiriqlarini ijro etadi. Bundan quyidagi hollar mustasno:

1) topshiriqni ijro etish O'zbekiston Respublikasi suverenitetiga, xavfsizligiga zarar yetkazsa yoki qonunchilikning asosiy prinsiplariga zid bo'lsa;

(363-modda birinchi qismining 1-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) topshiriqni ijro etish sudning vakolati doirasiga kirmasa.

Chet davlat sudlarining ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi topshiriqlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida ijro etiladi.

(363-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston Respublikasi sudlari chet davlat sudlariga ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risida topshiriqlar bilan murojaat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlari bilan aloqada bo'lish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi.

(363-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

42-bob. Chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish hamda ijro etish

364-modda. Chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish

Chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlari, agar bu O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan bo'lsa, tan olinadi hamda ijroga qaratiladi.

Chet davlat sudlarining fuqarolik ishlari yuzasidan hal qiluv qarorlari, jinoyat ishlari bo'yicha chiqarilgan hukmlarining jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining o'rnini qoplashga oid qismi, shuningdek chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) fuqarolik nizolari bo'yicha chiqargan hal qiluv qarorlari O'zbekiston Respublikasining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari tomonidan tan olinishi hamda ijroga qaratilishi mumkin.

Chet davlat sudlarining yoki chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarori, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, u qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran uch yil muddat ichida majburiy ijroga qaratilishi mumkin.

365-modda. Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ariza

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ariza hal qiluv qarori foydasiga chiqarilgan nizo tarafi (bundan buyon matnda undiruvchi deb yuritiladi) tomonidan qarzdorning yashash joyidagi yoki turgan joyidagi sudga, agar yashash joyi va turgan joyi noma'lum bo'lsa, uning mulki turgan joydagi sudga beriladi.

366-modda. Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risidagi ariza yozma shaklda beriladi va undiruvchi yoki uning vakili tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Arizada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

1) ariza berilayotgan sudning nomi;

2) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) nomi va joylashgan yeri;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki turgan joyi (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi;

4) undiruvchi e'tirof etilishini va ijro etilishini iltimos qilayotgan chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarori haqidagi ma'lumotlar;

5) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risida undiruvchining iltimosnomasi;

6) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Arizada undiruvchining yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Ariza undiruvchilarning soniga qarab ko'chirma nusxalari bilan birga sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno.

367-modda. Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaga ilova qilinadigan hujjatlar

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) undiruvchi tan olinishi va ijroga qaratilishini iltimos qilayotgan hal qiluv qarorining chet davlat yoki O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxasi;

2) hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirganligi to'g'risidagi rasmiy hujjat, agar bu qaror matnining o'zidan kelib chiqmasa;

3) hal qiluv qarori ilgari tegishli chet davlat hududida ijro etilgan bo'lsa, uning ijro etilganligi to'g'risidagi hujjat;

4) hal qiluv qarori o'z zarariga chiqarilgan va protsessda ishtirok etmagan taraf ishni ko'rib chiqish vaqti va joyi to'g'risida o'z vaqtida hamda tegishli tarzda xabardor qilinganligiga oid hujjat;

5) vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma yoki boshqa hujjat;

6) agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida davlat bojini va pochta xarajatlarini to'lashdan ozod qilish nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

(367-moddaning 6-bandi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-496-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son)

7) mazkur moddaning 1 — 5-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarning, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tiliga qilingan, belgilangan tartibda tasdiqlangan tarjimasi.

368-modda. Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizani qaytarish

Sud chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizani qabul qilish haqidagi masalani hal etishda ariza ushbu Kodeksning 366, 367-moddalari talablari buzilgan holda berilganligini aniqlasa, arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni undiruvchiga qaytaradi.

Sud arizani qaytarish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Ajrim, ariza va unga ilova qilingan hujjatlar undiruvchiga ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran besh kun ichida yuboriladi.

Arizani qaytarish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin undiruvchi sudga umumiy tartibda yangidan ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

369-modda. Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish tartibi

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ariza, agar O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, u sudga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oydan oshmaydigan muddatda sud majlisida ko'rib chiqiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinadi. Sud majlisining vaqti va joyi haqida belgilangan tartibda xabardor qilingan shaxslarning sudga kelmaganligi ishni ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Sud arizani ko'rib chiqishda sudga taqdim etilgan, arz qilingan talablarni va bildirilgan e'tirozlarni asoslovchi dalillarni tekshirish yo'li bilan holatlarni aniqlaydi.

Sud arizani ko'rib chiqishda chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqishga haqli emas.

370-modda. Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olishni va ijroga qaratishni rad etish asoslari

Sud chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olishni va ijroga qaratishni quyidagi hollarda to'liq yoki qisman rad etadi, agar:

1) hududida hal qiluv qarori qabul qilingan davlatning qonuniga binoan u qonuniy kuchga kirmagan bo'lsa;

2) hal qiluv qarori o'z zarariga qabul qilingan taraf ishni ko'rib chiqish vaqti va joyi to'g'risida o'z vaqtida hamda belgilangan tartibda xabardor qilinmagan yoki boshqa sabablarga ko'ra sudga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmagan bo'lsa;

3) ishni ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarga yoki qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi sudining mutlaq vakolatiga tegishli bo'lsa;

(370-modda birinchi qismining 3-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4) O'zbekiston Respublikasi sudining ayni bir taraflar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa;

5) O'zbekiston Respublikasi sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizoga doir ish mavjud bo'lib, u yuzasidan ish yuritish chet davlat sudida ishni yuritish qo'zg'atilganidan oldin qo'zg'atilgan bo'lsa;

6) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini majburiy ijroga qaratish muddati o'tgan bo'lib, bu muddat sud tomonidan tiklanmagan bo'lsa;

7) taraf nizoning vakolati bo'lmagan chet davlat sudi tomonidan hal etilganligini isbotlovchi dalilni taqdim etgan bo'lsa;

8) hal qiluv qarori chet davlatning vakolatli organi tomonidan bekor qilingan bo'lsa;

9) hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasining chet davlat sudi yoki chet davlat hakamlik sudi (arbitraji) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq xalqaro shartnomalari ishtirokchisi bo'lmagan chet davlat sudi tomonidan chiqarilgan bo'lsa;

10) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, xavfsizligiga zarar yetkazsa yoki qonunchilikning asosiy prinsiplariga zid bo'lsa.

(370-modda birinchi qismining 10-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham rad etilishi mumkin.

371-modda. Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ish bo'yicha sud ajrimi

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud ushbu Kodeksning **24-bobida** belgilangan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi.

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ish bo'yicha sud ajrimida, shuningdek quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) nomi va joylashgan yeri;

undiruvchining va qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);

chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) undiruvchi tan olinishi va ijroga qaratilishini so'rayotgan hal qiluv qarori to'g'risidagi ma'lumotlar;

hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish haqidagi yoxud uni e'tirof etishni va ijro etishni rad qilish to'g'risidagi ko'rsatma.

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

372-modda. Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini ijro etish

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini ijro etish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risida ajrim chiqargan sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

(372-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

IV BO'LIM. SUD HUJJATLARINI QAYTA KO'RISH

(43-bob O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

43-bob. Umumiy qoidalar

372¹-modda. Sud hujjatining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliliigi yuzasidan tekshiruv qo'zg'atish

Sud hujjatining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliliigi yuzasidan tekshiruv:

1) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyati yoki apellyatsiya protesti bo'yicha;

2) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo'yicha;

3) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori ustidan berilgan kassatsiya shikoyati yoki kassatsiya protesti bo'yicha;

4) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo'yicha;

5) birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan, shuningdek mazkur sud hujjatlarini ko'rib chiqqan apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining, tegishli taftish instansiyasi sudining ajrimi, qarori ustidan berilgan taftish shikoyati yoki taftish protesti bo'yicha qo'zg'atiladi.

372²-modda. Sud hujjatini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari

Sud hujjatini apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida bekor qilish yoki o'zgartirish uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- 1) ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning to'liq aniqlanmaganligi;
 - 2) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi;
 - 3) sud hujjatida bayon etilgan sud xulosalarining ish holatlariga muvofiq emasligi;
 - 4) bildirilgan talab bo'yicha sud tomonidan sud hujjatining qabul qilinmaganligi;
 - 5) moddiy va protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligi.
- Sudning mazmunan to'g'ri bo'lgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori faqat rasmiy asoslarga ko'ra bekor qilinishi mumkin emas.

Sud xarajatlarini taqsimlash to'g'risidagi masalaning hal qilinmaganligi yoki noto'g'ri hal qilinganligi sudning hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asos bo'lmaydi. Bunday holda ajrimning xulosa qismida sud xarajatlari ushbu Kodeksning 138 — 141-moddalarida nazarda tutilgan tartibda taqsimlanishi ko'rsatiladi.

372³-modda. Moddiy huquq normalarini buzish yoki noto'g'ri qo'llash

Quyidagi hollarda moddiy huquq normalari buzilgan yoki noto'g'ri qo'llanilgan deb hisoblanadi, agar sud:

- 1) qo'llanilishi lozim bo'lgan qonunni yoki boshqa qonunchilik hujjatini qo'llamagan bo'lsa;
- 2) qo'llanilmasligi lozim bo'lgan qonunni yoki boshqa qonunchilik hujjatini qo'llagan bo'lsa;
- 3) qonunni yoki boshqa qonunchilik hujjatini noto'g'ri talqin qilgan bo'lsa.

372⁴-modda. Protsessual huquq normalarini buzish yoki noto'g'ri qo'llash

Protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligi ishning noto'g'ri hal etilishiga sabab bo'lgan yoki sabab bo'lishi mumkin bo'lgan taqdirdagina sudning hal qiluv qarorini, ajrimini, qarorini bekor qilinishiga asos bo'ladi.

Agar:

- 1) ish sud tomonidan g'ayriqonuniy tarkibda yoki taalluqlilik to'g'risidagi qoidalar buzilgan holda ko'rilgan bo'lsa;
- 2) ish sud tomonidan sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinmagan shaxslardan biror-biri yo'qligida ko'rilgan bo'lsa;
- 3) ish ko'rilayotganida sud ishlari yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo'lsa;
- 4) sud ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi masalani hal qilgan bo'lsa;
- 5) sudning hal qiluv qarorini, ajrimini, qarorini chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo'lsa;
- 6) hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko'rgan va hal qilgan sudyalardan (sudyadan) boshqa sudyalar (sudya) tomonidan imzolangan bo'lsa;
- 7) sud majlisi bayonnomasi imzolanmagan bo'lsa, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ham bekor qilinishi mumkin.

372⁵-modda. Apellyatsiya, kassatsiya, taftish instansiyasi sudi ajrimining, qarorining mazmuni

Apellyatsiya, kassatsiya, taftish instansiyasi sudining ajrimida, qarorida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) ishning raqami, ajrim, qaror chiqarilgan vaqt va joy;
- 2) ajrim, qaror qabul qilgan sudning nomi va tarkibi;
- 3) taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 4) ish kimning shikoyati (protesti) bo'yicha ko'rib chiqilganligi;

5) shikoyat qilingan (protest keltirilgan) sud hujjatining nomi va uning qisqacha mazmuni;
6) shikoyatda (protestda) bayon etilgan vajlar, taqdim etilgan materiallarning qisqacha mazmuni, ishni ko‘rishda ishtirok etgan shaxslarning tushuntirishlari, prokurorning fikri;

7) apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudi xulosaga kelishiga asos bo‘lgan sabablar hamda sud amal qilgan moddiy va protsessual huquq normalariga havola;

8) ajrimning, qarorning xulosa qismi.

Apellyatsiya, kassatsiya, taftish instansiyasi sudining ajrimi, qarori ishni ko‘rgan sudyalardan tomonidan imzolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarori majlisda raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

Sud shikoyatni (protestni) rad qilgan taqdirda o‘z ajrimida, qarorida qaysi sabablarga ko‘ra shikoyatdagi (protestdagi) vajlar noto‘g‘ri deb yoki sud hujjatini bekor qilish yoxud o‘zgartirish uchun asos bo‘lmaydi deb topilganligini ko‘rsatishi shart.

372⁶-modda. Apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudi ajrimining, qarorining qonuniy kuchga kirishi

Apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudining ajrimi, qarori qabul qilinganidan keyin darhol qonuniy kuchga kiradi.

(43-bob O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

44-bob. Apellyatsiya instansiyasi sudida ish yuritish

383-modda. Apellyatsiya shikoyati (protesti) berish huquqi

Taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilishi mumkin, bundan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan nizolar mustasno.

Prokuror, yuqori turuvchi prokuror prokurorning ishtirokida ko‘rilgan ish bo‘yicha yoki qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo‘lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko‘rilgan ish bo‘yicha, shuningdek ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarning murojaati mavjud bo‘lgan taqdirda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan sud hujjati ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli.

(383-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrda O‘RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

384-modda. Apellyatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘rib chiqadigan sudlar

Quyidagilar:

1) Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati — tegishli fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining birinchi instansiya bo‘yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan;

2) O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi — hududiy harbiy sudlarning hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining birinchi instansiya bo‘yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan;

3) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining birinchi instansiya bo‘yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan apellyatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘rib chiqadi.

(384-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

385-modda. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi

Apellyatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya instansiyasi sudining nomiga yo'llanadi, lekin hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni qabul qilgan sudga beriladi.

Sud hujjatini qabul qilgan sud apellyatsiya shikoyati (protesti) kelib tushgan kundan e'tiboran besh kunlik muddatda uni apellyatsiya instansiyasi sudiga ish bilan birga yuborishi shart.

(385-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

385¹-modda. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati

Apellyatsiya shikoyati (protesti) sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida berilishi mumkin.

Sudning soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan, shuningdek o'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ishlar bo'yicha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o'n kun ichida berilishi mumkin.

(385¹-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrda O'RQ-997-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.11.2024-y., 03/24/997/0923-son)

O'tkazib yuborilgan muddat, agar iltimosnoma hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran uch oydan kechiktirmay berilgan va muddatni o'tkazib yuborish sabablari uzrli deb topilgan bo'lsa, apellyatsiya shikoyati (protesti) berayotgan shaxsning iltimosnomasiga ko'ra apellyatsiya instansiyasi sudining sudyasi tomonidan tiklanishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) berishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash haqida apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish muddatini tiklashni rad etish haqida apellyatsiya shikoyatini (protestini) qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

(385¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

386-modda. Apellyatsiya shikoyatining (protestining) mazmuni

Apellyatsiya shikoyatida (protestida) quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) shikoyat (protest) yo'llanayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);
- 3) ishning raqami, shikoyat qilinayotgan (protest keltirilayotgan) hal qiluv qarori, ajrim, qaror qabul qilingan sana va ushbu sud hujjatlarini qabul qilgan sud;

(386-modda birinchi qismining 3-bandi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

- 4) hal qiluv qarorining, ajrimning, qarorning noto'g'riligi nimadan iborat ekanligi;
- 5) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosi;
- 6) shikoyatga (protestga) ilova qilingan yozma materiallarning ro'yxati.

Apellyatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi. Apellyatsiya protestini prokuror yoki uning o'rinbosari keltiradi va imzolaydi.

Apellyatsiya shikoyatida (protestida) shikoyatni (protestni) bergan shaxsning yoxud uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin.

387-modda. Apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) ilova qilinadigan hujjatlar

Apellyatsiya shikoyatiga quyidagilar ilova qilinadi:
davlat boji va pochta xarajatlari to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat;
apellyatsiya shikoyati vakil tomonidan imzolangan taqdirda — uni imzolashga bo‘lgan vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) sudga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko‘chirma nusxalari bilan birga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan apellyatsiya shikoyati (protesti) mustasno.

Zarur hollarda, sudya apellyatsiya shikoyati (protesti) berayotgan shaxsning zimmasiga apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) ilova qilingan yozma materiallarning ko‘chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab taqdim etish majburiyatini yuklatishi mumkin.

Prokuror ishtirokisiz ko‘rib chiqilgan ish bo‘yicha apellyatsiya protestiga ushbu Kodeks 383-moddasining **birinchi qismida** ko‘rsatilgan shaxslarning mazkur protestni keltirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan murojaatining ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi. Bundan qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo‘lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko‘rilgan ishlar mustasno.

(387-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi O‘RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

Sudning arizani qaytarish haqidagi yoki arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) qaytarilgan ariza va sudga taqdim etishda unga qo‘shib berilgan hujjatlar ham ilova qilinishi kerak.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilinganda yoki xodim bir ishdan boshqa ishga g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazilganida uni ilgarigi ishiga tiklash to‘g‘risida sud chiqargan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) ushbu qarorning ijrosiga doir hujjat ilova qilingan taqdirdagina qabul qilinadi.

(387-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

388-modda. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risidagi masalani hal etish tartibi va muddati

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish, qabul qilishni rad etish yoki ish yuritishga qabul qilish masalasi apellyatsiya instansiyasi sudining sudyasi tomonidan yakka tartibda shikoyat (protest) sudga kelib tushgan kundan e‘tiboran besh kundan kechiktirmay hal qilinadi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish, qabul qilishni rad etish yoki ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risida ajrim chiqariladi, uning ko‘chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga u chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay, ushbu Kodeksning **270-moddasida** nazarda tutilgan tartibda yuboriladi.

(388-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

389-modda. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish

Apellyatsiya shikoyati (protesti) sudya tomonidan quyidagi hollarda qaytariladi, agar:

1) apellyatsiya shikoyati (protesti) imzolanmagan bo‘lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan yoxud mansab mavqeyi yoki familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari ko‘rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo‘lsa;

2) apellyatsiya shikoyatining (protestining) mazmuni ushbu Kodeksning **386-moddasida** nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo‘lmasa yoki apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) ushbu Kodeks 387-moddasining ikkinchi, to‘rtinchi — oltinchi qismlarida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan bo‘lsa;

3) apellyatsiya shikoyatiga davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda hamda miqdorda to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinmagan bo‘lsa, qonunda davlat bojini to‘lashni kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki uning miqdorini kamaytirish imkoniyati nazarda tutilgan hollarda esa bu haqda iltimosnoma mavjud bo‘lmasa yoxud iltimosnoma rad etilgan bo‘lsa;

4) apellyatsiya shikoyati (protesti) sud hujjatini qabul qilgan sudni chetlab o'tgan holda yuborilgan bo'lsa;

5) apellyatsiya shikoyati (protesti) belgilangan muddat o'tganidan keyin berilgan bo'lsa va o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma mavjud bo'lmasa;

6) apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilguniga qadar shikoyatni (protestni) bergan shaxsdan uni qaytarib olish (chaqirib olish) haqida ariza tushgan bo'lsa.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish to'g'risidagi ajrimda shikoyatni (protestni) qaytarish asoslari ko'rsatiladi, apellyatsiya shikoyatini berishda to'langan davlat bojini qaytarish haqidagi masala hal etiladi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish to'g'risidagi ajrim ustidan taftish shikoyati (protesti) berilishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish to'g'risidagi ajrim bekor qilingan taqdirda, shikoyat (protest) sudga dastlab murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganidan keyin shikoyat (protest) bergan shaxs sudga umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

(389-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

389¹-modda. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish

Sudya apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi, agar:

1) apellyatsiya shikoyati (protesti) sud hujjati ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

2) apellyatsiya shikoyati (protesti) qonunga muvofiq apellyatsiya tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin bo'lmagan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

3) apellyatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

4) apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o'tkazib yuborilgan va o'tkazilgan muddatni tiklash rad etilgan bo'lsa;

5) apellyatsiya shikoyatidan (protestidan) uni bergan shaxs voz kechganligi (uni chaqirib olganligi) sababli apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risida ajrim mavjud bo'lsa.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish asoslari ko'rsatiladi, apellyatsiya shikoyatini berishda to'langan davlat bojini qaytarish haqidagi masala hal etiladi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan taftish shikoyati (protesti) berilishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim bekor qilingan taqdirda, shikoyat (protest) sudga dastlab murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

389²-modda. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish

Ushbu Kodeksda belgilangan shakl va mazmun talablariga rioya etilgan holda berilgan apellyatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya instansiyasi sudining ish yurituviga qabul qilinadi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rib chiqish bo'yicha sud majlisini o'tkazish vaqti va joyi ko'rsatiladi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) bergan shaxs, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishni apellyatsiya instansiyasida ko'rish vaqti va joyi haqida xabardor qilinadi. Ish muhokamasining

vaqti va joyi to'g'risida belgilangan tartibda xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi ishning apellyatsiya tartibida ko'rilishiga to'sqinlik qilmaydi.

389³-modda. Apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan hal qiluv qarorining ijrosini to'xtatib turish

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra, apellyatsiya shikoyati (protesti) uni berish muddati o'tkazib yuborilgan holda berilgan va mazkur muddatni tiklash to'g'risidagi iltimosnoma qanoatlantirilgan taqdirda, apellyatsiya instansiyasi sudi (sudyasi) birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorining ijrosini apellyatsiya instansiyasida ish yuritish tamomlanguniga qadar to'xtatib turadi, bundan darhol ijro etilishi lozim bo'lgan hal qiluv qarorlari mustasno.

Hal qiluv qarorining ijrosini to'xtatib turish haqida apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

389⁴-modda. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldirish

Agar apellyatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilinganidan keyin shikoyatning (protestning) imzolanmaganligi yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lmagan yoxud mansab mavqeyi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolanganligi aniqlansa, apellyatsiya instansiyasi sudi shikoyatni (protestni) ko'rmasdan qoldiradi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldirish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holat bartaraf etilganidan keyin shikoyat (protest) ushbu Kodeksda belgilangan tartibda sudga yangidan berilishi mumkin.

389⁵-modda. Apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni tugatish

Apellyatsiya instansiyasi sudi apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni quyidagi hollarda tugatadi, agar:

1) apellyatsiya shikoyati (protesti) ushbu Kodeksga muvofiq shikoyat qilinmaydigan (protest keltirilmaydigan) sud hujjati ustidan berilgan va u ish yuritishga xatoga yo'l qo'yilib qabul qilingan bo'lsa;

2) apellyatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan va u ish yuritishga xatoga yo'l qo'yilib qabul qilingan bo'lsa;

3) apellyatsiya shikoyati (protesti) sud hujjati ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

4) apellyatsiya shikoyatidan voz kechish to'g'risidagi ariza apellyatsiya shikoyatini bergan shaxsdan apellyatsiya shikoyati ish yuritishga qabul qilinganidan keyin kelib tushgan bo'lsa;

5) protestni chaqirib olish to'g'risidagi ariza protest keltirgan prokurordan yoki yuqori turuvchi prokurordan apellyatsiya protesti ish yuritishga qabul qilinganidan keyin kelib tushgan bo'lsa;

6) ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar tugatilgan bo'lsa;

7) ishda taraf bo'lgan fuqaro apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar vafot etsa, nizoli huquqiy munosabat esa huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risida ajrim chiqariladi, unda sud xarajatlarini taraflar o'rtasida taqsimlash to'g'risidagi masala hal etiladi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritish tugatilgan taqdirda, ayni bir shaxsning ayni shu asoslar bo'yicha apellyatsiya shikoyati (protesti) bilan sudga takroran murojaat qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

(389¹ — 389⁵-moddalar O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

390-modda. Apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) qo'shilish

Sud protsessida apellyatsiya shikoyati bergan taraf tomonida ishtirok etayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo'shilishi mumkin. Mazkur shaxslar keltirilgan apellyatsiya protestiga ham qo'shilishi mumkin.

Shikoyatga (protestga) qo'shilish haqida ariza berilganda davlat boji undirilmaydi.

391-modda. Apellyatsiya shikoyati (protesti) yuzasidan tushuntirish berish (e'tiroz bildirish)

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat (protest) yuzasidan sudga tushuntirishlar (e'tirozlar) ularni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib, taqdim etishga haqli.

Tushuntirishlar (e'tirozlar) ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga qarab mutanosib miqdordagi ko'chirma nusxalari bilan birga sudga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan tushuntirishlar (e'tirozlar) mustasno. Sud tushuntirishlarning (e'tirozlarning) ko'chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi (yuboradi).

(392-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son)

393-modda. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) to'ldirish, o'zgartirish, shikoyatdan voz kechish va protestni qaytarib olish

Apellyatsiya shikoyati bergan shaxs apellyatsiya instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar shikoyatni to'ldirishga, o'zgartirishga yoki undan voz kechishga haqli.

Apellyatsiya protesti keltirgan prokuror, shuningdek yuqori turuvchi prokuror apellyatsiya instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar protestni to'ldirishga, o'zgartirishga yoki qaytarib olishga haqli.

Shikoyatdan voz kechilganda va protest qaytarib olingan taqdirda, apellyatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqaradi hamda unga ko'ra apellyatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) rad etilganligi (qaytarib olinganligi) sababli mazkur shikoyat (protest) bo'yicha apellyatsiya tartibida ish yuritishning tugatilishi, agar tegishli sud qarori ustidan boshqa shaxslar tomonidan shikoyat qilingan bo'lsa, boshqa apellyatsiya shikoyatlarini (protestini) ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

394-modda. Da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi

Apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgandan keyin da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida apellyatsiya instansiyasi sudiga taqdim etilishi kerak.

Agar ish muhokamasi davomida da'vogar arz qilingan talablaridan voz kechsa, javobgar bildirilgan talablarni tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzsa, bu haqda sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi.

Sud da'vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da'vogarga yoki taraflarga bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishini qabul qilganida yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlaganida chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi.

Agar da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa yoxud boshqa bironing huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga xilof bo'lsa, sud voz kechishni qabul qilmaydi yoxud tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadi va ishni apellyatsiya tartibida ko'rib chiqadi.

395-modda. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish muddati

Apellyatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyatini (protestini) apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqadi.

(395-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Sudning soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan, shuningdek o'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ishlar bo'yicha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) u sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida ko'rib chiqiladi.

(395-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrda O'RQ-997-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.11.2024-y., 03/24/997/0923-son)

Alohida hollarda, apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rib chiqish muddati ishni ko'rayotgan sudlov hay'ati tomonidan ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin.

396-modda. Apellyatsiya instansiyasi sudining ishni ko'rish doirasi

Sud ishni apellyatsiya tartibida ko'rayotganda sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliligini tekshiradi. U yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

Apellyatsiya instansiyasi sudi sud hujjatini to'liq hajmda tekshirib chiqishi shart.

397-modda. Apellyatsiya instansiyasi sudida ishlarni ko'rish tartibi

Apellyatsiya instansiyasi sudida sud muhokamasi mazkur moddada belgilangan xususiyatlarni inobatga olgan holda, ushbu Kodeksning 22-bobida belgilangan qoidalar bo'yicha o'tkaziladi.

Apellyatsiya instansiyasi sudining majlisida raislik qiluvchi ushbu Kodeksning 211 va 212-moddalariga amal qilgan holda, sud majlisida tegishli tartibni ta'minlashga doir zarur choralarni ko'radi.

Raislik qiluvchi sud majlisini ochadi va kimning shikoyati (protesti) bo'yicha hamda qaysi sudning hal qiluv qarori ustidan qanday ish ko'rilishini e'lon qiladi. Raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qaysi biri kelmaganligini, kelmaganlik sabablari to'g'risida qanday ma'lumotlar borligini aniqlaydi, sudga kelganlarning shaxsini aniqlaydi, shuningdek mansabdor shaxslarning va vakillarning vakolatlarini tekshiradi.

Raislik qiluvchi sud tarkibini e'lon qiladi, sud majlisining kotibi, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon sifatida kimlar ishtirok etayotganligini e'lon qiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning rad qilishga doir huquqlarini tushuntiradi.

Arz qilingan rad qilishlar ushbu Kodeksning 4-bobida belgilangan tartibda hal etiladi.

Raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi.

Ishni ko'rish vaqti va joyi haqida belgilangan tartibda xabardor qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmagan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning biror-biri sud majlisiga kelmagan taqdirda, sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi.

Ishni ko'rish vaqti va joyi haqida belgilangan tartibda xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud majlisiga kelmaganligi ishning muhokamasiga to'sqinlik qilmaydi. Biroq sud bunday hollarda ham sudga kelmaganlik sabablarini uzrli deb topib, ishning muhokamasini keyinga qoldirishga haqli.

Prokurorning yoki advokatning sudga uzrli sabablarsiz kelmaganligi to'g'risida sud xususiy ajrim chiqarib, bu haqda tegishli yuqori turuvchi prokurorga yoki O'zbekiston Respublikasi advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga xabar beradi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning apellyatsiya instansiyasida ishning muhokamasi bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar bo'yicha iltimosnomalari va arizalari ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning fikrlari eshitilgandan keyin sud tomonidan hal etiladi.

Apellyatsiya instansiyasi sudida ishni ko'rish raislik qiluvchining yoki sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi.

Ma'ruzachi ishning holatlarini, birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining mazmunini, apellyatsiya shikoyatida (protestida) keltirilgan vajlarni va ular yuzasidan berilgan tushuntirishlarni

(e'tirozlarni), yangi dalillarning mazmunini, shuningdek sud hujjatining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish uchun sud ko'rish zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni bayon qiladi.

Sud raislik qiluvchining yoki sudyalardan birining ma'ruzasidan keyin sud majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitadi, bu shaxslar apellyatsiya shikoyatida (protestida) ko'rsatilmagan vajlarni keltirishga va qo'shimcha materiallar taqdim etishga ham haqli.

Dastlab apellyatsiya shikoyati bergan shaxs va uning vakili yoki, agar ish protest bo'yicha ko'rilayotgan bo'lsa, prokuror so'zga chiqadi. Hal qiluv qarori ustidan har ikkala taraf tomonidan shikoyat qilingan bo'lsa, birinchi bo'lib da'vogar so'zga chiqadi.

Ushbu Kodeksning **52-moddasida** nazarda tutilgan tartibda ishda ishtirok etuvchi davlat boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning vakillari, shuningdek fuqarolar, agar ular sudning hujjati ustidan shikoyat qilmagan bo'lsa, apellyatsiya instansiyasi sudida taraflar va uchinchi shaxslardan keyin so'zga chiqadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlaridan so'ng prokuror sud hujjatining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi to'g'risida fikrini bayon etadi, bundan prokurorning protesti bo'yicha qayta ko'rilayotgan sud hujjatlari mustasno.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari va prokuror fikri eshitilgandan so'ng apellyatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) kiradi.

Apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi ish ko'rilgandan so'ng darhol chiqariladi.

Alohida hollarda, asoslantirilgan ajrimni tayyorlash besh kungacha bo'lgan muddatga kechiktirilishi mumkin, biroq ajrimning xulosa qismini sud apellyatsiya muhokamasi tamomlangan majlisning o'zidayoq e'lon qilishi kerak.

Sudyalarning maslahatlashuvi, ajrim chiqarish va uni o'qib eshittirish ushbu Kodeksda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

398-modda. Apellyatsiya instansiyasi sudida ish yuritishni to'xtatib turish

Apellyatsiya instansiyasi sudi ish yuritishni ushbu Kodeksning **10-bobida** nazarda tutilgan tartibda to'xtatib turadi.

399-modda. Apellyatsiya instansiyasi sudining vakolatlari

Sud ishni apellyatsiya tartibida ko'rib chiqqach, o'z ajrimi bilan:

- 1) hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni o'zgarishsiz qoldirishga;
- 2) hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni to'liq yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarishga;
- 3) hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni to'liq yoki qisman o'zgartirishga;
- 4) hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilishga hamda ushbu Kodeksda ko'rsatilgan asoslarga ko'ra arizani ko'rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni to'liq yoki qisman tugatishga;
- 5) agar ish sudga taalluqlilik to'g'risidagi qoidalar buzilgan holda ko'rib chiqilgan bo'lsa, hal qiluv qarorini bekor qilishga va ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko'ra boshqa sudga yuborishga haqli.

Ushbu Kodeks 372²-moddasi birinchi qismining **4-bandida** va 372⁴-moddasi ikkinchi qismining **2 va 4-bandlarida** nazarda tutilgan asoslar aniqlanganda, apellyatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo'yicha ko'radi. Ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo'yicha ko'rishga o'tish haqida ajrim chiqarilib, unda bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar ko'rsatiladi.

(399-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

(399¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son)

(399²-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son)

(399³-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotadi — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son)

(399⁴-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotadi — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son)

400-modda. Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berish huquqi

Taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan sud tomonidan ajrim topshirilgan yoki yuborilgan kundan e‘tiboran yigirma kun ichida apellyatsiya instansiyasi sudiga quyidagi hollarda sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat qilishi va prokuror protest keltirishi mumkin:

- 1) ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda;
- 2) sudning ajrimi ishning keyingi harakatlanishiga to‘sqinlik qiladigan hollarda.

Birinchi instansiya sudining boshqa ajrimlari ustidan xususiy shikoyat (protest) berilmaydi, biroq bunday ajrimlarga qarshi e‘tirozlar apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) kiritilishi mumkin.

401-modda. Xususiy shikoyatlar (protestlar) berish va ularni ko‘rib chiqish tartibi

Xususiy shikoyatlar (protestlar) ushbu bobda belgilangan tartibda beriladi va ko‘rib chiqiladi.

402-modda. Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat qilinganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan ishni ko‘radigan apellyatsiya instansiyasi sudining vakolatlari

Apellyatsiya instansiyasi sudi xususiy shikoyatni (protestni) ko‘rib chiqib:

- 1) ajrimni o‘zgarishsiz qoldirishga;
- 2) ajrimni bekor qilishga va da‘vo arizasini (arizani), ishni mazmunan ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;
- 3) ajrimni butunlay yoki qisman o‘zgartirishga yoxud bekor qilishga va masalani mazmunan hal qilishga;
- 4) ajrimni bekor qilishga va da‘vo arizasini (arizani), ish materiallarini ko‘rib chiqish uchun sudga taalluqliligiga ko‘ra boshqa sudga yuborishga haqli.

(402-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

402¹-modda. Birinchi instansiya sudining qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyati (protesti)

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha birinchi instansiya sudining qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) uchun ushbu bobda nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqiladi.

(402¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

45-bob. Kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish

403-modda. Kassatsiya shikoyati (protesti) berish huquqi

Taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, bundan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan nizolar mustasno, sudning qonuniy kuchga kirgan va apellyatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan kassatsiya shikoyati berishi mumkin.

Prokuror, yuqori turuvchi prokuror prokurorning ishtirokida ko‘rilgan ish bo‘yicha, shuningdek ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarning murojaati mavjud bo‘lgan taqdirda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan va apellyatsiya tartibida ko‘rilmagan sud hujjati ustidan kassatsiya protesti keltirishga haqli.

(403-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

404-modda. Kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘radigan sudlar

Quyidagilar:

1) Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati — tegishli fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tomonidan birinchi instansiya bo‘yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan;

2) O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi — hududiy harbiy sudlarning va O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining birinchi instansiya bo‘yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan;

3) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining birinchi instansiya bo‘yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘rib chiqadi.

(404-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

405-modda. Kassatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi

Kassatsiya shikoyati (protesti) kassatsiya instansiyasi sudining nomiga yo‘llanadi, lekin hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni qabul qilgan sudga beriladi.

Sud hujjatini qabul qilgan sud kassatsiya shikoyati (protesti) kelib tushgan kundan e‘tiboran besh kunlik muddatda uni kassatsiya instansiyasi sudiga ish bilan birga yuborishi shart.

(405-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

405¹-modda. Kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddati

Kassatsiya shikoyati (protesti) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e‘tiboran olti oy ichida berilishi mumkin.

O‘tkazib yuborilgan kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddati shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra kassatsiya instansiya sudining sudyasi tomonidan, agar iltimosnoma kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddati o‘tgan kundan e‘tiboran uch oydan kechiktirmay berilgan bo‘lsa va o‘tkazib yuborilgan muddat sud tomonidan uzrli deb topilsa, tiklanishi mumkin.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) berishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklash haqida kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrimda ko‘rsatiladi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) berish muddatini tiklashni rad etish haqida kassatsiya shikoyatini (protestini) qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimda ko‘rsatiladi.

(405¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

406-modda. Kassatsiya shikoyatining (protestining) mazmuni

Kassatsiya shikoyatida (protestida) quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

1) shikoyat (protest) yo‘llanayotgan kassatsiya instansiyasi sudining nomi;

2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);

3) ishning raqami, shikoyat qilinayotgan (protest keltirilayotgan) hal qiluv qarori, ajrim, qaror qabul qilingan sana va ushbu sud hujjatini qabul qilgan sud;

(406-modda birinchi qismining 3-bandida O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

4) hal qiluv qarorining, ajrimning, qarorning noto'g'riligi nimadan iborat ekanligi;

5) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosi;

6) shikoyatga (protestga) ilova qilingan yozma materiallarning ro'yxati.

Kassatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi.

Kassatsiya protesti protest keltirgan prokuror yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

(406-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrda O'RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

Kassatsiya shikoyatida (protestida) shikoyatni (protestni) bergan shaxsning yoxud uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin.

407-modda. Kassatsiya shikoyatiga (protestiga) ilova qilinadigan hujjatlar

Kassatsiya shikoyatiga quyidagilar ilova qilinadi:

davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

kassatsiya shikoyati vakil tomonidan imzolangan hollarda, uni imzolashga vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat.

Kassatsiya shikoyati (protesti) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko'chirma nusxalari bilan birga sudga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan kassatsiya shikoyati (protesti) mustasno.

Zarur hollarda, sudya kassatsiya shikoyati (protesti) bergan shaxs zimmasiga kassatsiya shikoyatiga (protestiga) ilova qilingan yozma materiallarning ko'chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab taqdim etish majburiyatini yuklatishi mumkin.

Prokurorning ishtirokisiz ko'rilgan ish bo'yicha kassatsiya protestiga ushbu Kodeks 403-moddasining **birinchi qismida** ko'rsatilgan shaxslarning mazkur protestni keltirishga asos bo'lib xizmat qilgan murojaatining ko'chirma nusxasi ilova qilinadi, bundan qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ishlar mustasno.

(407-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrda O'RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

Sudning arizani qaytarish haqidagi yoki arizani qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan kassatsiya shikoyatiga (protestiga) qaytarilgan ariza va unga qo'shib berilgan hujjatlar ham ilova qilinishi kerak.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilinganda yoki xodim bir ishdan boshqa ishga g'ayriqonuniy ravishda o'tkazilganida uni ilgarigi ishiga tiklash to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori ustidan kassatsiya shikoyati (protesti) ushbu qarorning ijrosiga doir hujjat ilova qilingan taqdirdagina qabul qilinadi.

(407-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

407¹-modda. Ishni talab qilib olish

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari, viloyat prokurori, unga tenglashtirilgan prokuror va ularning o'rinbosarlari, tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar ushbu Kodeksning **403-moddasida** ko'rsatilgan shaxslarning murojaatlari mavjud bo'lgan taqdirda yoki prokuror ishtirokida ko'rilgan ishlar bo'yicha yoxud qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ishlar bo'yicha kassatsiya protesti keltirish to'g'risidagi masalani hal etish uchun tegishli suddan ishni talab qilib olishga haqli.

(407¹-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi O'RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

407²-modda. Kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi masalani hal etish tartibi va muddati

Kassatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish, qabul qilishni rad etish yoki ish yuritishga qabul qilish masalasi kassatsiya instansiyasi sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda shikoyat (protest) sudga kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay hal qilinadi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish, qabul qilishni rad etish yoki ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqariladi, uning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ajrim chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay, ushbu Kodeksning 270-moddasida nazarda tutilgan tartibda yuboriladi.

(407²-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

407³-modda. Kassatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish

Kassatsiya shikoyati (protesti) sudya tomonidan quyidagi hollarda qaytariladi, agar:

1) kassatsiya shikoyati (protesti) imzolanmagan bo'lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan yoxud mansab mavqeyi yoki familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa;

2) kassatsiya shikoyatining (protestining) mazmuni ushbu Kodeksning 406-moddasida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lmasa yoki kassatsiya shikoyatiga (protestiga) ushbu Kodeks 407-moddasining **ikkinchi, to'rtinchi — oltinchi qismlarida** nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan bo'lsa;

3) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda hamda miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar kassatsiya shikoyatiga ilova qilinmagan bo'lsa, qonunda davlat bojini to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki uning miqdorini kamaytirish imkoniyati nazarda tutilgan hollarda esa, bu haqda iltimosnoma mavjud bo'lmasa yoxud iltimosnoma rad etilgan bo'lsa;

4) kassatsiya shikoyati (protesti) sud hujjatini qabul qilgan sudni chetlab o'tgan holda yuborilgan bo'lsa;

5) kassatsiya shikoyati (protesti) belgilangan muddat o'tganidan keyin berilgan bo'lsa va o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma mavjud bo'lmasa;

6) kassatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilinganligi to'g'risida ajrim chiqarilguniga qadar shikoyat (protest) bergan shaxsdan uni qaytarib olish (chaqirib olish) to'g'risida ariza tushgan bo'lsa.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish to'g'risidagi ajrimda kassatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish asoslari ko'rsatiladi, kassatsiya shikoyatini berishda to'langan davlat bojini qaytarish to'g'risidagi masala hal etiladi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish to'g'risidagi ajrim ustidan taftish shikoyati (protesti) berilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish to'g'risidagi ajrim bekor qilingan taqdirda, shikoyat (protest) dastlab sudga murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilgach, shikoyatni (protestni) bergan shaxs sudga umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

(407³-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

407⁴-modda. Kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish

Sudya kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi, agar:

1) kassatsiya shikoyati (protesti) sud hujjati ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

2) kassatsiya shikoyati (protesti) qonunga muvofiq kassatsiya tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin bo'lmagan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

3) kassatsiya shikoyati (protesti) kassatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

4) kassatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o'tkazib yuborilgan va o'tkazilgan muddatni tiklash rad etilgan bo'lsa;

5) kassatsiya shikoyatidan (protestidan) uni bergan shaxs voz kechganligi (uni chaqirib olganligi) sababli kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risida ajrim mavjud bo'lsa.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish asoslari ko'rsatiladi, kassatsiya shikoyatini berishda to'langan davlat bojini qaytarish to'g'risidagi masala hal etiladi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan taftish shikoyati (protesti) berilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim bekor qilingan taqdirda, shikoyat (protest) sudga dastlab murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

(407⁴-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

407⁵-modda. Kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish

Ushbu Kodeksda belgilangan shakl va mazmun talablariga rioya qilingan holda berilgan kassatsiya shikoyati (protesti) kassatsiya instansiyasi sudining ish yurituviga qabul qilinadi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rib chiqish uchun sud majlisini o'tkazish vaqti va joyi ko'rsatiladi.

Kassatsiya shikoyati (protesti) bergan shaxs, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishni kassatsiya instansiyasida ko'rish vaqti va joyi haqida xabardor qilinadi. Ish muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida belgilangan tartibda xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi ishning kassatsiya tartibida ko'rilishiga to'sqinlik qilmaydi.

(407⁵-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

407⁶-modda. Kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan hal qiluv qarorining ijrosini to'xtatib turish

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra, kassatsiya instansiyasi sudi (sudyasi) birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorining ijrosini kassatsiya instansiyasida ish yuritish tamomlanguniga qadar to'xtatib turadi, bundan darhol ijro etilishi lozim bo'lgan hal qiluv qarorlari mustasno.

Hal qiluv qarorining ijrosini to'xtatib turish haqida kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

(407⁶-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

(407⁷-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son)

407⁸-modda. Kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldirish

Agar kassatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilinganidan keyin kassatsiya shikoyatining (protestining) imzolanmaganligi yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lmagan yoxud

mansab mavqeyi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolanganligi aniqlansa, kassatsiya instansiyasi sudi kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldiradi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldirish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holat bartaraf etilganidan keyin kassatsiya shikoyati (protesti) ushbu Kodeksda belgilangan tartibda sudga yangidan berilishi mumkin.

407⁹-modda. Kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni tugatish

Kassatsiya instansiyasi sudi kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni quyidagi hollarda tugatadi, agar:

1) kassatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya tartibida ko'rilgan yoki ushbu Kodeksga muvofiq kassatsiya tartibida shikoyat qilinmaydigan (protest keltirilmaydigan) sud hujjati ustidan berilgan va u ish yuritishga xatoga yo'l qo'yilib qabul qilingan bo'lsa;

(407⁹-modda birinchi qismining 1-bandi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-yanvardagi O'RQ-1022-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2025-y., 03/25/1022/0083-son)

2) kassatsiya shikoyati (protesti) kassatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan va u ish yuritishga xatoga yo'l qo'yilib qabul qilingan bo'lsa;

3) kassatsiya shikoyati (protesti) sud hujjati ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

4) kassatsiya shikoyatidan voz kechish to'g'risidagi ariza kassatsiya shikoyatini bergan shaxsdan kassatsiya shikoyati ish yuritishga qabul qilinganidan keyin kelib tushgan bo'lsa;

5) protestni chaqirib olish to'g'risidagi ariza protest keltirgan prokurordan yoki yuqori turuvchi prokurordan kassatsiya protesti ish yuritishga qabul qilinganidan keyin kelib tushgan bo'lsa;

6) ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar tugatilgan bo'lsa;

7) ishda taraf bo'lgan fuqaro kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar vafot etsa, nizoli huquqiy munosabat esa huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa.

Kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risida ajrim chiqariladi, unda sud xarajatlarini taraflar o'rtasida taqsimlash to'g'risidagi masala hal etilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritish tugatilgan taqdirda, ayni bir shaxsning ayni shu asoslar bo'yicha kassatsiya shikoyati (protesti) bilan sudga takroran murojaat qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

(407⁸ va 407⁹-moddalar O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O'RQ-833-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son)

(408-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

(409-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

410-modda. Kassatsiya shikoyatiga (protestiga) qo'shilish

Sud protsessida kassatsiya shikoyati bergan taraf tomonida ishtirok etayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo'shilishi mumkin. Mazkur shaxslar keltirilgan kassatsiya protestiga ham qo'shilishi mumkin.

Shikoyatga (protestga) qo'shilish haqida ariza berilganda davlat boji undirilmaydi.

411-modda. Kassatsiya shikoyati (protesti) yuzasidan tushuntirishlar berish (e'tirozlar bildirish)

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat (protest) yuzasidan sudga tushuntirishlar (e'tirozlar) ularni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib, taqdim etishga haqli.

Tushuntirishlar (e'tirozlar) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko'chirma nusxalari bilan birga sudga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan tushuntirishlar (e'tirozlar) mustasno. Tushuntirishlarning (e'tirozlarning) ko'chirma nusxalarini sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi.

(412-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

413-modda. Kassatsiya shikoyatini (protestini) to'ldirish, o'zgartirish, shikoyatdan voz kechish va protestni qaytarib olish

Kassatsiya shikoyati bergan shaxs kassatsiya instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar shikoyatni to'ldirishga, o'zgartirishga yoki undan voz kechishga haqli.

Kassatsiya protesti keltirgan prokuror, shuningdek yuqori turuvchi prokuror kassatsiya instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar protestni to'ldirishga, o'zgartirishga yoki qaytarib olishga haqli.

Shikoyatdan voz kechilgan va protest chaqirib olingan taqdirda, kassatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarib, kassatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

Kassatsiya shikoyatidan (protestidan) voz kechilganligi (uning chaqirib olinganligi) sababli u bo'yicha ish yurituvning tugatilishi, agar sud hujjati ustidan boshqa shaxslar tomonidan shikoyat qilingan bo'lsa, boshqa kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

(413-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

414-modda. Da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi

Kassatsiya shikoyati yoki protesti berilganidan keyin da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida kassatsiya instansiyasi sudiga topshirilishi kerak. Agar ishning muhokamasi vaqtida da'vogar arz qilingan talablaridan voz kechsa, javobgar bildirilgan talablarni tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzsa, bu haqda sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi.

Kassatsiya instansiyasi sudi da'vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da'vogarga yoki taraflarga bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi.

Da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi qabul qilingan yoki taraflarning kelishuv bitimi tasdiqlangan taqdirda kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi.

Agar da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa yoxud boshqa birovning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan bo'lsa, sud voz kechishni qabul qilmaydi yoki tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadi hamda ishni kassatsiya tartibida ko'radi.

415-modda. Kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish muddati

Kassatsiya shikoyati (protesti) uni ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan ko'p bo'lmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

(415-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Alohida hollarda kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rib chiqish muddatini ishni ko'rib chiqayotgan sudlov hay'ati tomonidan ko'pi bilan yana bir oyga uzaytirilishi mumkin.

(415-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

416-modda. Kassatsiya instansiyasi sudining ishni ko'rish doirasi

Sud ishni kassatsiya tartibida ko'rayotganda sud hujjatlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshiradi. Sud yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

Kassatsiya instansiyasi sudi sud hujjatini to'liq hajmda tekshirib chiqishi shart.

(416-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

417-modda. Kassatsiya instansiyasi sudida ishni ko'rish tartibi

Kassatsiya tartibida ish ushbu Kodeksning 397-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga asosan, mazkur bobda belgilangan xususiyatlarni inobatga olgan holda ko'riladi.

(417-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

418-modda. Kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritishni to'xtatib turish

Kassatsiya instansiyasi sudi ish yuritishni ushbu Kodeksning 10-bobida nazarda tutilgan tartibda to'xtatadi.

(418-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

419-modda. Kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari

Kassatsiya instansiyasining sudi kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish natijalari bo'yicha quyidagilarga haqli:

- 1) hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni o'zgarishsiz qoldirishga;
- 2) hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni to'liq yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilishga;
- 3) hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni to'liq yoki qisman o'zgartirishga;
- 4) hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilishga va ushbu Kodeksda ko'rsatilgan asoslarga ko'ra arizani ko'rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni to'liq yoki qisman tugatishga;
- 5) agar ish sudga taalluqlilik qoidalari buzilgan holda ko'rilgan bo'lsa, hal qiluv qarorini, ajrimni bekor qilishga va ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko'ra boshqa sudga yuborishga.

Ushbu Kodeks 372²-moddasi birinchi qismining 4-bandida va 372⁴-moddasi ikkinchi qismining 2 va 4-bandlarida nazarda tutilgan asoslar aniqlanganda, kassatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo'yicha ko'radi. Ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo'yicha ko'rishga o'tish haqida ajrim chiqarilib, unda bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar ko'rsatiladi.

(419-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

419¹-modda. Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berish huquqi

Taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar apellyatsiya tartibida ko'rib chiqilmagan birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan ajrim qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy ichida kassatsiya instansiyasi sudiga quyidagi hollarda sudning hal qiluv qaroridan ushbu Kodeksning 405-moddasida belgilangan tartibda alohida shikoyat qilishi va prokuror protest keltirishi mumkin:

- 1) ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda;
- 2) sudning ajrimi ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qiladigan hollarda.

Birinchi instansiya sudining boshqa ajrimlari ustidan xususiy shikoyat (protest) berilmaydi, biroq bunday ajrimlarga qarshi e'tirozlar kassatsiya shikoyatiga (protestiga) kiritilishi mumkin.

(419¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

419²-modda. Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat qilinganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan ishni ko'radigan kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari

Kassatsiya instansiyasi sudi xususiy shikoyatni (protestni) ko'rib chiqib:

- 1) ajrimni o'zgarishsiz qoldirishga;
- 2) ajrimni bekor qilishga va da'vo arizani (arizani), ishni mazmunan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;
- 3) ajrimni butunlay yoki qisman o'zgartirishga yoxud bekor qilishga va masalani mazmunan hal qilishga;
- 4) ajrimni bekor qilishga va da'vo arizasini (arizani), ish materiallarini ko'rib chiqish uchun sudga taalluqliligiga ko'ra boshqa sudga yuborishga haqli.

(419²-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

419³-modda. Birinchi instansiya sudining qarori ustidan berilgan kassatsiya shikoyati (protesti)

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha birinchi instansiya sudining qarori ustidan berilgan kassatsiya shikoyati (protesti) mazkur bobda birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) uchun nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

(419³-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

(420-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

(421-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

(46-bob O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

46-bob. Sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish

419⁴-modda. Taftish tartibida shikoyat qilish (protest keltirish) huquqi

Birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori hamda apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan quyidagilar tomonidan taftish tartibida shikoyat (protest) berilishi mumkin:

ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, bundan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan nizolar mustasno;

prokuror ishtirokida ko'rilgan ish bo'yicha yoki qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ish bo'yicha, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslarning murojaatlari mavjud bo'lgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari, viloyat prokurori, unga tenglashtirilgan prokurorlar va ularning o'rinbosarlari.

(419⁴-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi O'RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

O'zbekiston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan taftish tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud hujjatlari ustidan, shuningdek ushbu sudlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining birinchi instansiyasi bo'yicha qabul qilingan hamda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjatlari ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga taftish tartibida: ushbu modda birinchi qismining **ikkinchi** va **uchinchi xatboshisida** ko'rsatilgan shaxslar shikoyat berishi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari prokuror ishtirokida ko'rilgan ish bo'yicha yoki qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ish bo'yicha, shuningdek ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan shaxslarning murojaatlariga asosan protest keltirishi mumkin.

(419⁴-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi O'RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida taftish tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud hujjatlari ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatiga:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi — ushbu modda birinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko'rsatilgan shaxslarning murojaatiga asosan;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori — prokuror ishtirokida ko'rilgan ish bo'yicha yoki qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ish bo'yicha, shuningdek ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan shaxslarning murojaatiga asosan taftish tartibida protest keltirishi mumkin.

(419⁴-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi O'RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

419⁵-modda. Taftish tartibida shikoyatlarni (protestlarni) ko'radigan sudlar

Quyidagilar:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati — tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan va apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud hujjatlari ustidan berilgan;

2) O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi — hududiy harbiy sudlar tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan va apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud hujjatlari ustidan berilgan;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati:

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida apellyatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida ko'rilgan tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, hududiy harbiy sudlar tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan sud hujjatlari ustidan berilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan va apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud hujjatlari ustidan berilgan taftish tartibidagi shikoyatlarni (protestlarni) ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida

taftish tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha qabul qilingan sud hujjatlari ustidan keltirilgan protesti O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosati tomonidan ko‘riladi.

419⁶-modda. Taftish tartibida shikoyat (protest) berish tartibi va muddati

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atida, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudida taftish tartibida ko‘rilishi lozim bo‘lgan shikoyat (protest) mazkur sudlar nomiga yo‘llanadi, biroq hal qiluv qarorini qabul qilgan sudga beriladi.

Hal qiluv qarorini qabul qilgan sud shikoyat (protest) kelib tushgan kundan e‘tiboran besh kunlik muddatda shikoyatni (protestni) ishni taftish tartibida ko‘radigan sudga ish bilan birga yuborishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atida taftish tartibida ko‘rilishi lozim bo‘lgan shikoyat (protest) bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atiga beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatiga taftish tartibidagi protesti bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e‘tiboran bir yil ichida beriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga taftish tartibida shikoyat (protest) berish muddati kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan ajrim chiqarilguniga qadar o‘tgan taqdirda, shikoyat (protest) kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan ajrim qabul qilingan kundan e‘tiboran uch oy ichida berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atiga taftish tartibida shikoyat (protest) berish muddati Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan taftish tartibida ajrim chiqarilguniga qadar o‘tgan taqdirda, shikoyat (protest) ushbu sudlar tomonidan ishni taftish tartibida ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim qabul qilingan kundan e‘tiboran uch oy ichida berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining protesti ushbu Kodeks 419⁴-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar murojaat qilgan kundan e‘tiboran uch oy ichida, lekin O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati tomonidan ishni taftish tartibida ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim qabul qilingan kundan e‘tiboran olti oydan ortiq bo‘lmagan muddatda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatiga kiritilishi mumkin.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) berishning o‘tkazib yuborilgan muddati shikoyat (protest) bergan shaxsning iltimosnomasi bo‘yicha sud (sudya) tomonidan, agar iltimosnoma shikoyatni (protestni) berish muddati o‘tgan kundan e‘tiboran uch oy ichida berilgan va shikoyatni (protestni) berish muddati o‘tkazib yuborilishining sabablari uzrli deb topilgan bo‘lsa, tiklanishi mumkin.

Ushbu moddaning **to‘qqizinchi qismida** ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan keyin berilgan taftish tartibidagi shikoyat (protest) ko‘rib chiqilmaydi.

419⁷-modda. Taftish tartibidagi shikoyatning (protestning) mazmuni

Taftish tartibidagi shikoyatda (protestda) quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- 1) shikoyat (protest) yo‘llanilayotgan taftish instansiyasi sudining nomi;
- 2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);
- 3) ishning raqami, shikoyat qilinayotgan (protest keltirilayotgan) hal qiluv qarori, ajrim, qaror qabul qilingan sana va ushbu sud hujjatini qabul qilgan sud;
- 4) hal qiluv qarorining, ajrimning, qarorning noto‘g‘riligi nimadan iborat ekanligi;
- 5) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosi;

6) shikoyatga (protestga) ilova qilingan yozma materiallarning ro'yxati.
Taftish tartibidagi shikoyatni shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi.
Taftish tartibidagi protest uni keltirgan prokuror tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.
Taftish tartibidagi shikoyatda (protestda) shikoyatni (protestni) bergan shaxsning yoxud uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin.

419⁸-modda. Taftish tartibidagi shikoyatga (protestga) ilova qilinadigan hujjatlar

Taftish tartibidagi shikoyatga quyidagilar ilova qilinadi:
davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;
taftish tartibidagi shikoyat vakil tomonidan imzolangan hollarda, uning imzolashga bo'lgan vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat.

Prokuror ishtirokisiz ko'rilgan ish bo'yicha taftish tartibidagi protestga ushbu Kodeks 419⁴-moddasi birinchi qismining **ikkinchi xatboshisida** ko'rsatilgan shaxslarning protest keltirishga asos bo'lib xizmat qilgan murojaatining ko'chirma nusxasi ilova qilinadi, bundan qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ishlar mustasno.

(419⁸-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi O'RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko'chirma nusxalari bilan birga sudga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan taftish tartibidagi shikoyat (protest) mustasno.

Zarur hollarda, sudya taftish tartibida shikoyat (protest) bergan shaxs zimmasiga shikoyatga (protestga) ilova qilingan yozma materiallarning ko'chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab taqdim etish majburiyatini yuklatishi mumkin.

Sudning arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish, qaytarish to'g'risidagi, shuningdek apellyatsiya yoki kassatsiya va taftish shikoyatini (protestni) ish yuritishga qabul qilishni rad etish, qaytarish to'g'risidagi ajrimlari ustidan taftish tartibidagi shikoyatga (protestga) qaytarilgan ariza, shikoyat (protest) va sudga ularni taqdim etish chog'ida unga qo'shib berilgan hujjatlar ilova qilinishi kerak.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilinganda yoki xodim bir ishdan boshqa ishga g'ayriqonuniy ravishda o'tkazilganida uni ilgarigi ishga tiklash to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori ustidan taftish tartibidagi shikoyat (protest) ushbu qarorning ijrosiga doir hujjat ilova qilingan taqdirdagina qabul qilinadi.

419⁹-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi masalani hal etish tartibi va muddati

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qaytarish, ish yuritishga qabul qilishni rad etish yoki qabul qilish to'g'risidagi masala sudya tomonidan yakka tartibda shikoyat (protest) sudga kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay hal qilinadi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qaytarish, ish yuritishga qabul qilishni rad etish haqida yoki qabul qilish to'g'risida ajrim chiqariladi, uning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga u chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay, ushbu Kodeksning **270-moddasida** nazarda tutilgan tartibda yuboriladi.

419¹⁰-modda. Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qaytarish

Taftish instansiyasi sudining sudyasi taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) quyidagi hollarda qaytaradi, agar:

1) taftish tartibidagi shikoyat (protest) imzolanmagan bo'lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan yoxud mansab mavqeyi yoki familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa;

2) taftish tartibidagi shikoyatning (protestning) mazmuniga nisbatan ushbu Kodeksning **419⁷-moddasida** belgilangan talablarga rioya etilmagan yoki shikoyatga (protestga) ushbu Kodeks

419⁸-moddasining **ikkinchi, uchinchi, beshinchi** va **oltinchi qismlarida** ko'rsatilgan hujjatlar ilova qilinmagan bo'lsa;

3) taftish tartibidagi shikoyatga davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinmagan bo'lsa, qonunda davlat bojini to'lash muddatini kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki uning miqdorini kamaytirish imkoniyati nazarda tutilgan hollarda esa, bu haqda iltimosnoma mavjud bo'lmasa yoxud iltimosnoma rad etilgan bo'lsa;

4) taftish tartibidagi shikoyat (protest) belgilangan muddat o'tganidan keyin berilgan bo'lsa va o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma mavjud bo'lmasa;

5) taftish tartibidagi shikoyat (protest) ish yuritishga qabul qilinganligi to'g'risida ajrim chiqarilguniga qadar shikoyatni (protestni) bergan shaxsdan uni qaytarib olish (chaqirib olish) to'g'risida ariza tushgan bo'lsa;

6) taftish tartibidagi shikoyat (protest) ushbu Kodeks 419⁶-moddasining **birinchi qismida** nazarda tutilgan holda sud hujjatini qabul qilgan sudni chetlab o'tgan holda yuborilgan bo'lsa.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qaytarish to'g'risidagi ajrimda shikoyatni (protestni) qaytarish asoslari ko'rsatiladi, shikoyatni berishda to'langan davlat bojini qaytarish haqidagi masala hal etiladi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qaytarish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi shikoyatni (protestni) bergan shaxsga shikoyat (protest) va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga yuboriladi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qaytarish to'g'risidagi ajrim bekor qilingan taqdirda, shikoyat (protest) dastlab sudga murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilgach, shikoyatni (protestni) bergan shaxs taftish tartibidagi shikoyat (protest) bilan sudga umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

419¹¹-modda. Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilishni rad etish

Taftish instansiyasi sudining sudyasi taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi, agar:

1) shikoyat (protest) sud hujjati ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

2) shikoyat (protest) qonunga muvofiq taftish tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin bo'lmagan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

3) shikoyat (protest) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilmagan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

4) shikoyat (protest) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga Qoraqalpog'iston Respublikasi sudida, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida taftish tartibida ko'rilmagan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

5) shikoyat (protest) ishni taftish tartibida ko'rayotgan sud tomonidan ilgari taftish tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

6) shikoyatni (protestni) berish muddati o'tkazib yuborilgan va o'tkazilgan muddatni tiklash rad etilgan bo'lsa;

7) shikoyatdan uni bergan shaxs voz kechganligi, protest chaqirib olinganligi sababli shikoyat (protest) bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrim mavjud bo'lsa, bundan Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining shikoyatdan voz kechilganligi, protest chaqirib olinganligi sababli taftish tartibidagi shikoyat (protest) bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga berilgan shikoyat (protest) mustasno.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilishni rad etish asoslari ko'rsatiladi, shikoyatni berishda to'langan davlat bojini qaytarish haqidagi masala hal etiladi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim bekor qilingan taqdirda, shikoyat (protest) sudga dastlab murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

419¹²-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish

Ushbu Kodeksda belgilangan shakl va mazmun talablariga rioya qilingan holda berilgan taftish tartibidagi shikoyat (protest) sudning ish yuritishiga qabul qilinadi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda shikoyatni (protestni) ko'rib chiqish uchun sud majlisini o'tkazish vaqti va joyi ko'rsatiladi.

Taftish tartibida shikoyat (protest) bergan shaxs, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishni taftish instansiyasida ko'rish vaqti va joyi haqida xabardor qilinadi. Ish muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida belgilangan tartibda xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi ishning taftish tartibida ko'rilishiga to'sqinlik qilmaydi.

419¹³-modda. Sud hujjatlarining ijrosini to'xtatib turish

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra, taftish instansiyasi sudi (sudyasi) sud hujjatlarining ijrosini taftish instansiyasida ish yuritish tamomlanguniga qadar to'xtatib turishga haqli.

Sudya sud hujjatining ijrosini to'xtatib turish to'g'risida yoki uning ijrosini to'xtatib turishni rad etish haqida taftish shikoyatini (protestni) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatadi.

419¹⁴-modda. Ishni talab qilib olish

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi va uning o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi taftish tartibidagi shikoyat (protest) bo'yicha ishni tegishli suddan talab qilib olishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari, viloyat prokurori, unga tenglashtirilgan prokuror va ularning o'rinbosarlari ushbu Kodeksning 419⁴-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning murojaatlari mavjud bo'lgan taqdirda yoki prokuror ishtirokida ko'rilgan ishlar bo'yicha yoxud qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ishlar bo'yicha taftish tartibida protest keltirish to'g'risidagi masalani hal etish uchun tegishli suddan o'z vakolatlari doirasida ishni talab qilib olishga haqli.

(419¹⁴-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi O'RQ-968-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son)

419¹⁵-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi tomonidan taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) o'rganish

Ushbu Kodeksning 419⁴ — 419⁸-moddalarida belgilangan qoidalarga muvofiq berilgan taftish tartibidagi shikoyat (protest) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi tomonidan unga ilova qilingan materiallar asosida, zarur bo'lgan hollarda esa ishni talab qilib olib o'rganiladi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) o'rganish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi:

- 1) taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ushbu Kodeks 419¹⁰-moddasining **birinchi qismida** nazarda tutilgan asoslarga ko'ra qaytarish to'g'risida;
- 2) taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ushbu Kodeks 419¹¹-moddasining **birinchi qismida** nazarda tutilgan asoslarga ko'ra ish yuritishga qabul qilishni rad etish haqida;

3) sud hujjatlarini taftish tartibida tekshirish asoslari mavjud bo'lmasa, taftish tartibidagi shikoyatni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida ko'rib chiqish uchun o'tkazishni rad etish to'g'risida;

4) taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish va ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qaytarish to'g'risidagi yoki qabul qilishni rad etish haqidagi ajrim shikoyat (protest) kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay chiqariladi.

Taftish tartibidagi shikoyatni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida ko'rib chiqish uchun o'tkazishni rad etish to'g'risidagi yoki taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish va ko'rib chiqish uchun sudlov hay'atiga o'tkazish haqidagi ajrim shikoyat (protest) kelib tushgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay, ish talab qilib olingan taqdirda esa ikki oydan kechiktirmay chiqariladi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) o'rganish natijalari bo'yicha chiqarilgan ajrimning ko'chirma nusxasi shikoyat bergan shaxsga ushbu Kodeksning 270-moddasida nazarda tutilgan tartibda yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qaytarish haqidagi yoki uni ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimi taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) bergan shaxsning arizasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan bekor qilinishi mumkin.

419¹⁶-modda. Taftish tartibidagi shikoyatni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazishni rad etish to'g'risidagi ajrim

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining taftish tartibidagi shikoyatni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazishni rad etish to'g'risidagi ajrimida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) ajrim chiqarilgan sana va joy;
- 2) ajrim chiqargan sudyaning familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari;
- 3) taftish tartibida shikoyat bergan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);
- 4) ustidan shikoyat qilinayotgan sud hujjatlari;
- 5) sud hujjatlari qabul qilingan ish mazmunining qisqacha bayoni;
- 6) taftish tartibidagi shikoyatni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga ko'rib chiqish uchun o'tkazishni rad etish sabablari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki uning o'rinbosari sudyaning taftish tartibidagi shikoyatini ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazishni rad etish to'g'risidagi ajrimini taftish tartibida shikoyat bergan shaxsning arizasiga ko'ra bekor qilishga va ishni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazishga haqli.

Taftish tartibidagi shikoyatni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazishni rad etish to'g'risidagi ajrimni bekor qilish haqidagi ariza sud hujjati ustidan taftish tartibida shikoyat qilish uchun belgilangan muddat doirasida berilishi mumkin.

Ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan muddat o'tgandan keyin berilgan ariza ko'rib chiqilmaydi.

419¹⁷-modda. Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish va ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish haqidagi ajrim

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish va ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish haqidagi ajrimda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) ajrim chiqarilgan sana va joy;
- 2) ajrim chiqargan sudyaning familiyasi, ismi-sharifining bosh harflari;
- 3) shikoyat bergan (protest keltirgan) shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);
- 4) ustidan shikoyat qilinayotgan (protest keltirilayotgan) sud hujjatlari;
- 5) sud hujjatlari qabul qilingan ish mazmunining qisqacha bayoni;
- 6) shikoyatni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish sabablari va asoslari;
- 7) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan ish ko'riladigan vaqt va joy.

Taftish tartibidagi protest kelib tushgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi uni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish to'g'risida ajrim chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi o'zi chiqargan ajrim bilan birga taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazadi.

419¹⁸-modda. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilish

Taftish tartibida shikoyat (protest) bergan shaxs, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinadi. Ish muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida belgilangan tartibda xabardor qilinganligi ko'rsatilgan shaxslarning kelmaganligi ishning taftish tartibida ko'rilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Ish taftish tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida ko'rilganda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushuntirishlar berish uchun chaqirilishi mumkin. Bu holda ularga ishni taftish tartibida ko'radigan sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabarnoma yuboriladi. Biroq ularning kelmaganligi ishning ko'rilishiga to'sqinlik qilmaydi.

419¹⁹-modda. Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rmasdan qoldirish

Agar shikoyat (protest) ish yuritishga qabul qilinganidan keyin shikoyatning (protestning) imzolanmaganligi yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lmagan yoxud mansab mavqeyi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolanganligi aniqlansa, taftish instansiyasi sudi taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rmasdan qoldiradi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rmasdan qoldirish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holat bartaraf etilganidan keyin shikoyat (protest) ushbu Kodeksda belgilangan tartibda sudga yangidan berilishi mumkin.

419²⁰-modda. Taftish tartibidagi shikoyat (protest) bo'yicha ish yuritishni tugatish

Taftish instansiyasi sudi taftish tartibidagi shikoyat (protest) bo'yicha ish yuritishni quyidagi hollarda tugatadi, agar:

- 1) shikoyat (protest) sud hujjati ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan va u xatoga yo'l qo'yilib, ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa;
- 2) shikoyat (protest) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilmagan sud hujjati ustidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga esa Qoraqalpog'iston Respublikasi sudida, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarida, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida taftish tartibida ko'rilmagan yoki ushbu Kodeksga muvofiq taftish tartibida shikoyat qilinmaydigan (protest keltirilmaydigan) sud hujjati ustidan berilgan va u xatoga yo'l qo'yilib, ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa;
- 3) shikoyat (protest) ushbu sud tomonidan taftish tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan va u xatoga yo'l qo'yilib, ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa;

4) shikoyatidan voz kechish to'g'risidagi ariza shikoyatni bergan shaxsdan shikoyat ish yuritishga qabul qilinganidan keyin kelib tushgan bo'lsa;

5) protestni chaqirib olish to'g'risidagi ariza protest keltirgan prokurordan yoki yuqori turuvchi prokurordan protest ish yuritishga qabul qilinganidan keyin kelib tushgan bo'lsa;

6) shikoyat (protest) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa;

7) shikoyat (protest) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar ishda taraf bo'lgan fuqaro vafot etsa, nizoli huquqiy munosabat esa huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risida ajrim chiqariladi, unda sud xarajatlarini taraflar o'rtasida taqsimlash to'g'risidagi masala hal etiladi.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) bo'yicha ish yuritish tugatilgan taqdirda, ayni bir shaxsning ayni shu asoslar bo'yicha taftish tartibida shikoyat (protest) bilan sudga takroran murojaat qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

419²¹-modda. Taftish tartibidagi shikoyatga (protestga) qo'shilish

Sud protsessida taftish tartibida shikoyat bergan shaxs tomonida ishtirok etayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo'shilishi mumkin. Mazkur shaxslar taftish tartibida keltirilgan protestga ham qo'shilishi mumkin.

Shikoyatga (protestga) qo'shilish haqida ariza berilganda davlat boji undirilmaydi.

419²²-modda. Taftish tartibidagi shikoyat (protest) yuzasidan tushuntirishlar berish (e'tirozlar bildirish)

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar taftish tartibidagi shikoyat (protest) yuzasidan sudga tushuntirishlarni (e'tirozlarni) ularni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib, taqdim etishga haqli.

Tushuntirishlar (e'tirozlar) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko'chirma nusxalari bilan birga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan tushuntirishlar (e'tirozlar) mustasno. Tushuntirishlarning (e'tirozlarning) ko'chirma nusxalarini sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi.

419²³-modda. Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) to'ldirish, o'zgartirish, shikoyatdan voz kechish va protestni qaytarib olish

Taftish tartibida shikoyat bergan shaxs taftish instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar shikoyatni to'ldirishga, o'zgartirishga yoki undan voz kechishga haqli.

Taftish tartibida protest keltirgan prokuror, shuningdek yuqori turuvchi prokuror taftish instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar protestni to'ldirishga, o'zgartirishga yoki qaytarib olishga haqli.

Shikoyatdan voz kechilgan va protest chaqirib olingan taqdirda, taftish instansiyasi sudi ajrim chiqarib, shikoyat (protest) bo'yicha taftish tartibida ish yuritishni tugatadi.

Shikoyatdan voz kechilganligi, protest chaqirib olinganligi sababli u bo'yicha ish yurituvning tugatilishi, agar sud hujjati ustidan boshqa shaxslar tomonidan shikoyat qilingan bo'lsa, boshqa taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

419²⁴-modda. Da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi

Taftish tartibida shikoyat (protest) berilganidan keyin da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida taftish instansiyasi sudiga topshirilishi kerak. Agar ishning muhokamasi vaqtida da'vogar arz qilingan talablaridan voz kechsa, javobgar bildirilgan talablarni tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzsa, bu haqda sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi.

Taftish instansiyasi sudi da'vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin ishda ishtirok etuvchi shaxslarga bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi.

Da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi qabul qilingan yoki taraflarning kelishuv bitimi tasdiqlangan taqdirda taftish instansiyasi sudi hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi.

Agar da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa yoxud boshqa bironing huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan bo'lsa, sud voz kechishni qabul qilmaydi yoki tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadi hamda ishni taftish tartibida ko'radi.

419²⁵-modda. Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rish muddatlari

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan u ko'rib chiqish uchun o'tkazilgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

Alohida hollarda taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rib chiqish muddati ishni ko'rayotgan sudlov hay'ati tomonidan ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin.

Taftish tartibidagi protest O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosati tomonidan u O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatiga kelib tushgan kundan e'tiboran ikki oydan oshmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

419²⁶-modda. Taftish instansiyasi sudida ishni ko'rish tartibi

Taftish tartibida ish ushbu Kodeksning 397-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga asosan, mazkur bobda belgilangan xususiyatlarni inobatga olgan holda ko'riladi.

Ishni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida taftish tartibida ko'rishda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarlari ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarori yakuniy hisoblanadi va uning ustidan shikoyat qilinmaydi (protest keltirilmaydi).

Taftish instansiyasi sudi ajrimining, qarorining ko'chirma nusxasi ishni ko'rishda ishtirok etgan shaxslarga ushbu Kodeksning 270-moddasida nazarda tutilgan tartibda yuboriladi.

419²⁷-modda. Taftish instansiyasi sudining ishni ko'rish doirasi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi ishni taftish tartibida ko'rayotganida sud hujjatlarining qonuniyligini, asoslilikini va adolatlilikini tekshiradi. Sud yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

Taftish instansiyasi sudi sud hujjatini to'liq hajmda tekshirib chiqishi shart.

419²⁸-modda. Shikoyatni (protestni) taftish tartibida ko'radigan sudning vakolatlari

Taftish instansiyasi sudi shikoyatni (protestni) taftish tartibida ko'rish natijalari bo'yicha:

- 1) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni o'zgarishsiz qoldirishga;
- 2) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni to'liq yoxud qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilishga;
- 3) hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni to'liq yoki qisman o'zgartirishga;
- 4) ushbu Kodeks 372²-moddasi birinchi qismining 4-bandida va 372⁴-moddasi ikkinchi qismining 4-bandida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga;
- 5) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni to'liq yoki qisman bekor qilishga va ushbu Kodeksda ko'rsatilgan asoslarga ko'ra arizani ko'rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni to'liq yoki qisman tugatishga;

6) ayrim sud hujjatlarini bekor qilishga va ish bo'yicha ilgari qabul qilingan sud hujjatlaridan birini o'z kuchida qoldirishga haqli.

419²⁹-modda. Taftish instansiyasi sudi ko'rsatmalarining majburiyligi

Taftish instansiyasi sudining ajrimida, qarorida bayon qilingan ko'rsatmalar mazkur ishni yangidan ko'rayotgan sud uchun majburiydir.

Taftish instansiyasi sudi u yoki bu dalilning ishonchliligi yoki ishonchsizligi to'g'risidagi, ayrim bir dalillarning boshqalaridan ustunligi haqidagi, ish yangidan ko'rilgan taqdirda qanday qaror chiqarilishi kerakligi to'g'risidagi masalalarni oldindan hal qilib qo'yishga haqli emas.

(46-bob O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

47-bob. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish

437-modda. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud hujjatlarini qayta ko'rish asoslari

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rilishi mumkin.

Hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

1) arizachiga noma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlar, agar ular ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lsa;

2) sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan, qonunga xilof, asossiz yoki adolatsiz qaror chiqarilishiga sabab bo'lgan holatlar, ya'ni guvohning bila turib bergan yolg'on ko'rsatuv, ekspertning bila turib bergan yolg'on xulosasi, atayin noto'g'ri qilingan tarjima, qalbaki hujjatlar yoki dalillar;

(437-modda ikkinchi qismining 2-bandi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrda O'RQ-1003-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son)

3) taraflarning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning yoki sudyalarning mazkur ish bo'yicha qonunga xilof, asoslantirilmagan yoxud adolatsiz sud hujjati qabul qilinishiga sabab bo'lgan, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan jinoiy qilmishlari;

4) sud hal qiluv qarorining, hukmining, ajrimining yoki qarorining yoxud shu hal qiluv qarori, ajrim va qaror chiqarilishiga sabab bo'lgan boshqa organ qarorining bekor qilinishi.

438-modda. Sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'radigan sudlar

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yangi ochilgan holatlar bo'yicha ushbu hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan yangidan ko'riladi. Apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudlarining qaysi ajrimlari va qarorlari bo'yicha birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori o'zgartirilgan yoxud yangi hal qiluv qarori qabul qilingan bo'lsa, o'sha qarorlar va ajrimlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish sud hujjatini o'zgartirgan yoki yangi hal qiluv qarori qabul qilgan sud tomonidan amalga oshiriladi.

(438-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

439-modda. Sud hujjatlarini qayta ko'rish to'g'risida ariza berish

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish haqidagi ariza hal qiluv qarorini, ajrimni yoxud qarorni chiqargan sudga ishda ishtirok etgan shaxslar tomonidan beriladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bunday arizani hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran uch oy muddat ichida berishi mumkin.

(439-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

Ariza bilan murojaat etgan shaxsning iltimosnomasiga ko'ra, o'tkazib yuborilgan arizani berish muddati, agar iltimosnoma qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ochilgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay berilgan bo'lsa va sud muddatni o'tkazib yuborish sabablarini uzrli deb topsa, sud tomonidan tiklanishi mumkin.

440-modda. Ariza berish muddatini hisoblash

Ariza berish muddati:

1) ushbu Kodeks 437-moddasi ikkinchi qismining **1-bandida** nazarda tutilgan hollarda — ish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlar ochilgan kundan e'tiboran;

2) ushbu Kodeks 437-moddasi ikkinchi qismining **2 va 3-bandlarida** nazarda tutilgan hollarda — sudning hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran;

3) ushbu Kodeks 437-moddasi ikkinchi qismining **4-bandida** nazarda tutilgan hollarda — qayta ko'rilayotgan hal qiluv qaroriga, ajrimga yoki qarorga asos bo'lgan hukmga, hal qiluv qaroriga, ajrimga yoxud qarorga mazmunan qarama-qarshi bo'lgan sud hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan yoxud boshqa organning ana shunday qarori chiqarilgan kundan e'tiboran hisoblanadi.

441-modda. Arizaning shakli va mazmuni

Hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi ariza sudga yozma shaklda yoxud elektron hujjat tarzida beriladi. Ariza uni berayotgan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Sud qarorini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi arizada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

1) ariza berilayotgan sudning nomi;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi (nomi), ularning yashash joyi (joylashgan yeri) va pochta manzili;

3) arizachi yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishni talab qilayotgan sud hujjatini qabul qilgan sudning nomi, ishning raqami, sud hujjati qabul qilingan sana;

4) arizachining fikriga ko'ra, sud hujjatini qayta ko'rish uchun asos bo'layotgan yangi ochilgan holatlar, ularni tasdiqlovchi hujjatlar;

5) ariza berayotgan shaxsning talabi;

6) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

1) yangi ochilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalari;

(441-modda uchinchi qismining 2-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-sentabrdagi O'RQ-716-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son)

3) ariza vakil tomonidan imzolangan taqdirda, vakilning uni imzolashga bo'lgan vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat.

442-modda. Arizani ko'rish

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda sud majlisida, arizachini va ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko'riladi. Biroq bu shaxslarning kelmaganligi arizani ko'rishga to'sqinlik qilmaydi.

443-modda. Sud hujjatini qayta ko'rish to'g'risidagi ajrim

Sud yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi arizani ko'rib, uni qanoatlantiradi va hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni bekor qiladi yoxud ishni qayta ko'rishni rad qiladi. Ajrim ishda ishtirok etuvchi shaxslarga tilxat olib topshiriladi yoki ularga pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi.

444-modda. Sudning ajrimi ustidan shikoyat qilish

Hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi arizani qanoatlantirish yoki rad qilish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Xususiy shikoyatda (protestda) xususiy shikoyat (protest) bergan shaxsning yoki uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin.

445-modda. Sud hujjatlarini qayta ko'rish to'g'risidagi arizani qanoatlantirish oqibatlari

Hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, ish sud tomonidan umumiy asoslarda ko'riladi.

V BO'LIM. SUD HUJJATLARINING IJROSI

446-modda. Sud hujjatlarini ijroga qaratish

Sud hujjatlari ular qonuniy kuchga kirgandan keyin ijroga qaratiladi, bundan uning qonunchilikda belgilangan tartibda darhol ijro etilishi hollari mustasno.

(446-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sud hujjatining majburiy ijrosi, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

447-modda. Ijro varaqasi

Ijro varaqasi sud tomonidan berilgan, undiruvchining sud hujjatini majburiy ijro etishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatdir.

Ijro varaqasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- 1) ijro varaqasini bergan sudning nomi;
- 2) ijro varaqasining qaysi ish bo'yicha berilganligi va uning raqami;
- 3) ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjati qabul qilingan sana;

4) undiruvchi va qarzdorning nomi, ularning manzillari; jismoniy shaxslar uchun — qarzdor jismoniy shaxsning tug'ilgan sanasi va joyi, ish joyi, shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), mavjud bo'lgan taqdirda — undiruvchi jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami, shuningdek undiruvchining va qarzdor yuridik shaxsning soliq to'lovchi identifikatsiya raqami;

(447-modda ikkinchi qismining 4-bandi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-iyundagi O'RQ-1069-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son)

- 5) sud hujjatining qaror qismi;
- 6) sud hujjati kuchga kirgan sana;
- 7) ijro varaqasi berilgan sana va uni ijroga topshirish muddati.

Sud hujjatiga asosan beriladigan ijro varaqasi sudyaning elektron raqamli imzosidan foydalangan holda rasmiylashtiriladi va QR-kod (matritsali shtrixli kod) bilan tasdiqlanadi. Bunda agar sud hujjatiga asosan berilgan ijro varaqasi O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ijro etilishi lozim bo'lsa yoki undiruvchining iltimosnomasiga ko'ra u sudning muhri va sudyaning imzosi bilan tasdiqlangan holda qog'oz shaklida berilishi (yuborilishi, taqdim etilishi) mumkin.

(447-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-iyundagi O'RQ-1069-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son)

448-modda. Ijro varaqasi berish

Har bir sud hujjati bo'yicha bitta ijro varaqasi beriladi. Biroq, agar ijro turli joylarda yoki bir nechta undiruvchining foydasiga amalga oshiriladigan bo'lsa, sud undiruvchilarning iltimosiga binoan ijro joyini yoxud hal qiluv qarori ijrosining har bir ijro varaqasiga tegishli qismini aniq ko'rsatgan holda bir necha ijro varaqasi beradi.

Bir nechta javobgardan pul summalarini undirish to'g'risidagi hal qiluv qarori asosida javobgarlarning soni bo'yicha bir nechta ijro varaqasi beriladi. Bunda, agar solidar javobgarlardan

undirish nazarda tutilayotgan bo'lsa, har bir ijro varaqasida undiruvning umumiy summasi ko'rsatilishi va solidar javobgar ekanligi ko'rsatilgan holda javobgarlarning hammasi sanab o'tilishi kerak.

Ijro varaqasi sud hujjatini qabul qilgan sud tomonidan beriladi.

Ijro varaqasi undiruvchiga beriladi yoki sud hujjati qonuniy kuchga kirgandan so'ng besh kun ichida undiruvchining iltimosnomasiga ko'ra davlat ijrochisiga ijro etish uchun yuboriladi, bundan sud hujjati chiqarilishi bilanoq ijro varaqasi berilib, darhol ijro etiladigan hollar mustasno.

Ijro varaqasi undiruvchi jismoniy shaxslarga elektron hujjat tarzida, ularning O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabinetini orqali — mavjud bo'lgan taqdirda, undiruvchi yuridik shaxslarga esa soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini orqali yuboriladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida undiruvchi jismoniy shaxsning shaxsiy kabinetini mavjud bo'lmasa, ijro varaqasi unga qog'oz shaklida beriladi.

(448-modda O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-iyundagi O'RQ-1069-sonli Qonuniga asosan beshinchi va oltinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son)

449-modda. Sud tomonidan ijro varaqasini yuborish

Jinoyat sodir qilish natijasida yetkazilgan zararni undirish, alimentlarni undirish, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik, shuningdek boquvchi vafot etganligi natijasida ko'rilgan zararining o'rnini qoplash, xodim bilan mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilish yoxud xodimni g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazishda yoki sudning ishga tiklash to'g'risidagi hal qiluv qarorini bajarmaganlikda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslardan pul summalarini undirish, davlat daromadiga pul mablag'larini undirish hollarida sud o'z tashabbusiga ko'ra ijro varaqasini ijro etish uchun yuboradi.

Davlat foydasiga mulkiy undiruvlar bo'yicha ijro varaqasi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng uch ish kuni ichida sud tomonidan qarzdorning joylashgan yeridagi davlat ijrochisiga yuboriladi.

Ijro varaqasi elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

450-modda. Ijro varaqasining yoki sud buyrug'ining dublikatini berish

Ijro varaqasining yoki sud buyrug'ining asl nusxasi yo'qotilgan hollarda, sud hujjatini chiqargan sud undiruvchining yoxud davlat ijrochisining arizasiga ko'ra, ijro varaqasining dublikatini berishi mumkin.

Dublikat berish haqidagi ariza ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'riladi, biroq ularning kelmaganligi dublikat berish to'g'risidagi masalani hal etish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Dublikat berish to'g'risidagi ariza bunday ariza sudga kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida sud majlisida ko'riladi.

Sudning dublikat berish to'g'risidagi masalaga doir ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Xususiy shikoyatda (protestda) xususiy shikoyat (protest) bergan shaxsning yoki uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin.

451-modda. Ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddati

Sudning hal qiluv qarori majburiy tartibda ijro etish uchun, agar qonunda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, u qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran uch yil ichida taqdim etilishi mumkin.

Davriy to'lovlarni undirish uchun berilgan ijro varaqalari bu to'lovlar undiriladigan butun davr ichida ijroga taqdim etilishi mumkin. Ijro varaqasi ijroga taqdim etilguniga qadar o'tgan vaqt uchun davriy to'lovlar ushbu moddaning **birinchi qismida** belgilangan muddatlar doirasida undiriladi.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan muddatlarning o'tishi har bir to'lov muddati tugagan kundan e'tiboran boshlanadi.

Agar sud tomonidan ijro varaqasi berilguniga qadar sud hujjatining ijrosi kechiktirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etilishiga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, unda ijro varaqasini taqdim etish muddati qaysi vaqtdan boshlanishi ko‘rsatiladi.

452-modda. Ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddatining uzilishi

Ijroga taqdim etish muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, ijro varaqasining ijroga taqdim etilishi, shuningdek hal qiluv qarorining qisman ijro etilishi bilan uziladi.

Muddat uzilgandan so‘ng uning o‘tishi yangidan boshlanadi, bunda oldingi o‘tgan vaqt yangi muddatga qo‘shib hisoblanmaydi. Ijro varaqasi to‘liq yoki qisman undirilmay qaytarilgan taqdirda, ijro varaqasini ijroga taqdim etish uchun yangi muddatni hisoblash ijro varaqasi undiruvchiga qaytarilgan kundan e‘tiboran boshlanadi.

453-modda. Ijro varaqasini ijroga taqdim etishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklash

Ijro varaqasini ijroga taqdim etishning o‘tkazib yuborilgan muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, sud uzrli deb topgan sabablarga ko‘ra tiklanishi mumkin.

O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi ariza sud hujjatini chiqargan sudga yoki u ijro etiladigan joydagi sudga beriladi. Ariza sudga kelib tushgan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida sud majlisida, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko‘riladi, biroq bu shaxslarning kelmaganligi o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ajrim chiqarilib, u undiruvchi va qarzdorga yuboriladi.

O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash rad qilinganligi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

454-modda. Hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish yoki uning bo‘lib-bo‘lib ijro etilishi, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish

Sud hujjatining ijrosini qiyinlashtiradigan obyektiv holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, sud undiruvchining, qarzdorning yoki davlat ijrochisining arizasiga binoan hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirishga yoxud uning bo‘lib-bo‘lib ijro etilishiga yo‘l qo‘yishga, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirishga haqli.

Agar vakolatli davlat organining qarorida yoki taraflarning kelishuvida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoxud bo‘lib-bo‘lib ijro etish uchun ko‘pi bilan bir yil muddat berilishi mumkin.

Qarzdorga sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uning bo‘lib-bo‘lib ijro etilishiga yo‘l qo‘yish chog‘ida, sud ushbu Kodeksning 9-bobida nazarda tutilgan tartibda uning ijrosini ta‘minlash choralarini ko‘rishi mumkin.

Sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib ijro etish, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish haqidagi ariza kelib tushgan kundan e‘tiboran o‘n kunlik muddatda sud tomonidan ko‘riladi.

Arizani ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim chiqarilib, uning ko‘chirma nusxasi undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek sud hujjatining ijrosi davlat ijrochisining ish yurituvda bo‘lgan taqdirda, davlat ijrochisiga yuboriladi.

Ajrim ustidan ushbu Kodeksda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

455-modda. Ijro ishini yuritishni to‘xtatib turish va tugatish

Sud davlat ijrochisi sud tomonidan berilgan ijro varaqasi asosida qo‘zg‘atgan ijro ishini yuritishni qonunda nazarda tutilgan hollarda, undiruvchining, qarzdorning, davlat ijrochisining arizasi bo‘yicha to‘xtatib turishi yoxud tugatishi mumkin.

Sud tomonidan berilgan ijro varaqasi asosida qo'zg'atilgan ijro ishini yuritishni to'xtatib turish va tugatish shu sud tomonidan yoki davlat ijrochisi joylashgan yerdagi sud tomonidan amalga oshiriladi.

Ijro ishini yuritishni to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi ariza kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taraflarni chaqirmagan va sud muhokamasi o'tkazmagan holda sud tomonidan ko'riladi.

Ijro ishini to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari yuzasidan ajrim chiqarilib, uning ko'chirma nusxasi undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek davlat ijrochisiga yuboriladi.

Ajrim ustidan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

456-modda. Ijro ishini yuritishni tiklash

Ijro ishini yuritish uni to'xtatib qo'yish uchun asos bo'lgan sabablar yoki holatlar bartaraf etilganidan keyin, ushbu ishni to'xtatib qo'ygan sud tomonidan undiruvchining, davlat ijrochisining arizasiga ko'ra tiklanadi.

Ijro ishini yuritishni tiklash to'g'risidagi ariza kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda, taraflarni chaqirmagan va sud muhokamasini o'tkazmagan holda sud tomonidan ko'riladi.

Ijro ishini yuritishni tiklash to'g'risidagi arizani ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqarilib, uning ko'chirma nusxasi undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek davlat ijrochisiga yuboriladi.

Sudning ijro ishini yuritishni tiklashni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan ushbu Kodeksda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

457-modda. Ijro varaqasini qaytarib olish va yangi ijro varaqasi berish

Sud o'zi tomonidan yozuvdagi xatolar, arifmetik xatolar bilan berilgan, shuningdek o'zgartirilgan (bekor qilingan) sud hujjati asosida berilgan ijro varaqasini undiruvchining, qarzdorning, davlat ijrochisining arizasiga yoki o'zining tashabbusiga ko'ra taraflarni chaqirmagan va sud muhokamasini o'tkazmagan holda qaytarib olishga hamda uning o'rniga yangi ijro varaqasini berishga haqli.

Yozuvdagi xatolar, arifmetik xatolar bilan berilgan yoki o'zgartirilgan (bekor qilingan) sud hujjati asosida berilgan ijro varaqasi uni bergan sudga undiruvchi yoki davlat ijrochisi tomonidan ijro etilmasdan qaytariladi.

458-modda. Qaytarma ijro

Ijro etilgan sud hujjati o'zgartirilgan yoki bekor qilingan va ish yangidan ko'rib chiqilganidan keyin talablarni qanoatlantirishni to'liq yoki qisman rad etish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilingan yoki ish yuritishni tugatish to'g'risida yoxud arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrim chiqarilgan taqdirda, o'zgartirilgan yoki bekor qilingan sud hujjati bo'yicha javobgardan da'vogarning foydasiga undirilgan narsalarning barchasi javobgarga qaytarib berilishi kerak (hal qiluv qarorining qaytarma ijrosi).

(458-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-661-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son)

Agar ijro etilmagan sud hujjati bekor qilingan yoki o'zgartirilgan bo'lsa va da'voni to'liq yoxud qisman rad etish to'g'risida yangi sud hujjati qabul qilingan bo'lsa yoki ishni yuritish tugatilgan yoki da'vo ko'rmasdan qoldirilgan bo'lsa, sud sud hujjatining bekor qilingan yoxud o'zgartirilgan tegishli qismi bo'yicha undirishni to'liq yoki qisman tugatish to'g'risidagi sud hujjatini qabul qiladi.

459-modda. Sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masalaning birinchi instansiya sudi tomonidan hal qilinishi

Ish yangidan ko'rish uchun o'ziga topshirilgan sud o'z tashabbusi bilan qaytarma ijro to'g'risidagi masalani ko'rishi va uni yangi sud hujjatida yoki ajrimida hal qilishi shart bo'lib, shu bilan ish yuritish tamomlanadi.

Ishni yangidan ko'rayotgan sud bekor qilingan sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masalani hal qilmagan taqdirda, javobgar bu sudga qaytarma ijro to'g'risida ariza berishga haqli. Bu ariza ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda, sud majlisida ko'riladi. Biroq bu shaxslarning kelmaganligi sud oldiga qo'yilgan masalaning hal etilishi uchun to'sqinlik qilmaydi.

Sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi ariza davlat boji to'lanmagan holda umumiy da'vo muddati ichida berilishi mumkin.

Sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi ariza kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda sud tomonidan ko'riladi.

Arizaga ilgari qabul qilingan sud hujjatining ijrosini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi arizani ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.

Sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masala bo'yicha sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, sud undirilgan pul mablag'larini, mol-mulkni yoki uning qiymatini qaytarish uchun ijro varaqasi beradi.

460-modda. Sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masalani apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudi tomonidan hal qilish

Apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudi huquq to'g'risidagi nizoni uzil-kesil hal qilsa yoki ish yuritishni tamomlasa, sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masalani hal qilishi yoxud uni hal qilish uchun birinchi instansiya sudiga topshirishi shart.

Agar yuqori turuvchi sudning ajrimida sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masala bo'yicha hech qanday ko'rsatma bo'lmasa, javobgar birinchi instansiya sudiga tegishli ariza berishga haqli. Birinchi instansiya sudi bu arizani ushbu Kodeksning 459-moddasi qoidalariga binoan ko'rib chiqadi va hal qiladi.

(460-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

461-modda. Alohida toifadagi ishlar bo'yicha qaytarma ijroning o'ziga xos jihatlari

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha pul summalarini undirish to'g'risidagi, intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun haq undirish haqidagi, alimentlar undirish to'g'risidagi, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik, shuningdek boquvchining vafot etishi natijasida yetkazilgan zararining o'rnini qoplash haqidagi ishlar bo'yicha sud hujjatlari bekor qilingan taqdirda, agar bekor qilingan sud hujjati da'vogar bergan soxta ma'lumotlarga yoxud u taqdim etgan qalbaki hujjatlarga asoslangan bo'lsa, sud hujjatining qaytarma ijrosiga yo'l qo'yiladi.

462-modda. Yo'qolgan ijro ishini yuritishni tiklash

Yo'qolgan ijro ishini yuritish sud tomonidan ishda ishtirok etgan shaxslarning, ijro ishini yuritish taraflarining, davlat ijrochisining, prokurorning arizasiga ko'ra, shuningdek ijro hujjatini bergan sudning yoki boshqa organning tashabbusi bo'yicha tiklanishi mumkin.

Yo'qolgan ijro ishini yuritish to'liq tiklanadi yoki uning sud fikriga ko'ra tiklanishi zarur bo'lgan qismi tiklanadi.

Yo'qolgan ijro ishini yuritishni tiklash to'g'risidagi ariza sud hujjati ijro etiladigan joydagi sudga beriladi.

Arizada ijro ishini yuritish to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar bo'lishi kerak. Arizachida saqlanib qolgan va ijro ishini yuritishga daxldor bo'lgan hujjatlar yoki ularning ko'chirma nusxalari arizaga ilova qilinadi.

Sud ishni ko'rayotganda ijro ishini yuritishning saqlanib qolgan qismidan, ish yo'qolguniga qadar undan jismoniy va yuridik shaxslarga olib berilgan hujjatlardan, bu hujjatlarning ko'chirma nusxalaridan, shuningdek ijro ishini yuritishga daxldor bo'lgan boshqa ma'lumotnomalar va hujjatlardan foydalanadi.

Sud ijro harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etgan yoki hozir bo'lgan shaxslarni guvoh sifatida so'roq qilishi mumkin.

Arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud ajrim chiqaradi, uning ko'chirma nusxalari ijro ishining taraflariga va davlat ijrochisiga yuboriladi.

To'plangan materiallar yo'qolgan ijro ishini yuritishni aniq tiklash uchun yetarli bo'lmasa, sud ajrim chiqarib, ijro ishini yuritishni tiklash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishni tugatadi. Bu holda arizachi umumiy tartibda da'vo taqdim etishga haqli.

Arizachi yo'qolgan ijro ishini yuritishni tiklash to'g'risidagi ish ko'rib chiqilishi chog'ida sud tomonidan qilingan sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilinadi. Bila turib yolg'on ariza berilganda sud xarajatlari arizachidan undirib olinadi.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y., 02/18/FPK/0612-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son; 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son, 11.05.2019-y., 03/19/536/3114-son, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son; 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son; 13.11.2019-y., 03/19/583/4016-son; 15.11.2019-y., 03/19/584/4025-son, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son; 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son, 15.01.2020-y., 03/20/602/0052-son, 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son, 11.03.2020-y., 03/20/608/0278-son; 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son; 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son; 28.08.2024-y., 03/24/947/0666-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 30.09.2024-y., 03/24/968/0760-son; 08.11.2024-y., 03/24/993/0903-son; 15.11.2024-y., 03/24/997/0923-son; 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son; 29.01.2025-y., 03/25/1022/0083-son; 12.03.2025-y., 03/25/1047/0233-son; 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son; 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son; 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son; 23.04.2026-y., 03/26/1141/0403-son; 01.05.2026-y., 03/26/1142/0440-son)